



XURAMAN
MURADOVA

Vatan ishqi – Turon sevgisi

She'rlar



SAHHOF
2025

821.512.133-1
84-5(5ŷ)
M 56

M 56 Muradova, Xuraman
Vatan ishqı – Turon sevgisi [Matn]: *she'rlar /*
X. Muradova; tarjimon: K. Bahriyev
– Toshkent: SAHHOF, 2024. – 208 6.

ISBN 978-9943-6665-6-6

Tarjimon
Karim Bahriyev



I BO'LIM

Adabiy va abadiy aloqalar

Salom bo'lsin, Ozarbayjon!
Salom bo'lsin, Turkiyamiz!
Salom bo'lsin, O'zbekiston!
Salom bo'lsin, Qozog'iston!
Salom bo'lsin, Qirg'iziston, Turkmaniston!
Salom, buyuk Turkiston!

ISBN 978-9943-6665-6-6

© Xuraman Muradova, 2025
© SAHHOF, 2025



MUALLIF SO'ZI

Hurmatli o'quvchim! Aziz kitobxon!

Minglab kilometrlar olisda bo'lishiga qaramay, dunyoning turli geografiyalarida Turkistonning ulug' muhabbati bilan yuragi uradigan birodarim, qardoshim, yurtdoshim, vatandoshim – Turon sevgisida yonganlar!

Sizlarni Ulug' Alloh nomi bilan chuqur hurmat va ehtirom bilan chin qalbidan tabriklayman!

Salom bo'lsin, Ozarbayjon!

Salom bo'lsin, Turkiyamiz!

Salom bo'lsin, O'zbekiston!

Salom bo'lsin, Qozog'iston!

Salom bo'lsin, Qirg'iziston, Turkmaniston!

Salom, buyuk Turkiston!

Karkukda yuragi biz bilan urgan turkman onalarimizga salom!

Oltoydan, Sibirdan Tuvaga salom bo'lsin!

Xakasdan Tataristonga salom bo'lsin!

Boshqirdistondan Chuvashiyaga salom bo'lsin! Salom bo'lsin Qrim! Qimmatli turk xalqi yashaydigan barcha Turon yurtlariga salom bo'lsin!

Turonning yuragi Tangritoqqa salom bo'lsin!

Salom bo'lsin mening go'zal Qorabog'imga!!

Mening yuragimdan chiqqan misralarning pi-chirlashlariga uzoq-uzoq ellarda hamdam bo'lgan



aziz O'quvchim! Qo'lingizdagi bu kitob vujudimga, ruhimga sig'maydigan Ilohiy sevgimning so'zda ta'kidi... Mavjudligimning oynasi, qalb uyimning ko'rinishi, taqdirimning sahifalardagi aksidir. Qo'lingizdagi bu kitob ba'zan har bir misrasini qog'ozga ko'chirganda chuqur his qilayotgan yuragimning og'rig'i, ruhimning siqilishi. Hayqirganimda ichimdagi Haqqa sadosi. Qo'lingizdagi bu kitob non-tuzi halollikdan yo'g'rilgan otamning xotiramda shakllanayotgan obrazidir... Yoshlikning har davrida bolalik sofligini saqlagan onamning – oddiy qishloq xonimining ko'zlarimdan ketmaydigan mehnatkash qo'llari, ma'sum nazarlari, farzandlarimga – qizim Lochinga, o'g'lim Elchiga bergan ona duosi... Qo'lingizdagi bu kitob ko'ksimda qolgan chala sevgi maktublari-dir... Qo'lingizdagi bu kitob misralarga joylagan Turon ishqı siz bilan Xaribulbul atirli Qorabog'imdan ko'ngillar sultoni Tangritoqqa borgan yo'ldoshim... Yo'lovchi yo'lda kerak, mening aziz o'quvchim! Yo'limiz ochiq bo'lsin!

Hurmat bilan

Xuraman Muradova,
Ozarbayjon, Turkiya, O'zbekiston
Yozuvchilar uyushmasi a'zosi



TARJIMAYI HOL

Xuraman Ismoil qizi Muradova 1965-yilning 22-avgustida Goranboy tumanining Xangervand qishlog'ida tug'ilgan. Asli Lochin tumanidan. 1982-yilda Ozarbayjon Davlat arxitektura universitetiga o'qishga kirib, 1988-yilda tamomlagan. 1990-yildan boshlab Ozarbayjon Davlat moddiy texnik ta'minot vazirligida muhandis sifatida faoliyat yuritgan va o'sha vaqtdan boshlab tadbirkorlik bilan shug'ullana boshlagan. 2009-yilda xususiy tibbiyot markazi – "MILAN HOSPITAL"ni tashkil qilgan va hozirgi kunga qadar shu shifoxonaning asoschisi va direktori sifatida faoliyat yuritmoqda. Tibbiyot sohasida qilgan ishlari uchun 2019-yildan boshlab Yevropa Tibbiyot assotsiatsiyasi (EMA) a'zosi. Xuraman Muradova tadbirkor sifatida faoliyat yuritgan yillarda ko'plab faxriy yorliqlar va mukofotlar bilan taqdirlangan:

2021-yil dekabr oyida Yevropa Tibbiyot assotsiatsiyasi tomonidan Oksford Akademik ittifoqi boshqaruvi faxriy professori unvoni bilan taqdirlangan.

2022-yildan Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi va Turkiya Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.

2023-yilda "Vektor" xalqaro fanlar akademiyasining faxriy professori unvoni, 2023-yilda esa "Humay" Milliy mukofoti bilan taqdirlangan.

2023-yildan Turkiya "Sharaf" medali laureati. 2023-yilda Turk dunyosi tadqiqotlari Xalqaro fan-

lar akademiyasining faxriy professori unvoni va "Oltin yulduz" medali bilan taqdirlangan.

Ozarbayjon Qurolli kuchlarining leytenant-general, Maxsus kuchlar qo'mondoni Hikmat Mirzayev tomonidan, 44 kunlik Vatan urushi davrida shahid oilalari va jangchilarga o'ziga tegishli bo'lgan "MILAN HOSPITAL" xususiy klinikasida bepul xizmat va davolash yordami ko'rsatgani uchun Faxriy yorliq, Faxriy nishonlar va "Vatanim, bayrog'im, sharafim" mukofotiga sazovor bo'lgan.

44 kunlik Vatan urushida frontga ko'rsatgan yordami, g'ozilarimizga bepul davolash xizmatlarini taqdim etgani uchun urushdan keyingi davrda birdamlik, tenglik, orqa frontda jarohatlangan askar va zobitlarga ko'rsatgan tekshiruv, davolash, e'tibor, g'amxo'rlik va xizmatlari, janob Ilhom Aliyev siyosatini qo'llab-quvvatlagani, g'ozilar va shahid oilalariga beg'araz davolash va xayrixohlik ishlari uchun Ozarbayjon Qurolli kuchlarining general-leytenant Mais Barxudarov tomonidan Faxriy farmon bilan taqdirlandi.

Ozarbayjonning hududiy yaxlitligi uchun olib borilgan Vatan urushi davrida o'z fuqarolik burchini munosib ado etganligi va mislsiz xizmatlari uchun Naxchivon Alohida umumqo'shin armiya qo'mondoni general-leytenant Fazil Agalarov tomonidan Faxriy yorliq hamda ko'plab harbiy qismlar tomonidan ko'plab mukofotlar bilan taqdirlangan.





Ozarbayjon Respublikasi prezidenti Ilhom Aliyevning davlatchilik siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirayotganligi uchun Parlamentinsesi. az yangiliklar portali tomonidan “Sharafli umr” faxriy media mukofotiga, Butunjahon ozarbayjonliklari diaspora tashkilotining “Buta” mukofotiga va Ozarbayjon Tadbirkor ayollar ijtimoiy birligi tomonidan “Xurshidbonu Notavon” mukofotiga sazovor bo’ldi. “Qahramonlar, Vatan urushi ishtirokchilari va ularning oilalariga ijtimoiy yordam” Ijtimoiy birligi, shuningdek, Ozarbayjon Respublikasi “Shahid oilalariga yordam va huquqlarini himoya qilish” Ijtimoiy birligining faxriy a’zosi sifatida tanlandi.

2021-yilda Ozarbayjonda “Senga maktub yozaman...” nomli birinchi kitobi, 2023-yilda Turkiyaning Anqara shahrida “Ey Lochin, jon Lochin” nomli ikkinchi kitobi chop etilgan.

2023-yil oktyabr oyida Turkiyaning Elazig shahrida bo’lib o’tgan xalqaro “Xazar she’r oqshomlari” she’r festivalida Ozarbayjonni yuqori darajada namoyish qilgan va Turk Adabiyoti Jamg’armasining “Turk adabiyotiga xizmat” unvoniga sazovor bo’lgan.

2023-yilning oktyabr oyida Iroq Respublikasi Madaniyat vazirining “Xizmat mukofoti” va Kirkuk Madaniyat jamiyati tomonidan “Turk she’riyatiga xizmat” mukofotiga loyiq ko’rilgan.



ADABIY VA ABADIY ALOQALAR

Tariximiz zarvaraqlari o’zbek va ozarbayjon xalqlarini tili, an’ana va urf-odatlari bir-biriga nechog’li yaqin ekanligidan guvohlik beradi. Bugun esa ikki mamlakat jamiyati bu madaniy rishtalarni umumiy qadriyatlar sifatida qadrlab, ularni mustahkamlab kelmoqda. Buni ko’plab siyosiy, iqtisodiy va madaniy jabhalarda ko’rish mumkin. Agar mumtoz adabiyotimiz tarixiga nazar tashlasak, Ozarbayjon adabiyotining buyuk siymolaridan biri shoir Nizomiy Ganjaviy ijodining o’zbek adabiyotiga katta ta’sir ko’rsatganiga guvoh bo’lamiz. Jumladan, Qutb Xorazmiy Nizomiy ta’siri ostida o’zining “Xusrav va Shirin” dostonini yozgani ma’lum. Shuningdek, o’zbek adabiyotining mumtoz namoyandalari bo’lmish Lutfiy, Xorazmiy, Durbek, Gadoyi, Atoyi, Sakkokiy kabilar ijodida Ozarbayjon adabiyotining ta’siri seziladi. Haydar Xorazmiy ilk bor Nizomi Ganjaviyning “Maxzan ul-asror” (“Sirlar xazinasi”) asari ta’sirida o’zining “Maxzan ul-asror” asarini yozgani barchamizga ma’lum.

Nafaqat o’zbek, balki butun turkiy xalqlar adabiyotining buyuk namoyandasi, mutafakkir shoir, olim, davlat va jamoat arbobi, ilm va adabiyot homiysi bo’lmish Alisher Navoiy Nizomiy Ganjaviy an’analarini davom ettirib, ilk bor turkiy tilda “Xamsa” dostonini yaratdi. Navoiy Nizomiy-





dan farqli ravishda o'z "Xamsa"sini turkiy tilda bitib, bu tilning qudratini namoyish etdi. Albatta, Navoiy "Xamsa" dostonini yaratar ekan, Nizomiy dahosi oldida o'zini ulkan bir sinov turganini his etdi. Dostonlarning har muqaddimasida Nizomiy fخر bilan tilga oldi, unga bo'lgan cheksiz hurmatini, ixlosini bayon etdi. U Nizomiy o'ziga ustoz deb bildi.

Keyinchalik ham adabiy ta'sir, aloqalar to'xtab qolmadi. Ozarbayjon adabiyotining ko'rkam va-killaridan biri Muhammad Fuzuliy Navoiy o'ziga ustoz bilib, unga ergashib g'azallariga naziralar bitdi. Shu bilan barobar o'zbek adabiyoti namoyandalari ham Fuzuliy o'ziga ustoz sifatida bildi. Muhammad Rizo Ogahiy, Amir Umarxon, Andalib, Muqimiy, Uvaysiy, Roqim, Sulton Sayyid Nosirxon, Tabib Xorazmiy, Sadir Erkin kabi mumtoz o'zbek shoirlarining Fuzuliy g'azallariga naziralar bitgani ma'lumdur. Fuzuliy nomi butun turkiy xalqlar adabiyotining buyuk siymosi sifatida e'tirof etiladi.

Asrlar mobaynida davom etib kelgan urf-odat va an'analari, adabiyoti, falsafasi, me'morchiligi, musiqasi, san'ati, madaniyati, tarixi, tili jihatidan ozarbayjonliklar o'zbek xalqiga juda yaqin. Ushbu xalqlarning bir-biriga yaqinlashtirgan umumiy va o'xshash jihatlar ularning tili va adabiyoti hamda madaniyatida keng namoyon bo'ladi.

Istiqlol qatag'on qilingan shoir va yozuvchilar-



ning, olimlarning badiiy va ilmiy merosini tiklash, ularni keng targ'ib qilish imkoniyatini berdi. Ko'plab noyob durdonalar qayta tiklandi, xalqqa qaytarildi. Nabi Xazri, Xalil Rza Uluturk, Mammad Oraz, Baxtiyor Vahobzoda, Qobil, Kabir Navro'z, Yusuf Samado'g'li, Ag'amali Sodiq, Anor, Elchin, Fikrat Xoja, Zalimxon Yoqub, Hidoyat, Huseyn Kurdo'g'li, Mamad Aslan, Ramiz Ravshan, Rustam Berudi va boshqa ozarbayjon shoir va yozuvchilarining; Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Rauf Parfi O'zturk, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, Shukur Xolmirzayev, Shukrullo, O'tkir Hoshimov, Halima Xudoyberdiyeva, Oydin Hojiyeva, Usmon Azim, Shavkat Rahmon, Usmon Qo'chqor boshqa o'zbek shoir va yozuvchilari istiqloq yillarida yaratilgan asarlarida o'tgan asarning fojiali jihatlarini badiiy aks ettirdi.

Bu yillarda bir qator ozarbayjon ijodkorlarining asarlari o'zbek tiliga o'girilib, kitobxonlar hukmiga havola etildi. Jumladan, Baxtiyor Vahobzoda, Xalil Rza Uluturk, Mammad Araz, Fikrat Xoja, Voqif Samado'g'li, Ramiz Ravshan, Voqif Bayatli she'rlarining, Yusuf Samado'g'lining "Qatl kuni", Anorning "Besh qavatli uyning oltinchi qavati" romani, "Dantening yubileyi" qissasi, "Gurji familiyasi" va boshqa hikoyalarini, Akram Aylislining "Qura qirg'og'idagi gulxanlar" asari, Elchinning "Baladadashning ilk muhabbati", "Baladadashning to'y hammomi", "Chelak",





“O’lim hukmi” asarlari, Ag’aali Sodiqning “Bosh-siz” nomli asarlarini o’zbek o’quvchilari iliq kutib oldi. Shuningdek, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Usmon Azim, Usmon Qo’chqor, Tohir Qahhor, Shavkat Rahmon, Tilak Jo’ra she’rlari, Xayriddin Sultonning “Yo, Jamshid!”, Abdulhamid Ismoilning “Ikki qariyaning tarixi” kabi asarlarining ozarbayjon tiliga qilingan tarjimalarini alohida ta’kidlash lozim.

G’arb va Sharqning atoqli olimlari Navoiy ijodiy merosini o’rganib, ko’plab kitoblar, maqolalar chop ettirgan. Ayniqsa, Ozarbayjon adabiyotshunosligida navoiyshunoslik sohasi alohida o’rin tutadi. Jumladan, **Faridunbey Ko’charli, Hamid Arasli, Panoh Xalilov, Jannat Nagiyeva, Xalil Rza Uluturk, Komil Vali Narimono’g’li, Ramiz Asqar, Tarlon Quliyev, Olmos Ulvi (Binnatova) singari taniqli olimlarning Navoiy ijodi bilan bog’liq tadqiqotlari nafaqat ozarbayjon adabiyotshunosligi, balki o’zbek adabiyotshunosligi uchun ham juda muhimdir.**

Ayniqsa, adabiyotshunos olim, professor **Olmos Ulvi Binnatovanning “Alisher Navoiy” va “O’zbek adabiyoti” monografiyasi, o’nlab o’zbek adiblari ijodi tadqiqiga bag’ishlangan ilmiy maqola va tadqiqotlari tahsinga sazovordir. Uning ijodi o’zbek - ozar adabiy aloqalari fonida muhim ahamiyat kasb etadi.**



Mustaqillik yillarida ham ikki xalq ijodkorlari badiiy tarjima vositasida bir-birlarining ijodlaridan foydalangan holda hayot uchun nihoyatda xarakterli bo’lgan mavzularni turli-tuman adabiy shakllarda aks ettirmoqdalar. Bu manzara bag’ishlov va naziralarda, uslubda va badiiy unsurlarning o’xshashligida, bir-biridan foydalanib, bir-birini rivojlantira borishda o’z aksini topayotir. Bu sohada olib borilgan tadqiqotlar nafaqat milliy, balki xalqaro aloqalar uchun ham muhim ahamiyat kasb etgan. Ozarbayjon va O’zbekiston bugungi kun xalqaro aloqalar tarixida muhim rol o’ynamoqda. Bugungi kunda Ozarbayjonda Akademik Isa Habibeyli, professorlar Almaz Ulvi, Rafael Huseynov, Akif Bagirov, Yashar Qasimov, Yunus O’guz, O’zbekistonda Akademik Shuhrat Sirojiddinov, professorlar Nurboy Jabborov, Boqijon To’xliyev, Abdulla Ulug’ov hamda Sirojiddin Sayyid, G’ayrat Majid singari ijodkorlar, universitetimiz huzuridagi Fuzuliy nomidagi ilmiy-tadqiqot markazining faoliyati bevosita ilmiy, adabiy-badiiy aloqalarni mustahkamlash uchun xizmat qilmoqda. Bu adabiy va madaniy aloqalar bugun yanada rivojlanib bormoqda.

She’rlari ikki xalqning hayotiga singishgan ijodkorni baxtli deyish mumkin. Xuraman Muradovanning tanlangan she’rlar to’plamidagi she’rlari vatanparvarlik ohanglari bilan yog’rilgan she’rlar





bo'lib, tug'yonlarga boyligi, yuksak pafosi bilan alohida ajralib turadi. Vatanga muhabbat, xalqqa fidoyi farzand bo'lish, vatani mustaqilligi qadr-qimmatini dildan anglab faxrlanish, uni asrab bilish va aziz yurti madhi shoira she'rlarda o'zining go'zal, sodda va samimiy ifodasini topgan.

Xuraman Muradova ijodida vatanparvarlik tuyg'usi, turkiy dunyo madhi alohida o'rin tutadi. Yuraklardagi tuyg'ular - dastlab onaga, qarddon uyiga, o'z Vatanga bo'lgan muhabbat bilan uyg'unlashib, ulkanlashib, qardosh yurt, do'stlik tuyg'usi qardoshlik sevgisiga do'nadi.

Ona yurtini kuylash shoirni baxtiyor qiladi. Shoirni bu tuyg'u ijodga undaydi. Aslida Vatan mavzusida qalam tebratmagan shoir yo'q. Ammo har bir ijodkor Vatan haqida o'z tilida kuylaydi, o'z mahorati darajasida ijod etadi. Xuraman Muradova nazdidagi Vatan obrazi butunlay o'zgacha. U kuylagan Vatan hamisha katta harflar bilan yoziladigan yaxlit tushunchaga aylanadi. Vatan so'zi shoiraning tilida mutlaqo yangicha, ohorli ifodalarda qalamga olinadi. Xuraman xonim she'rlari erk, mustaqillik, ozodlik va qardoshlik qo'shig'i bo'lib kuylanadi. Xuraman Muradova she'rlarining mavzusi hayotdagi muammolardan, odamlarning iztiroblari, dard-u g'amlari, orzu-xayollaridan olingan. Bu, ayniqsa, Qorabog' bilan bog'liq fikr-tuyg'ularida yorqin ko'rinadi. She'rlarining badiiy ifodasi esa



shoira qalbi ohanglari bilan uyg'un. Shuning uchun uning she'rlarini o'quvchi samimiyat bilan qabul etadi. Shoiraning she'rlarida turkiy xalqlar tarixini bilishi, millatning dardlarini yurakdan his qilishi seziladi. U turkiy vatanlarning o'tmishi, bugungi kuniga befarq emas, aksincha har bir inson yurti ravnaqi uchun chin dildan fidoyi bo'lishini istaydi.

Shoira Vatan haqidagi she'rlarida chinakamiga dilini ochadi, do'stlik, hamkorlik, qalbini o'ylantirgan muammolarni insonning asl qiyofasini ko'rsatadigan turkiy dunyo birligi g'oyasi bilan bog'laydi. Xuraman Muradovaning ijodi xuddi shu jihati bilan e'tiborni tortadi!

Xuraman Muradovaning Qorabog' haqidagi she'rlarida og'riqli kechinmalarini ifodalaganligini ko'rish mumkin. Talqinlarda hayotga keng miqyosdan qarash, "Vatan", "millat" tushunchalari teranlik miqyosini paydo qiladi.

Shoira Vatani Ozarbayjoni haqida kuylaydimi, qardosh O'zbekiston, Qozog'iston, Turkman va Qirg'iz xalqi haqida kuylaydimi, taqdiri, qismati bir turkiy xalqlarning birligi, hamnafaslik tuyg'usi sezilib turadi.

Xuraman xonimning she'rlaridagi samimiy tuyg'ular yurt rahbarlari, xalqning orzu-armonlari bilan mushtarakdir.

Xuraman xonimning she'rlari ravon, sodda, ammo jo'shqinligi bilan ajralib turadi. She'rlar no-





miga e'tibor bering: "Salom senga, aziz Vatan O'zbekiston, O'zbekiston!", "O'zbekistonim mening, sen-da menga ona vatan!", "Samarqandning yulduzlari", "Vatan ishq - Turon hajri! Ozarbayjon.", "Kelajaging porloq, ey vatan!", "Vatan", "Ey Lochin, jon Lochin!", "Sajdangga kelgandim, Shusham!", "Ozarbayjon - Turkiya", "Turon ellari", "Zafar qo'shig'i"... Shoira nazarida, Vatanga muhabbat - Vatan uchun fido bo'lmoqqa tayyor turish, g'alabadan faxrlanish, vatanni qo'riqlash - buyuk sadoqatdir. Uning she'rlarida bu haqiqat bo'rtib ko'rinadi. Bu yorug' olamning jannatlari borligini, ko'pligini aytib, ammo Vatandan bo'lagi bari minnat ekanini ta'kidlaydi. Shoira turkiy xalqlar o'tmishi, Qorabog' hasratlari, uning orzu-armonlarini poetiklashtirishni asosiy maqsad qilib olgan. Uning she'rlarining ohangida xalqning mushtarak orzu-niyatlari mujassam.

Ijodkorning eng yaxshi fazilatlaridan biri - hech bir ishda loqayd bo'lmaslik, ogohlik, o'z yurtini yurakdan sevishtirish! Turkiy xalqlarga muhabbat! Xuraman xonim she'rlarida bu jihat bo'rtib sezilib turadi. Insonparvarlik, mardlik, yurtining zafaridan sevinish kabi tuyg'ular uning ijodini ichdan nurlantiradi. Xuraman Muradova ijodida bo'y cho'zib turgan muhtasham obraz - Ozarbayjon va O'zbekiston timsoli bo'lib ko'z o'ngimizda jonlanadi.



Xuraman Muradova yuragining olampanohi bo'lgan Vatani haqida jo'shib yozadi, u tom ma'nodan muhabbat va sevgi kuychisi. Yozilmay qolgan maktublari bilan kitobxonlarga "yangi maktublar" yozadi! "Qalamingiz charchamasin!" deya Xuraman Muradovaning ijodiga muvaffaqiyatlar tilab, undan yangi she'rlar kutib qolamiz...

Gulbahor Ashurova,

filologiya fanlari doktori,


Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Fuzuliy nomidagi ilmiy tadqiqot

markazi rahbari





II BO'LIM

Vatan ishq

*Ko'zing oydin bo'lsin, ey, ulug' yurtim,
Yoyildi dunyoga Turkning hur sasi!
Nuriga g'arq bo'ldi ko'ngillarimiz,
Jahonga o't soldi Turon nafasi...*



OZARBAYJON

Nomusimning, g'ayratimning,
Necha ming yillik tarixning
Qahramonlik otisan.
Mangu kurash yo'llarimning
Sen so'nmagan o'tisan!
Bo'y otibdi har toshingda
Eranliging, zakovating.
Tarix nomli xotiringda
Bir dunyodir jasorating,
Ozarbayjon!

Ulusimning, turkimning
Arshga chiqqan unisan.
Vatan-vatan ulg'aygan,
O'tmishi, bu kunisan.
Bilinmagan saslaring
Yo'llari ko'p kesilgan,
Parchalangan yuragining
Sharoblari ichilgan,
Ozarbayjon!

Sinmagansan, bajargansan
Oyoqda tik qolmoqni,
E'tiqoddan kuch olaroq,
Xalqing uchun Haq yo'lida
Bajargansan toq qolmoqni.
Adolat, haqning kuchisan,
Osilgansan haqlik uchun,
Ozodlik nomli nafasing
Tuyulgandir har so'zingdan,
Ozarbayjon!



Ey, shonli, ulug' vatanim,
Bu dunyo turgancha mening
Tarixlashgan, donolashgan,
Qahramon, jasur, eramim.
Seni shundoq sevamanki,
Ko'zim kabi, yuzim kabi,
Yuragimda vatan nomli
So'nmagan bir so'zim kabi.
Seni shunday sevamanki,
O'zim kabi...
O'zim kabi,
Ozarbayjon!





KO'ZING OYDIN, EY, VATAN!

44 kunlik buyuk jang
Senga zafar yetkazdi.
Qo'l ochganing o'g'ullar
O'zin senga tutqazdi,
Ko'zing oydin, ey, Vatan!

30 yillik hasratni
Ko'zlaringdan oldilar.
Mag'lub nomli ta'nani
Sendan nari qildilar.
Ko'zing oydin, ey, Vatan!

Jasorating, qudrating
Tilga kelgandi bir on.
Bu hunaring oldida
Go'yo do'ngandi zamon.
Ko'zing oydin, ey, Vatan!

Dushmanga ko'rsatmishsan
O'sha temir mushtingni.
Sen turk o'g'li, turk misol
Ko'rsatding kimligingni.



VATAN

Seni sevgan yuragim
Har on sen-la to'yinar.
Sen mening ishq ma'budam,
Mening ko'ngil dunyomsan,
Bu vatan dunyoimda
Sen mening o'z onamsan,
Vatan!

Boshi balolar chekkan
Qonli bir kechmishing bor.
Necha yerga bo'linib,
Parchalanding ming bora.
Ammo hech chekinmading
Haq-adolat yo'lidan.
Yozildi zafar noming,
Vatan!

Ozodlikning ishq-la
Yongan o'tli yuraging
Metinlashdi, kuchaydi.
Kurashlarning yo'lidan
Chekinmading hech zamon.
Tarix-tarix yashading,
Cho'qqi-cho'qqi yuksalding,
Vatan!

So'rog'isan ovozimning
Arshga chiqqan unida.
Chechak-chechak til ochding
Haqiqatning oldida.
Qardoshlarning ichida
Necha ming yil tarixing,





O'chmagandir xotirang,
O'zing bo'lding darddoshing,
Vatan!

Kecha jasur yaroqlim,
Bu kun zafar so'roqlim,
Tirilgan umidlarim,
Ochilgan kalitlarim
Sening zafar otingdir!
Ozodlik nomli sasim,
Shirin ona nafasim
Vatan, vatan, ey, vatan!!!



EY, LOCHIN, JON LOCHIN!

Oramizda o'ttiz yilning hijroni,
Oramizda yillar qoldi, ey, Lochin.
Bu nomardlar, bu xoinlar, yovuzlar,
Bizni sendan ayri qildi, ey, Lochin.
Jon Lochin...

Bir dunyolik hasrat bo'lding ko'zimda,
Bitding dudog'imda, bitding so'zimda,
Zulmatga aylandi har kunduzim-da,
Hasrat sochlarimni yuldi, ey, Lochin.
Jon Lochin...

Shahid mozoridan qoraygan toshing,
Darddan nola chekib, oqargan boshing,
Har toshingda, har qoyangda ko'z yoshing,
Yuragimda qorga to'ldi, ey, Lochin.
Jon Lochin...

Ota yurtim asir bo'lib, senda qoldi,
Go'yo dunyo bu umrimdan o'ch oldi,
Yana g'am-kadarim orqada qoldi,
Ko'zlarim sevinchga to'ldi, ey, Lochin.
Jon Lochin...

Qurbonlar kesdimki, orzumga yetsam,
Chechak bo'lib, Lochin qoyangda bitsam,
Gul hidiga to'lgan yaylovdan o'tsam,
Xush bu kuning, xush bu holing, ey, Lochin.
Jon Lochin...

Tuyding ozodlikning xush nafasini,
Eshitding zafarning shon nag'masini,
Huromon sasiga qo'shdi sasingni,
Sevinchingdan qanot yoydi, ey, Lochin.
Jon Lochin...





SAJDANGGA KELGANMAN, SHUSHAM!

Hasratdan uvushgan orzularimni
Keltrib sajdangga kelganman, Shusham.
Necha bahorimni, necha yozimni
Sensiz hayotimdan yulganman, Shusham.

O'qday kulishlaring ko'z dog'im bo'ldi,
Har damda ko'z yoshing bulog'im bo'ldi,
Sensiz, bilsang edi, ne chog'im bo'ldi,
Darding-la jon berib, o'lganman, Shusham.

Onam shu ko'ksimga bog'ladim seni,
Har kecha, har kunduz hidladim seni,
O'ttiz yil yurakdan yig'ladim seni,
O'ttiz yil yuraksiz kulganman, Shusham.

Qorli tog'laringga cho'kkan bu tuman
Mening yuragimga cho'kkandi nedan,
Ruhimni o'zi-la yetaklab ketgan
Dunyoing o'z dunyom bilganman, Shusham.

Bo'lib o'tganlarni unutsak yana,
Kechirgin, aytarsan botdim gunohga,
Bilsayding yorishgan bu xush sabohga
Ne qadar qurbonlar kesganman, Shusham.

Xushdir bu ozodlik, xushdir bu shodon,
Seni ko'zlarimda yashatdim har on,
Sajdangga turibdi qizing Huromon,
Seni jondan ortiq sevganman, Shusham.



OZARBAYJON-TURKIYA

Azaldan bir tug'ilib,
Birga bo'y otgandirmiz,
Oti, ruhi, qoni bir,
Ko'ki, asli, joni bir,
Siz tug'ma qardoshdirsiz
Nurli shu kelajakka
Ozarbayjon-Turkiya!

Tarix bo'yi bir bo'ldi
Yo'lingiz, maqsadingiz.
Dunyoga jar solibdi
Turk nomli haq sasingiz,
Sizning bu borlingingiz
Ajralmasdir ikkiga
Ozarbayjon-Turkiya!

Bosh egmas turk avlodi
Dushmaniga, yotiga.
Sodiq bo'lib har zamon
O'zining turk otiga.
Loyiqdir eranlikka,
Loyiqdir har sevgiga,
Ozarbayjon-Turkiya!

Kelbatda bor qondoshlik,
So'zingizda g'urur bor.
Yengilmas viqoringiz
Dushmanning bag'rin yoqar.
Siz, ey tug'ma lochinlar,
Turonga ketgan yo'lning
Ko'kargan umidlari
Tinchlik kabutarlari,
Ne baxtli Turkman deya,
Ozarbayjon-Turkiya!





TURON ELLARI

Ko'zing oydin bo'lsin, ey, ulug' yurtim,
Yoyildi dunyoga Turkning hur sasi!
Nuriga g'arq bo'ldi ko'ngillarimiz,
Jahonga o't soldi Turon nafasi...

Botir o'g'illarim, chiqib to'fondan,
Ko'tardi ko'kka "ko'k bo'ri" shashtini!
Zafar tarixini yozgan qo'llarim,
Ko'rsatdi olamga "Temir Mushti"ni.

Yengilmas Turk ruhi, Turkning g'ayrati,
Tarixning bag'ridan chiqib keldik biz!
Bu tuproq haqqiga, vatan haqqiga
Qon oqizib, jonlar berib o'ldik biz!

Yuksaltirib yurtning hur bayrog'ini,
Tuydik ozodlikning shirin totini.
Chiqdik janggohlardan peshona yorug',
Yoydik bu dunyoga Turkning otini.

Birlikda yurarlar Qizilolmaga,
Qardosh Turkiya-la, jon Ozarbayjon.
Qozoq, turkman, o'zbek, qirg'iz ham kelar,
Qurilajak mutloq u buyuk Turon!

So'nmagan chirog'im, yongan o'chog'im,
Aslim o'g'uz turki, nishonim Turon.
Quyosh kabi tushib yurtim yuziga,
Socharman nurimni, rahbarim Qur'on.

Asrlarda ayro tushsak-da bizlar,
Tariximiz ayni, tilimiz birdir.



Bir og'och novdalari – biz turklar,
G'unchamiz ham birdir, gulimiz birdir.

Keling, samosida qanot qoqsak biz,
Quchsin qo'llarimiz Turon elini.
Birlashsak biz ayni bayroq ostida,
Bayrog'imiz bo'lsin, TURON kelini!



ZAFAR QO'SHIG'I

Qahramon Ozarbayjon O'rdusiga

Tarixni yangidan yozdi
Muzaffarlik xabaringiz!
Yoyildi Turon eliga,
Sizning shonli zafaringiz!

Dushmanning nomard bag'riga
Haq cho'qmorini urdingiz.
Yozganingiz bu tarix-la,
Yangi bir Vatan qurdingiz!

Birlashib "Temir Musht" ila,
Ayni yo'lda, ayni izda...
Yo'lingiz Haq yo'li bo'ldi,
Haq til ochdi qalbingizda.

Qahramon, botir o'g'illar,
Yo'liga jon qo'ydi, Vatan!
Tuproq'ingga ko'z tikkanning
Ko'zlarini o'ydi, Vatan!

Yo'limiz Turonga tomon,
Birlashmoq kerakdir, Vatan!
Shushaga tikildi bayroq,
Zafaring muborak, Vatan!

Uch rangli hur bayrog'imiz
Hilpiraydi Qorabog'da.
Xonkendida, Xo'jalida,
Oqdarada, Murovtog'da.

Yashasin! Bosh Qo'mondonim!
Yashasin! G'olib O'rdumiz!
Dushmandan ozod etildi
Bizning u jannat yurtimiz!

Abadiyan Qorabog'da,
Jasur qo'shig'imiz yangrasin!
Endi zafar marshimizni
Do'st ham, dushman ham tinglasin!





SHAHIDLAR XIYOBONI

Shahidlar xiyoboni...
Har yer sukut ichida...
Go'yo bunda mozorlar
 hammasi bir o'lchovda,
 hammasi bir bichimda.
Uzoqdan bir sas kelar...
Bir ona alla aytar
Yurak yondirgan oh-la.
Salomlaydi kechani
Otmaydigan saboh-la...
Goh jo'shqin, gohi hazin,
 gohida yig'i-la aytar.
Bir ona xiyobonda
 o'g'liga alla aytar...
O'g'lining bosh toshini
 O'parkan, quchoqlaydi.
Ona shunday qaynaydi,
 Ona shundoq yig'laydi...
Deydi, qaydasan, o'g'il,
 nega ortga qaytmading?
Sensiz so'ndi o'chog'im,
Bo'sh qoldi-ku quchog'im.
Mozoringga kelganman,
 Aytmoq uchun so'zim ko'p,
Bu yer – so'ng umid yerim,
 Ketadigan yerim yo'q...
Ona boshini egib
 ichkin-ichkin vohlaydi.
O'g'lining bosh toshini
 Hasrat-la quchoqlaydi.
Birdan oh chekib tinar,
Shahid o'g'il qoshida
 go'yo sajdada turar..



Ohi ko'kni yondirar,
 ohi yerni yondirar..
O'g'lining sasi kelar...
Ona bir on tinchlanar,
 parcha-parcha to'kilar,
 parcha-parcha yanchilar..

Yig'lama, ey, jon ona,
Shahid onasisan sen!
Bu tuproqning, bu yurtning
 cho'kmas Qal'asisan sen!
O'g'ling shahiddir ona,
 shahidlar o'lmas axir!
Ularning jannatidir
 Yaratganning dargohi.
Bir boshingni ko'tar sen,
 vatan osmoniga boq.
Shahiding jilmaymoqda,
 Ko'kdan senga boqarkan.
Sevinch-la u ko'klardan
 seni mujdalarkan,
So'ng nafasida seni
 jannatga ko'taradi...
Shahidlar xiyoboni...
 Har yer sukut ichida.
Go'yo bunda mozorlar
 hammasi bir o'lchovda,
 hammasi bir bichimda...

Uzoqdan bir sas kelar,
Bir ona alla aytar,
 goh jo'shqin, gohi hazin,
Gohi tavallo aytar.



ARMONIM XOJALI

U kecha Xojali qonga belandi,
U kecha vatanning yuragi yondi,
U kecha haqiqat o'zidan tondi,
Ichimni qon-la yedim,
Lay-lay Xojalim dedim,
Lay-lay Xojalim, alla...
Qonli Xojalim, alla...

Tig'dor nayzalarda ilingan go'dak,
Ohladi siynamni necha ming halak,
Jon berdi bir onda yillarim, oyim,
Men ham Xojalida bir qurbon edim.
Lay-lay Xojalim dedim,
Lay-lay Xojalim, alla...
Qonli Xojalim, alla...

Qon ichdi tuprog'im, qonga belandi,
U kecha Xojali olishdi, yondi,
U kecha, shundoq bil, hayot tayandi,
Bilmadim, yerdami yo ko'kda edim –
Lay-lay Xojalim dedim,
Lay-lay Xojalim, alla...
Qonli Xojalim, alla...

Ingradi yarali bir arslon kabi,
Zamon umrimizning g'addor hakimi,
Ko'zingga sig'adi ajal qon kabi,
Men dardga belandim, qadar deb tindim,
Lay-lay Xojalim dedim,
Lay-lay Xojalim, alla...
Qonli Xojalim, alla...

Lay-lay Xojalim, alla,
Boshi balolim alla,
Dunyong qonga belandi,
Qoldi ne holim, alla...
Qonli Xojalim alla...



VATAN NOMLI SHAHIDLAR

“Shahidlar hech o’lmaslar
Shahidga yig’lmaslar”.
Bu so’zning orqasida
Million qahramonimning
Tuganmagan toqati,
Bitmas jasorati bor.
Shahidning o’lmasligi,
Jasorat do’nmasligi,
O’qday-o’qday yiqilgan
O’g’il muborizligi,
Bir-da vatan sevgisi
Uning so’nmasligi bor.
Vatan og’riqlaridan,
Vatan sanchiqlaridan
Tug’ilgan o’g’illarning
Shahidlik zirvasida
G’ayrati bor, oti bor...
U nomki, abadiydir,
U nomki, muqaddasdir.
U ot Vatan-la birga
Hayqirgan qo’sha sasdir.
Vatan nomli o’g’illar,
Vatan nomli shahidlar,
Vatan nomli zirvaning
Yangi bir nafasidir.



AYASOFIYAM

Alloh-u Akbar degayman,
Ruku-la sajda etgayman,
Ro’yoda senga ketgayman,
Ruxsat bergil, senda qolsam,
Ayasofiyam, Ayasofiyam...

Payg’ambarimning nur yuzi,
Fotih Sulton Mehmet o’zi,
Sen ko’nglimning ko’rgan ko’zi,
Kel, aytamiz bir oz kalom,
Ayasofiyam, Ayasofiyam...

Muborak azoning qani,
Hasrating kul qildi meni,
Qayga boqsam, ko’rdim seni,
To Bokudan salom, salom,
Ayasofiyam, Ayasofiyam.

Tuprog’ingda sajda izi,
Tariximning ulus yuzi,
Nafasida rahmat so’zi,
Afsunli saloga to’lam,
Ayasofiyam, Ayasofiyam.

Sas kelar moviy ko’klardan,
Saf-saf turgan malaklardan,
Elanarman elaklardan,
Peshonamdan o’pgin alam,
Ayasofiyam, Ayasofiyam.

Minoralar tuman-tuman,
Iymon etdik, Haqqa iymon,
Senga qurbon shu Huromon,
Jon Ozarbayjondan salom,
Ayasofiyam, Ayasofiyam...

TURKIYAM

Turkiyada 2023-yil 6-fevralda yuz bergan zilzila oqibatida halok bo'lganlar ruhiga bag'ishlanadi

Parcha-parcha bo'ldi tuproqning bag'ri,
Ko'klar ko'z yoshini to'kdi u kecha.
Yuksak binolarning chinqirig'idan,
Dunyo tizzasiga cho'kdi u kecha.

O'zini gunohkor bildi shamollar,
Bulutlar pishqirdi, yerga yog'ishi.
Yarim qolgan umr, kesilgan hayot
U kecha yig'latdi tuproqni, toshni...

Sanchib-sanchib uzdi taqdir sevinchni,
Toshlarga urildi orzu-tilaklar.
Yopdi ko'zlarini, yumdi ko'k yuzi,
Vayrona ostida so'ndi yuraklar.

Tahammul ham senda, kuch ham, sabr ham...
Og'ir kunda sensan dodim, Turkiyam.
Senga "jon" deganman, "jonim" deganman,
Senda qoldi bugun yodim, Turkiyam...



QANDOQ CHIDAY BU DARDGA...

Qardosh Turkiyamizdagi zilziladan juda ham qovrildim...

Ko'zim to'lar, boqolmasman
Turkimning g'amli ko'ziga.
Bexos kelgan o'limlarning,
Murg'aklarning gul yuziga.

Yuragimning g'am sasini
Arshga olib chiqay, Alloh.
Bu dard bitar dard emasmish,
Menga kuch ber, chiday, Alloh.

Bu yo'llarning do'nishi bor,
Bu yo'lning oxiri yo'qdir.
Otayotgan har sabohning
Kechadan xabari yo'qdir.

O'lim yetishgan ko'zlarda
Bir yashamoq havasi bor.
Achchiq-achchiq o'limlarning
Shirin-shirin nafasi bor.

Chekilmagan og'riqlarning
Azobida qul bo'libman.
Inqillagan ko'ngillarda
Yonib so'ngan kul bo'libman.



TO'XTA, ZILZILA!

Tur, ey, silkingan zamin!
Yetar jonlar olganing.
Qaynoq o'chog'imizni
Bizga harom qilganing!

Yo Rab, beton ostida
Murg'ak, jo'mard bolang bor!
Orzusi yuragida,
Ko'zi yo'lda qolgan bor.

Oh... qandoq isinaman,
Shu issiq o'chog'imda.
Go'yo bir zulmatdaman,
Parchalar quchog'ida.

Bu ma'sum insonlarga
Marhamat ayla, Alloh.
Ulug' Turk dunyosiga
Quyoshlar chiqsin saboh...



SALOM SENGA, AZIZ VATAN O'ZBEKISTON!

*Qardosh O'zbekistonga abadiy mustaqillik
tilaklarimni bag'ishlayman*

Sening ulug' muhabbating,
Tariximning nishonasi!
Saroylarning devoridan
Yuksaladi Qur'on sasi.
Samarqandim, ey, Toshkentim,
Ko'ngil yurtimda boshkentim!

Amir Temur, fotihlari
Tarixida bir yarashur.
Porlar yulduzlarning kabi
Har yonida ko'r bitta nur.
Sening Xorazming, Buxorong
Biz turklarga ona vatan!

Eranlarning diyoridir,
Avliyolar quchog'idir,
Qadim madrasalarning,
Haqiqatning o'chog'idir...
Ey, Qo'qonim, Andijonim,
Vatanga qurbon bu jonim!

Qon-la yuvdik tuproqlarni,
Birlikda yig'ladik, kuldik.
Bir onaning avlodimiz,
Ayni jondan jonga keldik.
Farg'onaga, Namanganga,
Salom bo'lsin jon vatanga!





Ozarbayjonim ham yozdi,
Shonli zafar nag' masini.
Birga yoysak bu dunyoga,
Turon elin haq sasini...
Qoraqalpoq, Qashqadaryom,
Mening yurtim, mening dunyom!

Mening go'zal mamlakatim,
Bag'rida qurilsin Turon.
Minoralardan taralsin,
Ko'klarga muborak azon!
Xivadan, Surxondaryodan
Aslo ayrilmaski bu jon!

Sening shonli bayrog'ingga
Zavol uchramasin omon!
Duolar-la salomlasin,
Seni bu qizing Huromon!
Salom senga aziz vatan!
O'zbekiston! O'zbekiston!



O'ZBEKISTONIM MENING, SEN HAM ONA VATANIM!

Har toshida, devorida
Qadimlikning nishonasi.
Bezatilgan saroyida
Bor Qur'onimning nafasi.
Samarqandim, Toshkentim,
Sen ham mening Vatanim!

Amir Temurning har izi,
Tarixingga bir yarashur.
Yoniq yulduzlaring kabi
Har tarafida ko'r bir nur.
Buxorom, Xorazmim mening,
Sen ham mening Vatanim!

Turkimning eran nishoni,
Har ma'badning o'chog'idir.
Ibodot, ibrat saroyi,
Haq, adolat quchog'idir,
Andijon, Qo'qonim mening,
Sen ham mening Vatanim!

Qon-la yuvgan dardimizni
Bir yig'ladik, birga kuldik.
Bir onaning avlodidek
Bir quchoqda katta bo'ldik.
Namangan, Farg'onam mening,
Sen ham mening Vatanim!

Ozarbayjonim yozibdi
Shonli zafar tarixini.
Sen-la yoyadi dunyoga
Turon nomli haq sasini.





Qoraqalpoq, Qashqadaryom,
Meni har on tuygan Keshim,
Sen ham mening Vatanim!

Ko'paysin Turon ellari
Senda, ey, go'zal makonim.
Minoralardan yuksalsin
Arshga muborak Azonim!
Duolar-la salomlaydi
Seni qizing - Huromoning,
Surxondaryom, Samarqandim,
Sen ham mening Vatanim!
Siz ham mening Vatanim!



OZARBAYJON, O'ZBEKISTON

Azaldan bir qardosh kabi,
Yo'l yurib, tarix yozdingiz.
Bu dunyoning haq sasida
Buyuk shuhrat qozondingiz.
Siz-la go'zallashar jahon,
Ozarbayjon, O'zbekiston!

Turonda otgan bu sahar
Haqingizdan nur olibdi.
Bu qardoshlik, birligingiz
Turonlikka yo'l solibdi.
Bir yurakda - ikki jahon,
Ozarbayjon, O'zbekiston.

Vatan uchun so'z mulkidur
Nizomiysi, Navoiysi.
Har birisi - bir xazina,
Har birining o'z "Xamsa"si.
Xalqiga bo'libdi doston,
Ozarbayjon, O'zbekiston!

O'zbek adabiy irsining
Muhammad Bobur dahosi.
"Boburnoma" asari-la
Yaratibdi so'z dunyosi.
Ko'ngillarga bo'lib sulton,
Ozarbayjon, O'zbekiston.

Ko'p asrlik tarixingiz
Turk eliga dalolatdir.
Amalingiz, qudratingiz
Istiqboli haqiqatdir.



Siz bilan sashashar Turon,
Ozarbayjon, O'zbekiston!

Eranlikning tarixida
Bir dunyolik otingiz bor.
Bir qardoshdek Turon nomli
Sevgingiz ham ontingiz bor.
Faxr etar siz-la Huromon!
Ozarbayjon, O'zbekiston!



TURON DILDOSHLARI

Turk dunyomizga sas solgan,
Sulh nomi-la qanot yoygan,
Xalqi, millati baxtiyor
Ilhom kabi, Shavkat kabi
Sharafli o'g'illaring bor.

Dunyoning har bir yeriga
Yoyilibdi turk otingiz.
Turon ellaridan kelar,
Qardoshlashgan xush zotingiz.

To qadimdan do'st bo'libdi
Ozarbayjon, O'zbekiston.
Qo'riqlaydi bu do'stlikni
Sizning yo'lboshchilar har on.

Qo'shalashib yo'l yurarsiz,
Turon nomli mamlakatga.
Bir bayroq uzra birlashib,
Bosh egsak Turon davlatga.

Turon nomli sevgimizsiz,
Jon Turkiyam, Ozarbayjon.
Musht kabi bir bo'lgansiz,
O'zbekiston, Turkmaniston,
Qirg'iziston, Qozog'iston.

Sizlar kabi rahbarim-la
Ochilar qanotim, qo'lim.
Sizdan har on ilhom olar
Turonimga borar yo'lim.



Yo'lingizga nurlar sochsini
 Duolarim, satrlarim.
 Huromon-la bir sevensin
 Turon sevgan ko'ngillarim.



QOZOG'ISTON

Azaldan bir yaralibdir,
 Turkimiz, turkdir ajdodimiz.
 Jasoratning, jo'mardlikning
 Mehvaridir turk otimiz.

Ey, bizning turk dunyomizning
 Ota yurti - Qozog'iston.
 Go'zalliklar maskanidir,
 Ham Ostonang, ham Turkiston.

Chimkent shahari jannating,
 Chimqal'a or eshigingdir.
 Bo'zqir, Oqtov, Olmaota,
 Balxash qadim beshigingdir.

"Buyuk cho'l"ning buyuk nomi
 Muzey otiga yarashmish.
 Biz turk nomli dunyomiz-la,
 Har zamon tug'ma qardoshmiz.

Xo'ja Ahmad maqbarasi
 Ko'ngillarning sultonidir.
 Qozog'iston eranlikning
 Shon-shuhratli arkonidir.





VATANNING O'G'ILLARI

Muqaddas zirvadir vatan nomingiz,
Uchrangli bayroqdir vatan ahdingiz,
Vatanni har nedan yuksak bildingiz,
Vatanning mard, jasur er o'g'illari...

Yo'lingiz haq yo'li, adolat yo'li,
Qalbingiz ozodlik ishq-la to'liq,
Sen, ey, vatanimning g'ayrati ramzi,
Vatanning g'ayratli mard o'g'illari...

Quyoshdek porlagan, kundek tug'anim,
Jasorat ramzisan, shuhratim, shonim,
Sen Zafar mujdalim, G'alaba onim,
Dushmanning ko'ziga dard o'g'illari...

Bu xalqning, millatning jangovar sasi,
Mardlikdan yo'g'rilgan ruhi, nafasi,
Sizdan bo'y otibdi vatan sevgisi,
Vatanning jon bergan har o'g'illari...
Qudratli, nomusli, mard o'g'illari.



SAMARQANDNING YULDUZLARI

Kechmishdan bu kuningga
Tog'lar qurib tog' viqoring.
Amir Temur hikmatidan
Tarix yozgan har diyoring.

Buyuk Ipak yo'llaringga
Qo'l ochgan Sirdaryo joming.
Muqosari tog'laridan
Ovro'poga yetdi noming.

Bu muhtasham turishingni
Nahang yulduzlar bezaydi.
Tarixingga nomin yozgan
Har yigiting borman, deydi.

Har toshingda tarix izi,
Bo'y cho'zar ko'klarga sari.
Turonga bir yo'l solibdi
Samarqandning yulduzlari.

Go'yo ko'klardan elanmish
Siynasida yorug'lari.
Ko'zlaringdan rang olibdi,
Bezanibdi yulduzlari.

Har toshida, devorida
Go'zallikni ko'zlar sezar.
Bir rassomning qalamini,
Ilohim, ko'r, nelar chizar...

Kechasiga yarashgandir
Moviy ko'zli minoralar.
Subh shafag'i go'zalligin
Kunduzlari nur berarlar.



Oyning hilol boqishida
Nozlanar, voh, yo'l, yerlaring.
So'zning sehriga to'libdi
Seni sevgan shoirlaring.

Turon nomli sevgingiz bor,
Qalbga farah, ko'ngil bori.
Huromonga bir dunyosiz,
Samarqandning yulduzlari.



Qirg'iziston, aziz vatan!

*Qardosh Qirg'izistonga abadiy mustaqillik va
ozodlik tilayman*

Azaldan maskan solibdi
Go'zalliklar bu siyangda.
Sarvat to'la tuprog'ingning
Bori, barokati senda.
Bishkek, Kanting g'azal Vatan,
Qirg'iziston go'zal Vatan.

Tog'lar nuri Jalolobod,
Dengiz bag'ri, go'zal, obod,
Norin, To'qmoq, boqqil, abad,
Go'zallik olur husningdan,
Qirg'iziston, go'zal vatan.

Qorako'ling, Qashqar-Otang
Ko'zga o'xshar Qora-Boltang,
Go'zallikda bormi yetgan,
Yo'qdir senga, yo'qdir bir tan,
Qirg'iziston, go'zal Vatan.

Turk dunyosida bor sasing
O'sh, Moylisuv xush nafasing,
Sening-la qo'shiqlar aytsin,
Ko'nglimda, qalbimda bitgan
Qirg'iziston, go'zal Vatan.

Turonga ketgan yo'ling bor,
Qalbidan qilibdi qaror,
Qizilqal'ang xushbaxt diyor,
Ilhom oldi har on sendan,
Qirg'iziston, go'zal Vatan.





O'zgan, Talas, Novqat nomli,
Shaharing bor, qalbi o'tli,
Turk dunyomda turkcha otli
Toshko'miring, Cho'lponotang,
Qirg'iziston, go'zal Vatan.

Baliqchidan kechgan olam,
Bulog'idan ichgan olam,
Suluktovda qo'noq qolsa,
Olam har dardiga yetgan,
Qirg'iziston, go'zal Vatan.

Salom qirg'iz ellarimga,
Salom qirg'iz tillarimga,
Turkning go'zal millatiga,
Huromondan bir armug'on,
Qirg'iziston, tug'ma Vatan,
Qirg'iziston, Ona Vatan.



QORABOG'NING BAG'RIDAN YO'LIMIZ TANGRITOG'GA...

Ey, zirvalarda uchgan Burgutim!
Muqaddas Vatanning samolarida...
To'xtamasdan, hey, qanot qoqajaksan...
Buyuk Turkistonning ishq-i-la Sen
Qorabog' bag'ridan Tangri tog'iga
Abadiy buzilmas Yo'l solajaksan!

Ey, zirvalarda uchgan Burgutim!
Qorabog'ning ko'klarida
Arshga chiqar duolarim
Charchamasin qanotlaring!
Sening oting, sening yo'ling
Bir merosdir kelgan yangi nasllarga,
Umid olib borgin bu turk ellarga!

Ko'ngillarda fath etganing yuksaklik-la
Qorabog'dan Tangritog'ga borajaksan!
Hunar, g'ayrat va yengilmas jasorat-la
Tutib moviy hilolimni qanotingga
Chaqmoq misol
Bu osmonni yorajaksan!..

Ey, zirvalarda uchgan Burgutim!
Sen shunday buyuksan, shunday uhasan!
Buyuk qudrating-la, Turon sevging-la
Xoribulbul iforli Qorabog'imdan
Ko'ngillar sultoni Tangri tog'iga
Abadiy buzilmas yo'l solajaksan!



TURKMAN ONAM

*Kirkukda yuragi biz bilan urgan turkman
onalarimizga bag'ishlayman*

Umr bo'yi necha zulm,
Necha zillat ko'rgan onam.
Darddan oqargan sochini
Yig'lab-yig'lab o'rgan onam.
Ey, mening turkman onam...
Bilmam, qaysi dardda yonay.

Bilamanki, yuragingda
Ichkin yaralaring ko'pdir.
O'g'il dardi, vatan dardi
Ko'ksing qiymalagan o'qdir.
Ey, mening turkman onam...
Bilmam, qaysi dardda yonay.

Duolar-la, qurbonlar-la
Dunyoga o'g'il keltirding.
Shahid berding vatan uchun,
Necha o'g'ildan ayrilding...
Ey, mening turkman onam...
Bilmam, qaysi dardda yonay.

O'stirganing o'g'illarni
Vatanidan ayirdilar.
Umidlar qalbida qoldi
Zulm ila to'yirdilar.
Ey, mening turkman onam...
Bilmam, qaysi dardda yonay.

Umrining bahor faslida
G'uncha ekan so'lgan onam.

Yurtga o'g'illarin berib,
Ey, o'g'ilsiz qolgan onam,
Ey, mening turkman onam...
Bilmam, qaysi dardda yonay...



NAXCHIVONIM

Ulug' Sharqning xon eshigi,
Shoh boqishli Naxchivonim!
Alplar, eranlar bog'isan,
Gul naqshli Naxchivonim!

Hasrat-la chinqirgan Oraz,
"Ayriliq"ning nishonasi...
Yurak yoqar qardoshining
Mug'omga qo'shilgan sasi..

Bag'ringdagi minoralar
Tarixingdan xabar berar.
Sen bir jannat diyorisan,
Har go'shang bir mo'jizadir.

Elincha-la Xojatog'ing
Qadim chog'laring samosi.
Jomeqoyadadir hamon
Hazrati Nuhning kemasi...

As'hobi Kahf mag'orangda
Uxlar muqaddas niyating.
Tarixingga shondir sening
Mo'mina Xotun g'ayrating.

Marjon qoshli Botaboting,
Zorbuloq, Bodoming yoniq.
Tog'ing, toshing gul, chechakdir,
Bag'ringda buloqlar tiniq.

Mirzo Jalilning yurtisan,
Husayn Jovid o'chog'i...

Haydar ota dahosining
Muqaddas ota quchog'i!

Tarix bo'yicha turklarning
Mardlik dostoni Naxchivon!
Sening g'urur manbaingdir,
Shoh tomiring, Ozarbayjon...

Abadiyan yasha, bor bo'l,
Ey, Naxchivon, ulug' vatan!





III BO'LIM

Halollik beshigim...

*Bizni tark aylagan, ketganing kundan
Bog'chamiz, bog'imiz... qor edi, ona.
Sening yashaganing fasllar, yillar,
O'zingdek yoz edi, bahor edi, ona.*



EY, ONA...

Ey, ona, sensizlik siqar qalbimni,
Yana yo'llaringga termuldi ko'zim.
Hasrating qalbimni shundoq o'ynatar,
Tilimda bir onda aylanar so'zim.

Yo'qliging muz kabi uvushtiradi,
Go'yo bahorimda qishga aylandim.
Izillar qalbimning sen bo'lgan joyi,
Umidi qoraygan toshga aylandim.

Unuta olmasman senli kunlarni,
Ona, borligimning nishonasisan.
Ko'zimda hasrating qaytib qoldi-da,
Ey, ona, ishqimning parvonasisan.

Koshki go'dak bo'lsaydim, ona, ey, ona....
U shirin allani tinglasam yana.
To'yguncha yashardim sen bor yillarni,
U jannat atrini hidlasam yana.

Men sening parchangman, sen mening o'zim,
Bu dunyo uyimning chirog'i onam.
Qaytmish boqishingga, ruhingga qurbon,
Umrinning ma'nosi, borlig'i onam.

Yog'ar yuragimga hasrat yomg'iri,
Onasiz qalbimning uyi namlanar.
Bo'y otar ichimda senli orzular,
Umidim, xayolim o't bo'lib yonar.

Bizni tark aylagan, ketganing kundan
Bog'chamiz, bog'imiz... qor edi, ona.
Sening yashaganing fasllar, yillar,
O'zingdek yoz edi, bahor edi, ona.



ONAMGA O'XSHAGIM KELADI...

*Ancha yillar avval yozgan bu she'rimni
ma'sum boqishli, dasturxonni halol, mehnatsevar,
pokiza Onamga bag'ishladim*

Qalbimda go'zal bir orzu yashaydi,
Onamga o'xshamoq istagayman men.
Uning borlig'idir bu hayot yo'lim,
Onamga o'xshagim keladi mening.

Oqshomlar kech yotar, sahar tez turar,
Ming bir zahmat bilan yaratar, qurar,
Subhning shafag'ida sochlari tarar,
Onamga o'xshagim keladi mening.

Onam - umrim toji, deya suyganman,
Xayrixoh otidan g'urur tuyganman,
Oldimga yagona maqsad qo'yganman -
Onamga o'xshagim keladi mening.

Ona bir dunyodir, biz derazasi,
Shirindir har zamon muqaddas sasi,
Eng aziz borliqdir go'zal nafasi,
Onamga o'xshagim keladi mening.



OTA

Ko'pdan ko'zlar edim yo'lingni, ota,
Orzum, murodimsan, bilarsan buni.
Sochlaringga oq tushishin istamasman,
Sensiz hayotimning yo'qdir bir so'ngi.
Menga yurak bergan qalqonim – ota,
Uyimda barakam, pok nonim – ota.

Mening har daqiqam, har bir onimsan,
Tomirda qaynagan, og'gan qonimsan,
Orzular maskani bo'lgan jonimsan,
Hayotimning o'zi, otisan, ota,
Umrinning ma'nosi, totisan, ota.

Yurakdan yozaman, tuganmas so'zim,
Sensiz shu'la ko'rsa, ko'r bo'lar ko'zim,
Sochingga gul-chechak chambari tuzdim,
Binafsha atirli mehribon, ota,
Har so'zimga "hay jon" degan jon ota.

Seni jondan sevgan bir avlod kabi,
Senga hamdam bo'lgan shirin ot kabi,
Joningga bo'y bergan bir ajdod kabi,
Dardimga qolqanim, shoyonim ota,
Faxrim-viqorimsan, nom-shonim, ota.



O'G'LIMGA

O'g'lim Elchinga

Jonimdan ortiq bo'lgan
Jonimning bir parchasi,
Ko'z ochgan sabohlarim,
Chiqqan quyoshim, o'g'lim.

U buyuk yuragingni
Hech vaqt tashvish siqmasin,
Ey, o'g'il, yo'llaringga
Mardimozor chiqmasin.

Sen mening arslon bolam,
Mag'rur tayan, jon o'g'lim.
Yuragimning sultoni,
Umrimga farmon o'g'lim.

Bir kun yaqinki, men ham
Bo'lmasman bu dunyoda,
U zamon qalqima sen
Meni go'zal ol yodga.

Boq samolarga, o'g'lim,
Duolar yo'lla menga.
Mehmon bo'lib kelaman,
Suyanch bo'larman senga.

U ola ko'zlaringdan
Hech zamon yosh oqmasin,
Dunyoning dardi-g'ami
Yuragingni siqmasin.

Mag'rur tayan, jon o'g'lim,
Tilimning kesarisan.
Sen umrimning eng buyuk,
Eng shonli asarisan.

Halollik-la qorganman
Sening xamiringni men.
Ne mushkulga tushsang ham,
Qaytma halollikdan sen.

Yetimga, kimsasizga
Orqa, tayanch bo'l, o'g'lim,
Ularning ham sohibi bir
Allohdirki, bil, o'g'lim.

Unutma sen bularni,
Har vaqt qurboning bo'lay.
Bu hayot imtihondir,
Har on g'olibdek yasha.
Umr sur sadoqatga,
Muhabbatga yarasha.

U qora ko'zlaringga
Hech vaqt qayg'u to'lmasin...
Sen dunyomning borisan,
Dunyom sensiz qolmasin!



QIZIM LOCHINGA

Otgan har bir saharimda
Quyoshing shafaqi-la tug'ilgan qizim.

Bu onasiz dunyoyimda,
Ey, mening ona derim.
Yuragimning sevinchi,
Sasim-kuyim, har yerim.

Bir dam onam bo'larsan,
Onamdek jon, degaysan –
Bir gal bolam bo'larsan –
Maslahatlar berursan.
Goho aziz do'st kabi
Tasallilar berursan.

Qaydan tezda do'narsan
Bir bolakay qizga sen.
Goho erkalik qilib,
O'z-o'zingdan kularsan.

Ko'zlarimning nurisan,
Yuragi nurli qizim.
Ham isyonkor malagim,
Hamda g'ururli qizim.

Sen hamon ko'zlarimda
Bitta murg'ak qizimsan.
Xinoli kakligimsan,
Bir xinoli qizimsan.

Dasturxon barakoti,
Uyimning bezagisan.



Ko'nglimning gul g'unchasi,
Umrimning chechagisan.
Olganing nafas kabi
Onaning keragisan.

Har zamon tayog'imsan,
Yashash kuchimsan mening.
Qaydan shundoq bilaman –
Shundoq o'zimsan mening.

Oy qizim, yuragingdan
Sevgi judo bo'lmasin.
Ko'zlaringga, qalbingga
Hech g'am-g'ussa to'lmasin.

Baxtimning kulgan yuzi,
Umringa ketgan yo'lim.
Toleyimning yulduzi,
Faxrim, qanotim, qo'lim.

Sen mening shoh asarim,
Bir onalik dunyomsan.
Sof orzuli-tilakli,
Bir so'nggi bor dunyomsan.

Sen dunyomning o'zisan,
Dunyom sensiz bo'lmasin.
Haqqa boqqan ko'zimsan,
Dunyom sensiz bo'lmasin.

Dunyom sensiz bo'lmasin...



SEVGANLARIMIZNI QADRLAYLIK...

Tirigida qadrlaylik insonlarni...

J.Navro'z

Sevganlarimizni endi qadrlaylik.
Endi quchoqlaylik...
Chunki o'lim keladi.
Bizdan xabarsiz...
Sassiz-xabarsiz...
U har on haqdir.
Zamonning ayriliq qo'li qo'limizda,
Tez-tez eshigimizni chertadi.
Ayriliqning o'gay boqishida
Topa olmasmiz hech bir-birimizni...
Ajal kelib, olib ketganida sevganimizni
Yonadi yuragimiz,
Parcha-parcha bo'lar qalbimiz,
Ko'chib ketar ruhimiz.
U zamon anglaymizki,
Bir metrlik tuproqning osti
Dunyoning u bir uchidan
Ko'p-ko'p uzoqdir.
Ko'p-ko'p uzoqdir...



NISHONASIZ KETGAN QIZ...

Singlim Sudobaga

Yana fikrim chalkashdi,
Yana holim qorishdi,
Yana chiqib ketyapman
Olis u yillarimga.

Fikrlarim uzoqda,
Yana aqlimdagi sen,
Yana sokin xonada
Ochaman derazamni.

Yana sen qalbimdasan,
Dengizdan bir sas kelar,
Bu sas bilan birlikda
Issiq bir nafas kelar.

Bir shivirlash qorishar
Bu dengizning sasiga,
Bu sas sening sasingdir,
Go'yo bir issiq nafas
Tegar bu on yuzimga,
Bu sening nafasingdir.

Aytasan, jon oy opam,
Nega fikrlisan sen,
Deymanki, opang qurbon,
Ne yaxshiki, kelibsan.

Kulimsirab boqarsan
Sokin-sokin yuzimga.
Kulishingni ko'rganda
Keladirman o'zimga.

Orzular ummon-ummon
Xayollar karvonida.
Koshki, bir gal, bir yo'lda
Sen bo'lsayding yonimda.

Kel, tutsak qo'lni-qo'lga,
Qaytaylik o'zimizga.
Ne bo'larki, oy singlim,
Birga yo'ldan kel bizga.

Yana oqshom tushibdi
Yana qosh qorayibdi.
Yana uyimizdamiz,
Onam dasturxon solibdi.

Yig'ilibmiz bir yerga,
Umrning xushbaxt onidir.
Otamning gul bolasi,
Onamning gul bolasi.

Yodingdami, bola paytda,
Yulduzlarni topardik.
Bu mening, bunisi sening,
U ham uning, aytardik.

Ko'p sevardim ko'klarni,
Uchmoq istardim u yerga,
Aytardim, koshki men ham,
Ketsaydim yulduzlarga.

Sen aytarding, ey, opam,
Unday dema, ne bo'lar,
Birdan uchgan likoplar,
Kelib seni obketar.

Men ham har dam, to'g'risi,
Qo'rqardim bu so'zlardan,
Yuragimda shunchaki
Orzulardim ko'kni men.

Kel, mehribonim singlim,
Kel, tutay qo'llaringdan.
Qo'ymasman hech seni men,
Kel, quchayin boshingni,
Kel, o'pay yuz-ko'zingdan.

Axir, bir vaqtlar sen ham,
Quchoqlar eding meni.
Aytardingki, istayman,
Ish odami bo'lasan,
Hamma tanisin seni.

Men ham aytardim, valloh,
So'zing qutqardi sening.
Nimaga lozimdirki,
Axir, taniqligim mening?

Eh, yillar o'tdi, singlim,
Umrдан ko'pi ketdi.
Ish odami ham bo'ldik.
Ko'plar tanidi bizni,
Ammo sensiz yashadik,
Hayf, bu umrimizga.

Sen mening otam eding,
Sen mening onam eding.
Butun borlig'ing bilan,
Holimga kuyar eding.

Rohat yotgin mozorda,
Ey, otamning yodgori.
Nishonasiz ketgan qiz,
Umrimning ilk bahori.

Duolarimda senga,
Har kun joy berarman men,
Allohning dargohida
Ijobatga yo'llarmen.

Rohat uxla, jon singlim,
Mozoring nurga to'lsin!
Hukm Alloh hukmidir!
Joying jannatda bo'lsin!
Joying jannatda bo'lsin!





MOMOMNING SAMOVARI

Uyimizda eng aziz,
Eng qiymatli narsa bor.
Momomning yodgoridir,
Katta, sariq samovar.

Bir zamonlar aytardi,
Mening mehribon momom.
Tili shirin, o'zi shan,
Bog'i guliston momom.

Ko'rganing bu samovar,
Otangdan qoldi bizga.
U ko'p shohid bo'libdi,
Xushbaxt kunlarimizga.

Momom o'tdi dunyodan,
Uning dil sasi qoldi.
Go'yo istagimizni
Sariq samovar oldi.

Endi oilamizda
Ko'p qiymatli narsa bor.
Momoning yodgoridir
Katta, sariq samovar.



QISHLOG'IM YODGA TUSHAR...

Tushib xayollarimning
Yana shirin vaqtiga...
Yo'l olaman umrimning
Shirin-shakar taxtiga...

O'tarman bolalikning,
Yoshlikning xush chog'idan.
Kecharman qishlog'imning
Sokin og'gan soyidan...

Bo'ylanib gul iforli,
Chechakli chamanidan,
Terarman lolasidan,
Mahzun binafshasidan.

Bog'-bog'chamiz jilmayar,
Qishlog'im yodga tushar...
Ko'z yugurtib surmali
Ol-alvon oynasiga.
Yuzimni suykagayman
Tog'larning siynasiga.

Cho'ponning hushtak sasi,
Yozning iliq nafasi,
Qo'ni-qo'shni hovuri
Sevintirar har kasni.

Bulut-bulut yog'ishlar
Qalbimning sarinligi,
Tuproq iforin tuyar
Ruhimning ichkinligi.





Dil shundoq uvushadi,
Qishloq yodga tushadi...

Kaft butoqli chinorlar
Yo'llarga yog'du sochar.
Necha qalblarga farah,
Umidlarga yo'l ochar...

Necha umr sirdoshi,
Necha sevgan yurakka
Bo'libdi yo'l yo'ldoshi.
Har tushgan yaprog'ida,
Bir sevgining izi bor,
Har yaproqning ko'ksida,
Bir bitmagan orzu bor.

Yillar tez o'tishadi...
Qishloq yodga tushadi...
Otali, ham onali
Umrinning eng xush kuni.
Qanchalar sevinardik
Qishloqdagi to'y kuni.

Issiq o'chog'imizning
Boshiga yig'ilardik,
Ertakli kechalarda
Ertak-la yorishardik.

Qondoshlarning atrini
Endi kentdan olarman,
Umr kuni shunaqa,
Sokin yo'lga solarman.

Yo'llarning ayrisida
Xayollar qorishadi,
Qishloq yodga tushadi...

GORANBO'YIM

Tug'ilganim – ona yurtim,
Quchog'ida maskan qurdim.
Sen-la har on g'urur tuydim,
Tug'ilgan yurt – Goranbo'yim.

Sen bir ota o'chog'imsan,
Issiq ona quchog'imsan,
Ko'nglimdagi chirog'imsan,
Tug'ilgan yurt – Goranbo'yim.

O'g'illaring jasur, eran,
Har birisi bo'ldi vatan.
Ko'ngillarni aylading shan,
Tug'ilgan yurt – Goranbo'yim.

Naqarot
Murov, Kapaz quchog'ida
Tayanchlisan tog'lar kabi,
O'g'illarning zirvalardan
Chaqirar burgutlar kabi,
Tug'ilgan yurt – Goranbo'yim.

O'g'illaring zarra qadar
Tuproq'ingni bermadilar,
Dushmanga chaldilar zafar,
Tug'ilgan yurt – Goranbo'yim.

Huromon qizing sevinar,
Sen uchun she'rlar aytadi,
Faxr ila madh etadi,
Elim, otam Goranbo'yim,
Tug'ilgan yurt – Goranbo'yim.



MEN KO'K ODAMIMAN...

Men ko'k odamiman, yer-la ishim yo'q,
Men ko'kdan kelganman, ko'k odamiman.
Haqning oshig'i, haqning quyoshi
Aql odamiman, bek odamiman.

Ko'zi yoshli haqning bag'rini ochib,
Na kechaga sig'dim, na-da kunduzga.
Chekib ichimdagi zimistonlarni,
Qaytganman diltortar, jo'shqin dengizga.

Men ko'k odamiman, yerga sig'masman,
Sirli kelgan kuzman, sassiz yog'mishman.
Kulgan ozodlikka bir salom berib,
Haqning ko'zgusiga qo'ngan naqshman.

Suv kabi oqadi umr yillari,
Ko'kning so'z yarog'i, so'zning yeriman.
Yer va ko'k orasi, malak libosli,
Haqning sarhadiman, so'zga tirkakman.

Men ko'k odamiman, eshiting meni,
Ko'kning ko'k qursog'i, samo rangiman.
Kulgan ozodlikning qo'lidan tutib,
Yerning nafasiga chizgan biriman.

Osib gunohidan gunohkorlarni,
Qaldiraq bo'larman, chaqmoq chaqarman.
Dengizda yuvilgan kemalar kabi
Sohildan sohilga umid taqarman.

Men Tabriz yo'liman, Darband yo'liman,
Solarman yo'limni ayriliqlarga.



Bu og'ir yo'llarni olib yelkamga,
Umid tashigayman, umid yo'llarga.

Men burgut viqorli, tog' havoliman,
Men vatan ruhliman, shahid makonli.
Dudog'imda quyosh-quyosh so'z ochib,
Bo'lganman Vatanga men ikkijonli.

Men ko'k odamiman, ko'klardan enib,
Haqning-haqiqatning zamzamasiman.
Huromon ismli bir Vatan qizi,
Ozarbayjon nomli vatan sasiman.





CHIDAGIN, YURAGIM

Agar bo'lsa senda matonat, to'zim,
Chidolmas dardlarga chida, yuragim.
Kimningdir ko'zida yuksalmoq uchun
Yolg'onga jon berma, chida, yuragim.

“Bekor jilmaymagin, bekor so'zlama”,
Sevma bir yolg'onni, yersiz ta'rifni.
Pushaymon hollarga vaqtni ajratib,
Demagin, aldadim falon harifni.

Insonlar hayotda muxtalif bo'lar.
Biri sodda bo'lar, biri va'daboz.
Sen sev soddalikni, shuningchun sevki,
Qishini ko'rmasdan, bo'lma bahor, yoz.

Agar xushlamasang tuz so'z, tuz nishon,
Demak sof emassan, tamiz emassan.
Ishonib yolg'onga, qiyma har kasga,
Ko'zimdan tusharsan, taxtdan ketarsan.

Meni sevganingdek, bil, yashatmasang,
Demak, sen ojizsan, ojiz, yuragim.
Seni sevganlarni bilgin, sen ham sev,
Bo'lmasin bir kimsang sensiz, yuragim.



HAQ OSHIG'I

Haqning-adolatning qo'lidan tutib,
Yuzni yaxshilikka burdim hamisha.
Kinli boqishlardan, noqis yuzlardan
Berkitdim yuzimni, o'tdim hamisha.

Ochdim yuragimning derazasini,
Eshitdim yodimning tug'ma sasini,
Yutdim achchqlikning xush kalimasini,
Har kasning yo'lida bitdim hamisha.

Men Alloh yo'lida, haqning elchisi,
Bo'lmadim nodonga hech zamon oshna,
Ba'zan topmaganda biror yutum suv,
Bo'ldim daryo, dengiz, yetdim hamisha.

To'g'ri bo'lmoq uchun yaralgan banda,
Allohni tushuning har ne etganda,
Yaxshilik o'rniga badlik ko'rganda,
Ko'z yumib, unutdim, yutdim hamisha.

Bilmadim totini kin-kuduratning,
Quliman to'g'rining, sof muhabbatning,
Yolg'onin ko'p ko'rdim tuz haqiqatning,
Tuz bo'ldim, tuzluqqa qotdim hamisha.

Ko'nglimning ko'zini o'yib o'tganlar,
Yaxshilik otini yomon deganlar,
Ey, yolg'on o'rniga tuz ont ichganlar,
Umrinni men sizga sotdim hamisha.

Huromon Murodman, so'zda sarroffman,
Haqning oshig'iman, to'g'riman, sofman,
Men ko'kning odami, men yerga yotman,
Menga to'g'ri otsa, otdim hamisha.





OG'OCHLAR...

Nega yig'layapsiz, sovuq urdimi,
Qishda yaprog'ini to'kkan og'ochlar.
Balki tanholikdan uvishgansiz siz?
Yurakni ko'ksimdan otgan og'ochlar.

Har kasning qalbiga mehrli o'sdingiz,
Yozgi otashlarning yo'lin to'sdingiz,
Do'stdanmi ranjingiz, mendan xafasiz?
Bo'ynini vidosisz bukkan og'ochlar.

Yozda soyangizda dam olgan kaslar,
Qishda qayg'ungizni shundoqmi boshlar,
Qo'li sinsin, sizni kesgan u kaslar,
Ko'zini yo'llarga tikkan og'ochlar.

Necha sevgilarning shohidi kabi,
Sevgan yuraklarning titragan simi,
Dalli sevgilarning shohid hakimi,
Yukin yelkasiga ortgan og'ochlar.

Yo'qsa, kuchingizmi qolmabdi-da hech?
Sevgan qalbingizni olmabdi-da hech?
Sizlarni yodiga solmabdi-da hech?!
Har kasning uyini tikkan og'ochlar...



INSONNING YORIDIR SO'ZI!

Bu dunyoning gavharidir go'zal so'z,
Yashatar insonni, umringni cho'zar.
So'z dunyoning haq-adolat ko'zgusi,
Insonning umrini bir umr yozar.

So'zda yaralgandi har bir hikmati,
So'zning shu'lasida uyg'ongan dunyo.
Ba'zan zulmatlarda kechalar kabi,
Ba'zan so'z qoniga bo'yangan dunyo.

Inson ilhom olar sevgani so'zdan,
Ba'zan sokin bo'lar, ba'zan o'kraydi.
So'z borki, insonni o'ldirar bir on,
So'z borki, insonni xolos aylaydi.

So'z borki, insonning boshining toji,
Inson bor so'zining sohibi emas.
So'z borki, insonning bor ehtiyoji,
Inson bor amali so'z-la bir emas.

So'z ila bezakli naqshdir dunyo,
Dunyoning jonidir, boridir so'zi.
Ehtimol, bir quruq boqishdir dunyo,
Ehtimol, inson-la yorug'dir so'zi...





YANA KELSIN RAMAZON

Ey, buyuk Yaratganim,
Ne yaxshiki, sen borsan.
Yangidan yashat bizni,
Yana kelsin Ramazon.

Yorug'lansin qalbimiz
Ramazonning nuru-la.
Ko'nglimiz tilga kelsin
Xush niyat, xush orzu-la.

Tozalansin ruhimiz
Faqat sening oting-la.
Haqning yo'lini topdik,
Muqaddas Qur'oning-la.

Nasib ayla Sen bizga
Har kelgan Ramazonni.
Umrimizga panohdir
O'n bir oyning Sultoni.

Bizni hidoyat ayla,
Xush bo'lsin har onimiz.
Kamil bo'lsin har zamon
Aqlimiz, imonimiz.



URINGIN

Kimsaning qalbiga tegma, teginma,
Tegsang, u ko'ngilni olmoqqa urin.
Do'stlarning ko'zida mard bo'l, yuksak bo'l,
Doimo yuksakda qolmoqqa urin.

Bo'sh va'dalar uchun behuda yonma,
To'g'rini to'g'ri de, so'zingdan tonma,
O'zingni hech zamon yuksakda bilma,
Qalblarda bir ko'prik solmoqqa urin.

Issig'i bir bo'lmas olovning, hisning,
Qalbida bir bo'shliq bordir har kasning,
Berib qiymatini yaxshi, nokasning,
Ko'ngillar sultoni bo'lmoqqa urin.

Insonda nafs bor – hech zamon to'ymas,
Allohni sevganlar shaytonga ko'nmas,
Qalbi tosh bo'lganlar sevgini tuymas,
Ilohiy xayolga to'lmoqqa urin.

Har ko'zing ko'rganga aylama havas,
Urin soddalikka, sodda tanish, kez,
Bu dunyo moliga mayl etma abas,
Haq nomli bir izni qo'yomoqqa urin...



HAR KASDA BO'LSAYDI

Har kasda bo'lsaydi vafo, sadoqat,
Yuragi so'zi-la yakdil kelsaydi...
Inson bir-biriga berardi qiymat,
Go'zal so'z eshitib, tinch yashasaydi...

Ko'plari tinglaydi ogoh-nasihat,
Yomon yaxshilardan keltirar ibrat,
Insonning jonida bo'lsaydi g'ayrat,
Haqning eshigini ocha bilsaydi...

Halollik har uyda bo'lsaydi boshda,
Inson yashamoqqa qo'rqar taloshda,
Umr shirin bo'lar, axir, har yoshda,
Qadarsiz yashamoq, ko'chmoq bo'lsaydi.

Insonning yashamoq, qurmoq hunari
Keltirar umriga go'zal xabarni,
Inson bir-biriga berib qadrni,
Vafosiz dunyoda qadrin bilsaydi...



YURAGIM

Yana jo'shib ketib yozmoq ishq-la,
Sohir xayollarga to'lar yuragim.
Teginsa gar unga bir nodon so'zi,
O'zini tez qo'lga olar yuragim.

Manman deganlarni muqaddas tutmas,
Negadir dard-g'amni ko'p tez unutmas,
Har yonga tez qochar, ko'p zamon yetmas,
O'zi-la bosh-boshga qolar yuragim.

Buloqning suvi pok, sofdir, tamizdir,
Hasratli Orazdir, jo'shqin dengizdir,
Vatandir, har kasga tug'ma, azizdir,
Gohida ko'p injiq bo'lar yuragim.

Huromon qalbiga tegmoq istamas,
Har neni o'ziga aytmoq istamas,
O'zini hech zamon o'ymoq istamas,
Yashirin bo'shanib, to'lar yuragim.



XOTINLAR

Xotinlar hassosdir, xotinlar nozik,
Xotinlar bag'rida zarif bir yurak.
Erkaklar, ezmangiz xotin qalbini!
U ko'zlar yo'llarga boqmasin hurkak.

Xotin-la hamdamlik bir injalikdir,
Xotinlar sevimli inja chechakdir.
Ularning qadrini bilmoq kerakdir,
Xotin yer yuziga kelgan malakdir.

Xotin go'zallikdir, xotin tarovat!
Xotindir dunyoning sharofat yeri.
Siz uni asrangiz, qo'riqlang har on,
Xotindir dunyoning la'li-gavhari.



IV BO'LIM

Yarim qolgan maktublar...

Senga maktub yozaman
Sendan uzoq yerlardan,
Har satrim bir xotira
Sensiz o'tgan kunlardan.
Ammo yozmagayman men
Senga bo'lgan sevgimdan...





SENGA MAKTUB YOZAMAN...

Senga maktub yozaman...
Yozaman shirin til-la.
Ko'nglingni ovuntirgan –
Yozaman uch-besh jumla.

Senga maktub yozaman...
Yomg'irning yog'mog'idan.
Quyoshning chiqmog'idan,
Shabada esmog'idan.
Ne bilay, yana nedan,
Yoziluvchi ko'p gap bor,
Ammo yozmagayman men,
Senga bo'lgan sevgimdan...

Senga maktub yozaman
Sendan uzoq yerlardan,
Har satrim bir xotira
Sensiz o'tgan kunlardan.
Ammo yozmagayman men
Senga bo'lgan sevgimdan...

Senga maktub yozaman
Xotiramdagi izdan.
Senga maktub yozaman
Yerdan, ko'kdan, dengizdan.
Sevganim nelar bo'lsa
Yozajagim undan men
Xayollarda bosh olib
Bitgan umidlarimdan...
Ammo yozmagayman men
Senga bo'lgan sevgimdan...



Senga maktub yozaman,
Yo bu kun, yoki saboh.
Asos udir, yozaman,
Ammo o'qi, sen Alloh.
Yozajagim ko'p sodda,
Balki-da uch-besh jumla.
Yomg'irning yog'mog'idan,
Quyoshning chiqmog'idan,
Shabada esmog'idan.
Ne bilay, yana nedan,
Yoziluvchi ko'p gap bor,
Ammo yozmagayman men
Senga bo'lgan sevgimdan...





JUDA XAFAMAN SENDAN...

Men juda xafaman sendan, azizim,
Yana bir yuzimni ko'ra bilmassan.
Men juda xafaman sendan, azizim,
Istasang-da ortga yura bilmassan.

Senga bo'lgan sevgim so'ngsiz bo'lsa-da,
Tanisha bilmassan, seza bilmassan.
Yonarsa qalbingda, sen ichkin-ichkin,
Dardingni kimsa-la bo'la bilmassan.

Men juda xafaman sendan, azizim,
Turnalar yig'laydi ko'kning yuzida.
Xafaman sevgining ko'z yoshlari ham
Zulmatga aylanar dunyo ko'zida.

Kech kuzda esgan bu sovuq shamollar
Obketar sevgimni ko'p uzoqlarga.
Fikring bir nuqtada ulashib qolar,
Ko'zlaring tikilar uzoq yo'llarga.

Men juda xafaman sendan, azizim,
Bulut ho'ngray boshlar hasrat ko'zida.
Qolarsan hijronli umidlaring-la,
Bir sevgi ko'karib, bitar so'zida...
Bir sevgi ko'karib, bitar so'zida...



SIQILSANG, O'QI, YIG'LA!

Yoz daftarga dardimni,
Menga umid bastala...
Dardlarimga nafas ber,
Qo'shiqlaringda sasla...

Mahzun xayollarim-la
Tumanda kezdir meni.
Sovug'ida uvushgan
Hasrating-la qir meni.

Kechaning yoqasida
Osilgan yulduz kabi.
Qorong'ulik ichida
Sassizman yolg'iz kabi.

Dardimning tumori bor
Yog'gan yog'ishlaringda.
Hasratim muz bog'ladi,
Qaytgan boqishlaringda.

Dardimning daftarini
Hech kasga berma, saqla.
Bu bir umr sirimdir,
Siqilsang, o'qi, yig'la!



UNUTMOQQA HAQQIM BOR

Deysanki, unutganman, unutmoqqa haqqim bor,
Qaysi bahor quyoshsiz, qaysi qish qorsiz bo'lar?
Fikringda bor, yangidan bir-da meni ko'rasan,
Vafosiz yuraging-la yuragimga kirasan?
Qalbimning eshigini bog'ladim, dedim ya'ni...
Izn bermasmanki hech, sevarsan bir-da meni.
Bir zamonlar qalbimga sen bir hokim bo'lganding,
Yuragimda eng aziz bir guldek ekilgandir.

Hayf, sening istaging faqat bircha yoz bo'ldi,
Orzuing ham, ishqing ham qalbingdek sayoz bo'ldi,
Endi g'ilaylanarsan, unutganman seni men,
Bunga ko'ra injima na toledan, na mendan.
O'z hayot yo'llaringda sen o'zingsan gunohkor,
Unutmoqqa haqqim bor, unutmoqqa haqqim bor!



SENI UYQUDA KO'RDIM

Bu oqshom uyquda ko'ribman seni,
Ko'p g'amli-kadarli, oromsiz eding.
Dedingki, hasrating ko'p siqar meni,
Ko'zladim yo'lingni, nega kelmading?!

Deding, sensizlashdi ko'zimda hasrat,
O'pay ko'zlarimgan, hasratim kulsin.
Senli kunlarimning intizori bor,
Ne g'aming-kadaring bor, menga kelsin.

Bir onning ichida chekindi tumon,
Go'yo nur elandi ko'kning yuziga.
Shundoq go'zallashding, shundoq sevinding,
Uyg'ondim uyqudan kulgi sasiga.

Istadim bir onlik uyquga ketib,
Sening gul yuzingni ko'rmoqni yana.
Nachora, na uyqu, na seni ko'rdim,
Uzatdim - qo'llarim yetmadi senga...



SO'YLA, QAYDA QOLMISHSAN

Ko'z yoshimdek oqib ketgan,
Bir so'zim-la chiqib ketgan,
Ey, ko'ngrimni siqib ketgan,
So'yla, qayda qolmishsan?

Bir ohangdor so'zing olay,
Oqib ko'zlaringga to'lay,
Senga yog'duli yo'l bo'lay,
So'yla, qayda qolmishsan?

Kel, ko'ngrimning oy oshig'i,
Hayotimning yarashig'i,
Hasratimning ko'k qursog'i,
So'yla, qayda qolmishsan?

Sevgimizning oz otiman,
Hasrat nomli qanotiman,
Bilasanmi, men qaydaman,
So'yla, qayda qolmishsan?



YASHIRIN MUHABBAT

Seni ko'rganim o'sha kundan,
Qalbimda bosh ko'tardi ulkan bir istak.
Na bir kasga ayta bildim, na tanishdim...
Seni esladim faqat,
O'qtin-o'qtin, xilvat-xilvat,
Meni yaproqdek sarg'aytirdi...
Keta-keta bu hasrat,
Qalbimni uzgan bu ilinj,
Sirli muhabbat, yashirin muhabbat...





O'TDI SEVGI QATORI

Menga bo'lgan sevgingning
Otin do'stlik sanadim.
Hech o'zim ham bilmasdan,
Afsuski, kech angladim...

Boqishingda yashirib,
Yuragingda toshirding.
Sen bu dalli sevgini
Nega mendan yashirding?

Dengizdek chayqalganda
Tomchiga ko'z tikkanman.
Kemang ketmish bu qirg'oqdan,
Kechirgin, kechikkanman...

O'tdi sevgi qatori,
Taqdirimiz ayrildi.
Bo'lindik fasllarga,
U sevgi qayda qoldi...

Obordi yoshligimni,
O'tib ketgan u yillar.
Afsus, sensiz yashaldi,
Sensiz o'tdi fasllar.

Bu sevgi mehmon kabi
Keldi-ketdi bo'libdi...
Qaydan bildik, bu sevgi
Oramizda o'libdi...



U KETGAN KELMAGAYDIR

Qo'l otib bu sevgining
Yoqasiga osilma.
Xazonli yog'ishlarning
Siynasiga qisilma.
Umr, kun qaytmagaydir,
U ketgan kelmagaydir...

Bitajak parcha-parcha
Umidlarning unvoni.
Muz bog'lagan orzular
Uvushtirar dunyoni.
Ko'zlaring yo'l qaraydir,
U ketgan kelmagaydir...

Hasrating quchog'ida
Uyquga berma g'amni.
Baxtning bo'sh qo'llarida
Ezma butun olamni.
Bu g'am uzun, bitmaydir,
U ketgan kelmagaydir...

Izillama bu ishqning
Jon bergan nafasida.
Siqilmoqni unut sen
Har kechening sasida.
So'rma, ne vaqt kelgaydir?
U ketgan kelmagaydir...

Sendan ketgan vaqtingni
Nigoron ko'nglingga yoz.
Hasratning boqishida
Kelajak ming bahor, yoz.





Turnalar ham qaytgaydir,
U ketgan kelmagaydir...

Sovuq satrlarimning
Kipriklari uzilar.
Siqilmagin, yeri yo'q,
Kecha yomon cho'zilar...
Kel, hasrat tugamaydir,
U ketgan kelmagaydir.

Har eshik chertilganda
Keladi, deb o'ylama.
Yana yo'llarga boqma,
Xafa bo'lma, bo'ylama,
U ortga qaytmagaydir...
U ketgan kelmagaydir.

Za'faron rang ayriliq
Yo'l uzradir ohista.
Yana uni chaqirma,
Yana uni oz ista...
Derazadan ko'zni uz,
U ketgan kelmagaydir,
U ketgan kelmagaydir...



IZLARIMIZ

Ko'z o'ngimda turibsan,
Bir sen, bir moviy Xazar.
Shovullar qo'shig'ini
Yana ajib to'lqinlar.

Ikkingiz ham birlikda
Nag'ma qilasiz menga.
Sasingizni qo'sharsiz
To'lqinlarning sasiga.

Bu kun sen ham xushbaxtsan,
Men ham, moviy dengiz ham.
Uxlaydi sohillarda
Tanho izlarimiz ham.

Sevaman, sadosini
Aks ettirar dolg'alar.
Oyoq izlarimizni
Yuvib ketadi suvlar.

O'chib ketsa sohildan
Bugungi izlarimiz,
Xazar-la qolajakdir
Sevgi ohanglarimiz.
Bizning qo'shiqlarimiz...





SEVGI YOG'DUSI

Sening ko'zlaringni ko'rganim kundan
Bu so'roqsiz, bu savolsiz sevgiga
Shundoq oson qalbimni olib qo'limdan
Tanho qo'yding meni, so'yla, bas nega?!

Bir saboh bir onda qushga do'nib men,
Sening o'stirganing gulga qo'narman.
Hayotda hech zamon ko'rishmasak ham,
Men seni saslayman, seni sevarman.

Umrin bezanajak guldek, chechakdek,
Sening bu kechikkan muhabbating-la.
Yuzingni hech zamon ko'rmasam ham men,
Birga kezadirman saodating-la...



BIR KUN BO'LMAGAYMAN

Bir kun orzu qilarsan meni...
Taqir-taqir tuproqlar
yomg'irni orzulagani kabi.

Bir kun orzu qilarsan meni...
Chorasiz bir xastaning
Ko'zlarini derazaga tikib
Quyosh chiqishini poylagani kabi.
Bir kun orzu qilarsan meni...
Bir mahbusning temir panjaralardan
Ozodlikka hasrat qolgan
boqishlari kabi.

Bir kun orzu qilarsan meni...
Necha yillarning sevgi nash'asi-la olishgan
dudoqlarning muz nafasli
naqshlari kabi...

Ammo u kun men bo'lmayman...
Na-da yomg'ir yog'magaydir.
Meni tug'gan u ona,
Yana meni tug'magaydir...





BOSHQA U YERLARGA QAYTMASMAN

Xayolim bosh urar xotiralarga,
Ovutmas ko'nglimni na tog', na dara,
Chiqib ketadirman bir g'urbat yerga,
Boshqa u yerlarga qaytmagaydirman.

Ruhim o'zgartirdi u bahor, u yoz,
Ko'rganim gullarda yo'qdir ishva, noz,
Og'rib kelishsam-da ko'nglim-la bir oz,
Boshqa u yerlarga qaytmagaydirman.

Onam allasini aytsin ko'ngildan,
Hijron kalimasi tushmasin tildan,
Iforim olarsiz chechakdan, guldan,
Boshqa u yerlarga qaytmagaydirman.

Olib keltirsa ham shamollar meni,
Axtarib topadi ko'ngillar meni,
Chaqirsa u tuproq, u yerlar meni,
Boshqa u yerlarga qaytmagaydirman.



SENI YASHATAMAN

Seni mendan olib ketgan u yo'llar
Menga qaytaradi, bilardim buni.
Yana keladirsan sen hayotimga...
Yana bo'lajaksan umrimning nuri.

Senli xayolim-la tutib qo'lma-qo'l,
Ketarman sening-la, bir sevgi yo'li.
Sensizlik umrimga kechikkan qator,
Sensizlik sevgimning bir hijron holi.

Qayg'uli, qayg'usiz umr yashalib,
Sening-la bir olam qurarman, bas, man.
Bu dunyo dardini unutmog uchun
So'ng onda bilarman - yolg'iz emasman.



AYTGANDINGKI...

Aytgandingki: "Yomg'ir kabi hayotiga yog'gan menman,
Har saharda quyosh kabi sabohini tug'gan menman.

Har kechaning, har kunduzning osilgandir yoqasiga,
Biroz-da hasrat qo'shganding sevgimizning uyqusiga.

Bulut-bulut xayollarning ko'z yoshida tingan ham sen,
Orzularning qanotida zamon-zamon engan ham sen.

Yo'qsa, umr yaylovida qishladimi aytganlaring?
Yo'qsa, teskarimi chiqdi ishq otiga tilaklarim.

Ko'p orzular o'tib ketdi xayolingning ko'prigidan,
Bizga bir xotira qoldi, yog'ganim yomg'ir sasidan...



CHIY, KET MENDAN UZOQLARGA

Chiy, ket mendan uzoqlarga,
Dardimdan anglamaganim.
Ket, ko'zlarimdan uzoq bo'l,
Hech holimga yonmaganim...

Na so'ylagan tilim bo'lding,
Na qalbimda yongan otash.
Na yong'ing'a bir hovuch qor,
Na baxtinga chiqqan quyosh...

Ket, ortiq mendan uzoq bo'l,
Dardimdan bexabar atay.
Qalbim kadar to'la maktub,
Bilmadim, qayga jo'natay?

Seni umr yo'llarimning
Muz hasratiga yozdim men.
Sen-la bog'liq umidlarni
Tushlarim misol yozdim men.

Hasratimni erkalagan
Bulut to'la boqishman men,
Sendan shunday xafamanki,
Juda qiyin yarasharman.





UNUTMA MENI

Bu kechikkan sevgimiz,
So'yla, qaylarda qoldi?
Xazon bo'lgan gul kabi
Rangi za'faron, so'ldi.
Ne zamon seni eslasam,
Ko'zlarim yoshga to'ldi,
Unutma, sen ham meni unutma.

Bahor chechlari ham
Ranjib ketdilar yiroq,
Sensiz so'ng bahor keldi,
Sochlarimga tushdi oq.
Menki, kel demagandim,
Umrimga kelding nedan.
Unutma, sen ham meni unutma.

Boq, ko'rishmaganimiz
Ne zamondir, qachondir...
Ayt ding, fikrida menman,
Xayollaring tumandir.
Bu kechikkan sevgimiz
Nega bunday cho'zildi,
Unutma, sen ham meni unutma.

Biz yetisha bilmadik
Sevgimizning joniga.
Hijron o'qi qadaldi
Umrimiz kamoniga.
Yana ayriliq tushdi
Sevgimizning boshiga.
Unutma, sen ham meni unutma...



UZOQLARGA KETMA...

Qayga olib ketar u yo'llar seni,
Ketganing yerlarda borarmanmi men?
Uzoqqa chekinib ketma ko'zimdan,
Mensiz u yerlarda zerikarsan sen.

Siqilar ko'zingda yorishgan sahar,
Gullar shudringidek titraydi qo'ling.
Bu dunyo ko'zingda zindonga do'nar,
Senga og'ir kelar "xush" amallaring.

Qo'yganing har izdan boqishing tonar,
Qalbingni zich tuman qoplaydi, sarson.
Ko'ksingni intizor hijron injitar,
Meni yolg'iz qo'yib qayga ketarsan?

Hasratning qo'llari siqar qalbingni,
Qaytib boqajaksan, yo'qman u yerda.
Taraydi sochingni g'am shamollari,
Sevging tanho qushdek uchar ko'klarda.





XAFAMAN MEN

Yashalishi mumkin bo'lgan,
Yashalmagan
Yillarimdan xafaman men...

Qishda g'unchalar keltirgan
Ochilmagan, ayoz urgan
Gullarimdan xafaman men...

Vatanimning dardli sasi,
Na'rasida g'am nafasi,
Zamonida aytilgusi,
So'zlamagan
Tillarimdan xafaman men...

Yaralganman haq sasidan,
To'g'ri bo'lgan kalimasidan,
Haqsizlikning panjasidan
Qo'rilmagan,
Qo'llarimdan xafaman men...

G'ayrat ko'ylagidan chiqqan,
Haqqa to'g'ri ayri boqqan,
Oraz kabi sokin og'gan,
Chayqalmagan
Sellarimdan xafaman men...

Dard silagan hasratning,
Yuzga kulmas muhabbatning,
Ko'p kechikkan bir sevgimning
Hasrat to'la
Yillaridan xafaman men.



SENGA NIMA DEYMAN...

Men senga ne deya bilaman, axir?
Yo'llar ham seningdir, iz ham seningdir.
Men senga ne deyin, ne deyin, axir,
Hasratga g'arq bo'lgan ko'z ham seningdir.

Men senga ne yozay, ne so'ylayinki,
Ketsin xayolingdan uryon orzular.
Umrningni sovutgan, qalbingni titgan,
Chekilsin yo'lingdan qora sevgilar.

Kel to'lib, bo'shanma yoz bulutidek,
Nachora, bu tole, bu ham bir qismat.
Yog'dirma ko'zingdan yomg'irni, qorni,
Unutma, to'fonsiz bo'lmas muhabbat.

Osib kiprigingdan zerikmog'ingni
Kecha yelkasiga olib kelmishsan.
Saharning shirali tuman ko'zida,
Sevgi uyqusida qolib kelmishsan...

Senga ne so'ylayin, yana ne deyin,
Hasrat chechaklabdi baxtning yuziga.
Sen-la bir yo'l kelgan savdoyi umring
Rasmini chizadi ishqning ko'ziga...
Senga ne so'ylayin, boshqa ne deyin...
Yana ne deyin...



UNUTA BILSAM AGAR...

Unuta bilsam agar, unutaman seni men,
O'chirsam xotirimdan butun xotiralarni.
So'ngbahor yomg'iridek yog'adirman ko'klardan,
Yuvarman xotirimdan sen-la bo'lgan kunlarni...

Yog'arman yomg'ir kabi, jo'sharman to'fon kabi,
To'larman bulut kabi hasrat domida tayin.
Bitaman ayriliqning bulutli samosida,
Sen meni axtarganda, qiyin toparsan, qiyin.

Unutarman, bilaman, seni ham, o'zimni ham,
Yo'q bo'lib, malak kabi chekinarman ko'klarga.
Toparman yo'qotganim tobni ham, to'zimni ham,
Ketarman xayolimda senli bo'lgan kunlarga...

Unutaman deyman-ku, unutmog' osonmidi,
Qalbimning og'rig'idan osaman ayriliqni.
Bir zamon yuragimdan senga qayrilgan yo'lni
Qo'llarim-la kesarman ko'zlarimda yosh to'la.
Qo'llarim-la kesarman ko'zlarimda yosh to'la...



BIR SEVGI HIKOYASI

Yorimdan bir xabar bormi, dedim shamolga bo'zlab,
Dedi: men hech ko'rmadim, uni qalbingdan izla!
So'ngra tutdim yuzimni bahor yomg'iriga men,
Tindi dali yomg'ir ham, yog'madi kadingdan.

Dedi: qutqarsam koshki seni bu intizordan,
Balki xabari bordir, bir so'r moviy Xazardan...
"Xabar yo'q", dedi Xazar, dolg'alandi g'azabdan,
So'ngra boqdim ko'klarga, yuz tutdim quyoshga men.

Oydan so'r, dedi Quyosh, balki xafaqon edi,
Men ham anglay olmadim, ruhim nedan uvushdi.
Oydan xabar so'rdim men, qo'l silkidi uzoqdan,
Qo'rqdi bu ayriliqqa, balkim, shohid bo'lmoqdan!

Oy ham kirdi bulutga, yuzida g'am-u kadar,
Dedi: axir, sen uni nega sevding bu qadar?
Dedi: axir, sen uni nega sevding bu qadar?





MEN KETAR BO'LDIM

Qushlarga ayt, uchmasin,
Gulga de, gul ochmasin,
Suvlarga ayt, oqmasin,
Men ketar bo'ldim....

Dengizlar chayqalmasin,
Bulutlar yig'lamasin,
Do'stlarim saqlamasin,
Men ketar bo'ldim...

Shamolga ayt, esmasin,
Yo'llarimni kesmasin,
Sevganlarim yonmasin,
Men ketar bo'ldim...

Ko'zlarim yoz yog'ishi edi,
Bulutlarning gul naqshi edi,
Sevgilim, so'ng boqishim edi,
Men ketar bo'ldim...

Olam eshitsin sasimni,
Onam tuysin nafasimni,
Tuproq ochdi siynasini,
Men ketar bo'ldim...



MEN KO'KLARNI SEVAMAN

Men ko'klarni sevaman,
Men yerlarni sevaman.
Qo'l yetmagan, muqaddas,
Har nelarni sevaman.

Oy-yulduzli kechani,
Ko'k samoni sevaman.
Dunyo go'zalligini,
Ham osmonni sevaman.

Nuringdan bo'y otganim,
Quyoshimni sevaman.
Qalbimda Vatan nomli
Otashimni sevaman.

Har nening oson emas,
Qiyinini sevaman,
Haq yo'lining abadiy,
Gulshanini sevaman.

Kuchli shamolni emas,
Sokin yelni sevaman.
Gullar uzra jilmayar,
Shudringlarni sevaman.

Buyuk sevgilar kabi,
Men sevmoqni sevaman.
Tangri sevgisi qadar,
Sevilmoqni sevaman.

Oh, nelarni sevdimki,
Bu dunyoda qolmoqqa.
Dunyoning sarvatlari
Yetmas uni olmoqqa.



KEL

Siqma yuragingni, yana yosh o'tib,
Kutarman, sochingga oq tushsa-da, kel.
Bilaman, zamon ham ko'p siqdi seni,
Boshing dardlaringga qorishsa-da, kel.

Chechakli bog'changdim, ochiq eshiging,
Quyoshli saharing, kechang nur otgan.
Tole biz deganni demas ko'p zamon,
Bilmayman, ko'nglingdan nimadir o'tgan...

Tutib qo'llaringdan tole yo'llaring,
Yomg'ir bo'l, shamol bo'l, nayson bo'lgin, kel.
Men o'zi kuzakka do'ngan sevgiman,
Sen umr yozimga xazon bo'lgin, kel...

Toriqdik umid-la kutmoqlikdan biz,
Yozilgan tolening ko'z yoshi bo'ldik.
Ko'p fikrlashaman gunohkor kabi,
Balkim, biz sevgining taloshi bo'ldik...



AYRILIQ SHAMOLLARI...

Ayriliqlar yomg'irlar kabi kelar,
Yog'ishlarning rangi bo'lmas, azizim.
Ayriliqlar shamollar kabi esar,
Shamollarning rangi bo'lmas, azizim.

Tanholikning bulut-bulut ko'z yoshi
Samolarning qor yuzida muzlaydi.
Shamollarning sovuq, bo'ron savashi
Umr kuzin sahosida bo'zlaydi.

Umidlarning rangi qochgan dudog'i,
Achchiq-achchiq kulib tegar, azizim.
Tanho qolgan orzularning butog'i,
Shivirlab boshini egar, azizim.

Har ochilgan sabohlarim intizor,
Har kechani ko'z yoshlari to'ydirmas.
Ayriliqning za'far rangi sart bo'lar,
Yomg'ir, shamol fasllarni ayirmas...

Bu hayotning, bu dunyoning bo'z yuzi,
Ayriliqning uyqusiz kechalari...
Tanholikda porlab turgan yulduzlar,
Saharlarning g'am to'la chechaklari.

Ayriliqlar qo'limizdan tutaroq,
Umrimizni egovladi... eritdi.
Mo'jazlashdik murg'ak go'daklar kabi,
Asta-sekin qalbimizni qaritdi...



KIMIM BORKI, TOG'LARDA?!

Eshitdim, qor yog'ib, do'llar tushdi tog'larga,
Fikrim to'lg'onib, ketdi senli bo'lgan chog'larga,
Xayolimda umidlari obketar uzoqlarga,
Nedan, axir, bu ruhim uchar yuksak tog'larga,
Ey, yo'li tog'dan o'tgan, salom ayting tog'larga,
Kimim borki, tog'larda, tog'lar qayda, men qayda?!

Yashayapman bu ko'nglimning kechikkan savdosida,
Tog'lar kabi hasrat bor ko'zimning qorasida,
Bir sevgi yo'qotganman tog'larning orasida,
Ey, yo'li tog'dan o'tgan, salom ayting tog'larga,
Kimim borki, tog'larda, tog'lar qayda, men qayda?!

Bir xotiraga do'ndi senli bo'lgan kunlarim
Yarmi xazon gullarim, yarmi g'uncha gullarim,
U tog'larga kech kelar bahor-yoz fasllarim,
Ey, yo'li tog'dan o'tgan, salom ayting tog'larga,
Kimim borki, tog'larda, tog'lar qayda, men qayda?!

Bir chamanzor, yashilman, u tog'larda izim bor,
Bir sevgining yoshiman, ko'kdan boqqan ko'zim bor,
Seni ruhimga solgan olovim bor, kuzim bor,
Ey, yo'li tog'dan o'tgan, salom ayting tog'larga,
Kimim borki, tog'larda, tog'lar qayda, men qayda?!

Shalola rangidadir, tog'larning g'arib yeli,
Ko'zimda tumanlari, qalbidam hasrat seli,
Sevgi qo'shig'in aytar har chechagi, har guli,
Yuragim istaydiki, chiqib ketay tog'larga,
Balkim, sirimni ochsam zirvada burgutlarga.
Eh... Huromon, bir turgin, tog'lar qayda? Sen qayda?
Eh-h-h...Huromon, bir turgin, tog'lar qayda? Sen qayda?

KO'RGAN ZERIKARMI HECH?!

Tutib xotiralarning savdoli qo'llaridan,
Ko'nglimga so'z yig'arman kuzning xazonlaridan,
Qaytadirman gohida u bor kunlarimga men.
Ko'rarsan, u ham meni hech yodiga solarmi?
Uzoq yo'llarga boqib, xayollarga tolarmi?

U ham oqshom bo'lganda ko'klarga boqarmi hech,
Ko'nglini hasrat ila yondirib, yoqarmi hech,
Ko'zlari to'la-to'la, kuyib toliqarmi hech?
Eh... xayollar, xayollar meni qayga obordi,
Yana ham yuragimdan bir xotira qo'pordi.

Tutib so'z yomg'iriga qalbini namlatarmi?
Visol onlarimizni hech yodiga solarmi?
Yuragi to'yinarmi, havasi tutilarmi,
Boshi tumanlanarmi, ko'ngli hech siqilarmi?!
Bilaman, xotirlaydi u ham meni har onda,
Shamollar ham esganda, yomg'irlar ham yog'ganda...
Shamollar ham esganda, yomg'irlar ham yog'ganda...





XAYOLIMDA YANA SEN...

Sadoqat, muhabbat, ulkan sevgi-la
Seni xayolimda bilganman, har on.
Ne qadar uzoqsan – u qadar yaqin,
Seni yuragimda ko'mganman har on.

Gapirib ichimda xo'p gizli-gizli,
Sening ko'zlaring-la sayr aylaganman.
Gohida shivirlab, gohi jimgina,
Senga ko'plab maktub, xat yo'llaganman.

Har galda sening-la ko'rishganda men,
Do'st kabi ko'rishib, ayrildim sendan.
Sensiz yashasam-da bu dunyoda men,
Yana xayolimda sensan, yana sen.



YANA TUSHLARIMGA ISHONMAYMAN MEN...

Yana tushlarimga ishonmayman men,
Tushlarim ham yolg'on, sen ham yolg'onsan.
Qayg'uli, shirinli xotiralarni,
Sen dema, unutmog emaskan oson.

Qalbimda sovugan kulishlarimning,
Yaqinga, uzoqqa ketgan yo'lisan.
Hasrat ko'zlarimdan chekilib ketgan,
Achchiq haqiqatsan, shirin uyqusan.

Yana yo'llarimda unutilgan iz,
Boshin chayqab ketgan mahzun xayolsan.
Xotira so'roqli, g'arib, qayg'uli,
Kuzakning so'ngida esgan shamolsan...

Deydilar, tushlar ham haqiqiat bo'lar,
So'ylama tushingni og'gan suvlarga.
Ma'yus boqishida yo'qolib bitgan
Sen qayda, g'am chekkan u sevgi qayda?

Tushlaring ham yolg'on, hasrat ham yolg'on,
Yuvar sevgimizni kuzning yog'ishi.
Sovuq xotirang ham shu tushlaringday,
Osar ko'zlarimga ayriliq toshin...

Yana tushlarimga ishonmayman men,
Bu tushlar ham yolg'on, sen ham yolg'onsan.
Charchoqlar osilgan kipriklarimga,
Senga unutmog'im emasdir oson.





KELARMAN YANA MEN...

Kunning chiqar yerida
Kutayapsan meni sen.
Bitmasin umidlaring,
Keladirman yana men.

Keladirman bir sahar,
Gul shudring tutgan zamon.
Yo'ldan hasrat chekinsin,
Chekinsin tog'dan tumon.

Ishqning lashkarlarini
Tizib yo'llar ustida,
Turasan kunduz-kecha
Ayriliqning qasdida.

Bosib ko'ksimga yozni,
Qishni ham yoz bilaman.
Quyosh chiqqan u yerda
Kutayapsan, kelaman.

Saqlaylik ko'rishmoqning
Vaqtini, va'dasini.
Hali bir oz tinglaylik
Hasratning nag'masini.

Hasrat-hasrat boqarsan
U cho'zilgan yo'llarga.
Ochiladi qo'llaring,
Hali ko'p naqllarga.

Xotirlaydiansan meni,
Tun, yomg'ir yog'ilganda.

Axtararsan gohida,
Yuraging siqilganda.

Keladirman, kutgin sen,
Bir yomg'irli saharda.
Bir qush g'amli sayraydi,
Quyosh botgani yerda.

Quyosh chiqar deydiansan,
Sokincha yog'ar yomg'ir.
So'z bergandim, kelarman,
Hasratni ortga chaqir..



YANGIDAN DUNYOGA KELMOQ ISTAYMAN

Yangidan dunyoga kelmoq istayman...
Sening-la ko'rishmoq uchun,
Bitib bu sevgining chechak tuzida
Qolib sevgimizning dengiz ko'zida
Seni ko'rmoq istayman...
Essin hasratimizning visol yeli,
Kezaylik sevgining sohillarida,
Tushaylik ishqning qo'llariga...
Yonaylik sevgining shirin ayrilig'ida...
Dukurlagan yuragimizning
Sen u tomonida, men ham bu tomonida...

Yangidan dunyoga kelmoq istayman...
Senli kunlarimning erkasi bo'lmoq uchun
Sevgimizning titragan qo'llarida,
Bitmagan yo'llarida
U kunlarimning har soatini
Nigohlarimda muhrlamoq istayman.
Hasratimizga yog'gan yomg'irlarning
Qorong'u kechasida sen oy bo'l, men - yulduz...
Qaraylik sevgimizning ko'k kamariga,
Ochib quchog'imizni tolening xush vaqtiga
Xotiralarni endiraylik kuzga,
O'zimiz yuz tutaylik yozga...

Yangidan dunyoga kelmoq istayman
Sevib, sevilmog uchun.
Ishqning marvarid donalarini
Nigohlaringdan yig'ib,
Sevgi bog'chamizning chechak yuragiga ekmoq uchun.
Nafasimning lol kabi jimgan
Buloq ko'zidan
Suzilib kelgan ayriliqlarni
Umrindan o'chirmog uchun.
Seni ruhimga chizmoq uchun.

YARIM QOLGAN MAKTUBLAR...

Kechirginki, yozmadim maktublarda sevgimni,
Maktublar ham yarimta qoldi sevgimiz kabi.
Naylayinki, g'ururim nimaladi sevgimni...
Oqladi maktublar ham bu kechikkan sevgimni.

Sendan yozajak qalbim injidi, xafa nedan,
Yozmadi bir kalima senga bo'lgan sevgimdan.
O'qidi maktublarni kuzakning shamollari,
Ko'zingda yoz yomg'iri, yig'latdi bulutlarni.

Maktublar tilga kirdi intizor kechalarda,
Kechalarning bag'ri shilindi parda-parda...
Bilmadim, maktublarning yo'li nega bog'landi?
Maktublar ham biz kabi tushdi savdoli dardga.

Sevgimizning nurida maktublar kecharlar ekan,
Sen aytm, lol sevgimiz hasrat-la zor kutar ekan.
Yarimta maktublarning g'arib savdosi kabi,
Yig'lagan satrlarning ko'z yoshini sirlar ekan.

Bu savdoning ko'zlari hali ko'p yo'l chekadi,
Yarimta maktublardek hasrat yoshin to'kadi.
Ko'p urindim, maktubni boqish-la bitirmadim,
Balki yarimta sevgi maktubni bitirajak...





KELAJAK BAHORDA YANA KELAMAN...

Sepib hasratimni yo'llar ustiga
Kelajak bahorda yana kelaman.
O'girib yuzimni men senga tomon,
Kelajak bahorda yana kelaman.

Mensiz oqarsa-da har soch beomon,
To'ssa-da yo'limni dovul, qor, bo'ron,
Tutib umidlarning xayollaridan,
Kelajak bahorda yana kelaman.

Hasratimning sukut nomli sasida,
Hassos tuyg'ularning tor qafasida,
Qolib siqilmagan o't nafasida
Kelajak bahorda yana kelaman.

Yo'limni Shushaga, Lochinga solib,
Murg'ak chechaklarning iforin olib,
Tanholik qo'lida chorasiz qolib,
Kelajak bahorda yana kelaman.

Ovutar ko'nglimni g'amli ohanglar,
Sevgili kunlarni yutar kechalar,
Yodimga tushadi eh... nelar, nelar,
Kelajak bahorda yana kelaman.

Injisin yozi ham, qishi ham mendan,
Uzoq bo'lsin hijron yoshi ham mendan,
Yo'limni solaman shudringli bog'dan,
Hasratning yuziga boqib kelaman,
Kelajak bahorda yana kelaman.



BIR KUN CHIQIB KETASAN

Bir kun chiqib ketasan
Bu shaharning sasidan.
Ketasan uzoqlarga...
Na mashin sasi kelar,
Na-da chinqirig'i...
Sening-chun hayot bo'lar
Bir-da bir ichim suv...
Ketasan sekin-sekin
Seni yo'llar oborar.
Shu yo'llar tuyar seni,
Seni g'amdan qo'porar.

Bir kun chiqib ketasan
Bu shaharning o'zidan.
Soxta yolg'ondan kulgan
Insonlarning yuzidan.

Uzoq yerga ketasan...
Bilmaydilar izingni.
Unutasan har kasni
Va topasan o'zingni.

Hech orqaga boqmasdan,
Bir kun chiqib ketasan...
Ketmoq ne qiyin emish...
Ehtimol, oson emish...

Bir kun chiqib ketasan...
Hech bir kasga aytmasdan.
Sokin, sassiz-sadosiz,
Bir kun chiqib ketasan,
Ayriliqning totini
Har kasga bildirasan...





SENI UNUTISHIM KERAK

Hasrat-la kutypman bu oqshom yana,
Go'yoki xonamda sasing, nafasing.
Men seni unutmok istadim, faqat
Tuzalmas yarasan, yuragimdasan.

Shahar ham, ruhim ham sukut ichida
Sensiz bir g'aribdir bu kuzak, bu yoz.
Ketding - xayollarim sirdoshim bo'ldi,
Qaytsang-da, hasratni unutsak bir oz.

Uvushgan sevgimning ustini o'rab,
Kechalar tushimga sham tutishim shart.
Bu dali hasratga so'ng qo'ymoq uchun
Men seni abadiy unutishim shart...



YASHAMOQ ISTAR SAN DEVONALARCHA...

Yashaganing bir kun umrga kirsa,
Bir kun-la hayoting agar do'narsa...
Toleying o'ziga ne boqsa kulib,
Xayollaring senga mehmonga kelsa,
Yashamoq istarsan devonalarcha...

Kadaring qo'lingdan nolishib, ranjib,
Orzuyingga ne vaqt yeta bilarsan...
Qochib orzularning shirin yuziga,
Uning qo'llaridan tuta bilarsan,
Yashamoq istarsan devonalarcha...

Ba'zan lol bo'larsan, ba'zan tinarsan,
Ba'zan ummon kabi to'lib tosharsan.
Yuraging siqilar, ruhing siqilar,
Ba'zan dengiz kabi shunday jo'sharsan...
Yashamoq istarsan devonalarcha...

Bir umr abadiy xayol qurarsan,
Yuzni chechaklaydi ayriliqlaring.
Achchiq kulishlarning yo'llari uzra
Yog'arsan yomg'irday sen sarin-sarin.
Yashamoq istarsan devonalarcha...





SENGA BORMAGAN YO'LLAR...

Senga bormagan yo'llardan
Ketmagayman yana men...
Ketsam,
U yo'llarning muzdir boqishi.
U yo'llarning sovuq nafasi
Uvushtirar ruhimni...
Yo'llarimda esgan shamollar
O'zgartirar yo'limni...
Sarg'aygan rangimning shivirlashlari,
Qo'llarimni ocharoq,
Meni tanholikka yetaklayajak...
Bo'zargan uyqularimni kechasiga sudrayajak.
Zamonning sochlarini
taragan ayriliqlar,
So'ng umidini yashagaydir...
Umrinni qadah-qadah ichib,
Hasratimni kuzatgan yo'llar...
Charchagan ko'zlaringni yumib,
Tosh bog'lagan qo'llaringni
Bag'rida chormixlagan
yo'llar...
Eh... yo'llar... yo'llar...
U yo'llar senga olib bormasa, ketmasman yana...
Tonglarning g'arib ko'zlarida
bitmasman yana.
Yulduzlarning yalinchoq
boqishlarida
Erimoq istayman..
Ko'ksimdagi soat millarini
Senga kelgan yo'llarning
Tanho shu'lasida
to'xtatib,
Ortga qaytmoq istayman...



U yo'llar senga olib bormasa,
Ketmayman...
Oyoqlarimning yara bo'lgan sasiman...
Kumushlangan sochlarimni
Silagan hasratning kechasiman...
Bu yo'llar senga olib bormasa,
Ketmasman...
Ketmasman hech...





BEHUDA UMIDLAR BERMANGIZ...

Behuda umidlar bermang, ne bo'lar,
Behuda umidlar sarg'ayib, so'lar.
Balki-da bir umrning oxiri to'lar,
Balki-da bir umr yarimta qolar.

O'ynamang baxtning bad naqshlari ila,
Qaqroq yerda ekmish umiddan sanchiq.
Aldatib, aldangan umr hisobidan,
Boshlanar tolening yellari achchiq.

Yo'q denglar hayotning sart boqishiga,
Izlangiz, axtaring xush onlarini.
Tushmangiz dunyoning noxush vaqtiga,
Tering bu dunyoning mushk anbarini.

Sadoqat, e'tibor, in'om axtaring,
Yozilgan umrni badga bermangiz.
Yaxshilik urug'in shunday sepingki,
Tolening hukmiga siz bosh egmangiz.

Huromonman, haqning yo'lchisiman men,
Siz haqni nohaqqa bermangiz hech vaqt...
Ko'ngil bog'ingizda gullar ochilsin,
O'zganing bog'idan termangiz hech vaqt...



BIROVGA AYTOLMAYMAN

Bir otash bor yuragimda,
Yondiradi, aytolmayman.
Bir sevgi yig'lar ichimda,
Birovga so'ylay olmayman.

Kimsa bordir hayotimda,
Men ulardan kecholmayman.
Bu ishq umrlik sirrimdir,
Birovga ayta olmayman.

Bu ishqim hayotimda
Bir umrlik bitajak.
Sevgimni hech bir zamon
Bir kimsa bilmayajak.

Ne qadar yondirsa-da,
Men uni sozlagayman.
Mendan xafa ketsa-da,
Men uni saslagayman.

Koshki, hasrat qo'liga
Bu sof ishqim tushmasin.
Omondir, sevgimizga
Hijron yeli esmasin.





SEN YO'Q KABISAN...

Dunyomning o'z bori, o'z boqishi bor,
Bu borliq ichida sen yo'q kabisan.
Men sening dunyongdan ko'pdan ketganman,
Bas, nega chiqmassan aqlimdan hech sen...

Eh... Nedan so'zlayin bu bor ichida
Gizlanib, qurigan ko'lka kabisan.
Uchib xayollarning qo'l qanotida,
Bitgan umidlarga belgi kabisan.

Gunohmi yuvarsan yog'gan yomg'irda,
Bu kuzak, yomg'irlar nedan bitmaydi.
Sabri torayibdi har o'tgan kunning,
U qadar yaqinsan, qo'lim yetmaydi...

Xotira seliga do'ndi gumonim,
Ichimda sen nomli bir mening yashar.
Nedan xayolimdan chiqmassan bir on,
Yo'l solib qalbimga senli yoqishlar.

Adashdim tumanli fikr yo'lida,
Na aqlimda yasha, na tushimda kel.
Gohida siqilsang uchib xayolday,
Mehmon bo'l umrimga, kel, siqilma, kel...



SIQILMOQ...

Zerikishning rangi bo'lmas, azizim,
Zerikish nam tushgan gulga o'xshaydi.
Yondirar qalbingni, ko'zga ko'rinmas,
O'chog'ingda so'ngan kulga o'xshaydi.

Insonga ayrilmas bir yo'ldosh bo'lar,
Sig'inar darding-la, bir sirdosh bo'lar,
Siqilsang, qalbingga ichkin iz solar,
To'fonda sovrilgan yo'lga o'xshaydi.

Goh sayoz ko'rinar, ammo chuqurdir,
Hasrati umrlik qalbda yarangdir,
Uvushar har zamon, yeri sarindir,
Zerikmoq bir soyga, ko'lga o'xshaydi.

Yaralar odamni o'z jon joyidan,
Eritar, mahv etar, soch oqarar shan,
Tinasan, yuraging to'lar kadardan,
Zerikmoq lol bo'lgan tilga o'xshaydi.

Aylaydi qalbingni tom o'yiqlik o'yiqlik,
Goho qaynoq bo'lar, gohida sovuq,
Aylamas o'zini hech nega loyiq,
Zerikmoq sahroga, cho'lga o'xshaydi.



KIPRIKLARIMNING XOTIRIDA QOLDI SAVDOLI BOQISHING...

Sening-la oramda
Bir ko'prik bor, oti yurakdir.
O'tmoqni istayman.
Ammo odim ota olmayman
Ezaman deya...
So'ngra tikanlarning to'dasiga
Ilashib qoldi...
Umidlarimning qanoti...

Kecha yomon cho'zildi...
Bu kecha sensizlikning
ko'zqusiga bog'landim.
Sog'inchning bo'z rangida tumorlandim.
Toriqmoqning shaklini chizdim...
Kecha yomon cho'zildi...
Mayin yomg'ir yog'ishni boshladi.
Xotiramning ko'z yoshlari bo'lib
Sayr etdim yomg'irni.
Ichimga chizdim bu sovuq boqishni...
Sarg'aygan varaqlarning orasida uvushdim.
Xazon yaprog'idek titradim, esdim...
Girdobga duchor bo'lib, senga shoshdim.
Qaytgan nafasim bilan
rangli tabassumlarimning
yo'lini kesdim...
Kecha yomon cho'zildi...

Sevgimning ko'zlarida bir
umid ekdim, ko'karmadi.
Oq sochlarini qora rangga bo'yadim,
sevinmadi.
Soya kabi izladim umrimning
Qorong'u yo'llarini.
Umr ham dolg'a kabi emish.
Sohilga chirpindi, yo'q bo'ldi.
Boshimni suykadim xayollarimning
ko'z yoshiga...
Yuragimdan bir sevgi tushdi...

Yo'llar tanho, umidlar tanho
Qolganman yo'l ayrisida.
Qorong'uliklar ustimga kelgan
Tarmashaman sabohlarga...
Tanholikning qo'lidan tutib,
Oyog'imni ezgan toshlarning
Yuzlari-la eriyman.
Bola kabi yig'lab kiraman...
Sohil tortqilagan to'lqinlarga do'ndi,
uzoqlashaman tanholigim kabi
Xotiraga aylanaman
o'sha bolaligim kabi...



Toleyimning yuzqorasidir,
Chizganim dard naqshlari...
Suvsizlikdan qurigan
Dudoqlar kabi
Yoriq-yoriq edi...
Baxtimning o'rmoniga
 gul-chechak ekdim.
Boqdimki, har taraf qordir...

Tabiatning yaproq to'kishi...
Za'faron rangida chechaklar.
Tuproq rangida kulishlar
Kesilgan og'ochlarning ko'z yoshi kabi
Fasllar kurashi...
Umrning, yillarning dard yomg'iri...
Qariyapman...

Qilqalamning go'zalligida
 aks etar dolg'alar...
Sohilning quchog'ida
 shiviraydi to'lqinlar..
Chag'alaylar qo'shig'i
 suvlarga tushar.
Rassomning xayollari dengiz-la
 O'pishar...



Sevgi qalbning ocharidir
Yurak sevgining uyi...
Muhabbatim bol ichar
Hijronning bog'ida.
Kadarim osilib qoldi
Suiqasd butog'ida...

Kipriklarimning xotirida qoldi
 savdoli boqishing.
Poyezdning ketishida qarshilaydi
 meni hasrating.
Bir sevgi inqillaydi relslarning orasida,
Quchoq-quchoq qatlanadi yuragimning boshida...
Bo'g'ar meni ko'zlarning qorasida,
Umidlarim joniga qasd qildi...

Umidimning qo'llari
 bo'sh qaytadi.
Ayriliqning qonli qo'llari
Yuragimning eshigini qoqadi.
Chirpinaman yomg'ir ostida...
Ruhimning ko'z yoshlari
Qanot ochar yuborganim
 maktublar kabi...
Yuzimga urilar yozganim so'zlar...





ORTGA QAYTMADI...

Ko'p hasrat-la kuzatdim
O'tgan yillarimni men.
Yo'llar ham ko'p kutdilar,
Qaytarib hech nima bermasdan.

Har yilning bahor, yozi
Umrinni gul ayladi.
Har oyimga, kunimga
Xush orzular tiladi.

Endi u yillarimning
Hasratli yo'lchisiman.
Ortga qaytmas umrning
Har zamon yig'isiman.

Shirin xotiralarning
Uzoq bo'ldi qo'llari.
Naqadar chaqirsam ham,
Yana qaytmadi ortga...

O'tdi yoshlik yillari,
O'tdi orzuli sezgi.
Bu orzular-la to'la
Ketdi umr poyezdi.



ALLOHIM, KECHIRGIN MENI...

Azobingdan rahmingga sig'inaman,
G'azabingdan sevgingga sig'inaman,
Sendan yana, ey, senga sig'inaman,
Eshingga keldim, kechirgin meni.

Lutfing-la ko'nglimni hidoyat ayla,
Adolat yo'limni haqiqat ayla,
Gunohim ko'p bo'lsa, marhamat ayla,
Eshingga keldim, kechirgin meni.

Sen haqsan, men senga kelgan bir yo'lman,
Sevgingdan ochilgan qanotman, qo'lman.
Senga itoatkor bandangman, qulman,
Eshingga keldim, kechirgin meni.

Ochdim dargohingda xush qo'llarimni,
Allohim, qaytarma bo'sh qo'llarimni,
Ko'tarib orzuyim, tilaklarimni,
Eshingga keldim, kechirgin meni.

Ey Rabbim, rahm ayla mag'firing-la,
Men Senga bog'liqman sadoqatim-la,
Sen umid yerimsan, sof niyatim-la
Eshingga keldim, kechirgin meni.



O'G'LIM

*O'g'limning sochlarida oqlar ko'rdim,
ko'p ta'sirlandim!*

Sochingning oqlari tegar ko'zimga,
Ko'zlari ko'zimdan rang olgan o'g'lim.
Bahor nafasi-la yel kabi esib,
Ruhimga, ko'nglimga el bo'lgan o'g'lim.

Ko'zimda yuksaldi sochingdagi oq,
Ruhimning erkatoiy bolaligiday.
Balki yillarimning hasrati kabi,
Yashirin izlagan seni soyaday.

Ona qo'llarining issiq tumori
U oq sochlaringga muhabbat chizmish.
Yillarning dard bergan g'amli qo'llari
Qora sochlaringga oq hasrat chizmish.

Quyosh shafag'idir sochlaringda oq,
Tabiat rangidir, g'am yema, o'g'lim.
Allohning bergani bir yuksaklikdir,
Ishla, yuksaklikdan sen enma, o'g'lim.



MEN SEVGI SHOIRIMAN!!!

Men sevgi shoiriman,
Duom – Alloh atosi.
So'zlarim – tong yulduzi,
She'rim xayol sadosi.

Sevgimning Ka'basiga
Suykaganman boshimni.
Sevgim-la yoz etganman
Kuzagimni, qishimni.

Ruhimning rangidadir
Sevgimning naqshlari.
Qo'y, ranjib, injimasin
U ma'sum boqishlari.

Men sevgi shoiriman,
Menga sevgidan gapir.
Bu savdoli yo'llarda
Bizni tutmasin yomg'ir...





ONA TILIM

Eng buyuk, shoh asarimsan,
Borlig'imsan, keragimsan,
Na yaxshiki, sen meningsan,
Ona tilim, tug'ma tilim!

Tariximning o'z otisan,
Hayotning shirin totisan,
Ruhimning so'nmas o'tisan,
Ona tilim, tug'ma tilim!

Umrinning so'z yomg'iri sen,
Har so'zimning gul naqshi sen,
Bu dunyomning boqishi sen,
Ona tilim, tug'ma tilim!



INSONNING YORIDIR SO'ZI

Bu dunyoning gavharidir go'zal so'z,
Yashatar insonni, umrin cho'zadi.
So'z dunyoning haq-adolat ko'zgusi,
Insonning umriga umr yozadi.

So'zda yaralgandir har bir hikmati,
So'zning shu'lasida uyg'ongan dunyo.
Ba'zan qorong'ulik, kechalar kabi,
Ba'zan so'z qoniga bo'yalgan dunyo.

Inson ilhom olar sevgani so'zdan,
Ba'zan sokin bo'lar, goh bo'kiradi.
So'z borki, insonni o'ldirar bir on,
So'z borki, insonni tiriltiradi.

So'z borki, insonning boshida toji,
Inson bor so'zining sohibi emas.
So'z borki, insonning bor ehtiyoji,
Inson bor amali so'z-la bir emas.

So'zi-la bezakli naqshdir dunyo,
Dunyoning jonidir, boridir so'zi.
Ehtimol, bir quruq boqishdir dunyo,
Ehtimol, insonning yoridir so'zi...





O'LIMDAN QO'RQMANGIZ

Hayot boshdan-oxir afsona, naql,
Hayot bir falsafa, Insonlik demak.
Ko'z-la ko'rinmagan yaxshiliklarni
Har zamon anglaysan, tuymog'ing kerak.

Sig'inib Allohga, haq, adolatga,
Haqiqat nomiga yo'l yuring har on.
Mudramas hayot ham, to'xtamas hech vaqt,
Insonlik otini yuksaltgan inson.

Yashab o'tadirsiz hokim, shoh kabi,
O'lganda insonday o'lmoq kerakdir.
O'limdan qo'rqmangiz, shundan qo'rqingki,
Yasharkan, o'liksiz yuraklarda siz.



BU BAHOR SEVGIMIZ XAZONGA DO'NDI

Bu bahor sevgimiz xazonga do'ndi,
Hijron shamollari esdi orada.
Tutdi yo'limizni nayson yomg'irlar,
Bo'lgan umidlarni kesdi orada.

Sevgi yo'limizni oldi tuman, shan,
Bir ishqning qish nomli sayriga turdim.
Soldi savdomizni ayriliqlarga
Sening inoding-la mening g'ururim.

Hasrat nafasidan sovudi ko'ngil,
Bu bahor qaytmadi turnalarim ham.
Tutaylik hijronning chechak qo'lidan,
Tilansin ishqning yoz tilaklari jam.

Muhabbat tiladim xush xayollardan,
Ko'nglimni isitdi shirin naqlar.
Binafsha atirli yoz yomg'irlari
Hasrat yuragimning g'amini silar.

Bu bahor sevgimiz xazonga do'ndi,
Gumonlar bosh olib ketdilar kuzga.
Jimlikka g'arq bo'lgan kechalar kabi,
Qiyindir, sevgimiz qaytsaydi yozga...





SEVGANDIM SENI

Yana sendan bir bor bahs etmagayman,
Ko'hna rasmlarda, sah(i)falarda qol.
Men huzur haq etdim, sen huzun berding,
Kechikkan sevgini endi qaytib ol.

Dunyoning nur sochgan shafag'i kabi,
Men haqning o'ziday ko'rgandim seni.
Haqning-adolatning oshig'i bilib,
Haqiqat yuziday sevgandim seni!

Har ochilgan chechak, har ochilgan gul
So'ngbahorda xazon bo'lib so'larkan.
Ba'zan jo'shqin bo'lib kelgan sevgining
Sokin shivirlashli so'ngi bo'larkan.



YANA SEN BOR EDING

Aqlimda sen bo'lding yana bu sahar,
Yana derazamni chertdi epkinlar.
Uzoqdan chinqirgan chag'alaylardek,
Sendan so'zlar edi moviy to'lqinlar..

Sohilni tuyganda dalli oqimlar,
Xayolim bulutga salom aytardi.
Yana dengiz menga eslatdi seni,
Yana ko'nglim faqat sendan so'zlardi...

Zar kiygan quyoshning ufqlaridan
Senli u kunlarim ruhimga ko'chdi.
O'ynadi ko'zimda asov to'lqinlar,
Senli xotiralar ko'nglimdan kechdi.

Sensiz yuragimni siqdi bu dengiz,
Uchdim xayoling-la ko'p uzoqlarga.
Toriqdi bu sohil, zerikdi dengiz,
Qaytdim bir lahzalik o'tgan chog'larga...

Dengiz ko'zlarimda rasmini chizdi,
Meni hasrati-la siqdi so'ngbahor.
Suykanib baxtimning dengiz yuziga,
Meni sensizlikka chizdi dolg'alar...



NIMAMGA LOZIMSAN SEN BUNDAN KEYIN

Yana yuragimni ovutmas hech ne,
Yana yo'limizga ayriliq tushdi.
Qish kesdi umidning bo'sh eshigini,
Bu savdo yo'liga yomon tegishdi,
Ayriliq so'zini tilimda deyin,
Nimamga lozimsan sen bundan keyin?!

Umidlar yo'l oldi kelgan bahorga,
Solding bu savdoni qiyinga, torga,
Xayolim bosh urdi ko'p uzoqlarga,
Shamollar yellarin berdi dam sayin,
Nimamga lozimsan sen bundan keyin?!

So'ng bahorda sovuq shamollar esdi,
Esgan shamollar ham yo'limni kesdi,
Sendanmi ranjidi, mendanmi qasdi?
Qarayman, sochim oq bo'lar shundayin,
Nimamga lozimsan sen bundan keyin?!

Seni tez o'zgartdi yo'llar, so'qmoqlar,
Qo'llaringni sendan uzdi u chog'lar,
Hasratning rasmini chizibdi tog'lar,
Senli xotiralar tilimda mayin,
Nimamga lozimsan sen bundan keyin?!



UNGA YOLG'ON SO'YLADIM

Unga yolg'on so'yladim,
Seni sevmayman deya.
O'zimni ko'p tig'ladim,
Joniga tegdim nega?

Unga yolg'on so'yladim,
Dedim, mendan yiroq bo'l.
Tushimda kechalari
Bir hasratli so'roq.

Dedim, ket uzoqlarga,
Ko'zim seni ko'rmasin.
Ammo duolar qildim
Oyog'iga tosh tegmasin...

Bu omonsiz sevgimga
Qalbidam hukm berdim.
Faqat ruhim-la uni,
Faqat uni der erdim.

Ehtimol, ko'p kutgandim,
Bir kun keladi deya.
Sovuq xotiramiz-chun,
Men-la bo'ladi deya.

Deganim yolg'onlarning
Yuragiga o'xshadim.
Toriqqan umidlarni
Sevgimga bag'ishladim.

Men uni kutar edim,
Bir kun keladi deya.
Mensiz o'tgan yillarning
Sovuq xotirasini
Men-la bo'ladi deya.

XOTIRA SEN

So'zlaganding – yomg'ir kabi yog'gan menman hayotiga.
Aytgandingki, quyosh kabi tushgan menman sabohiga.

Har kechani, har kunduzning osilganding yoqasiga,
Bir oz-da hasrat qo'shganding sevgimizning uyqusiga...

Bulut-bulut xayollarning ko'z yoshida turgan ham sen,
Orzularning qanotida zamon-zamon engan ham sen...

Yo'qsa, umr vidosisida qishladimi deganlaring?
Balki tersga tushdi yana sevgi nomli tilaklaring?

Ko'p orzular o'tib o'ldi xayolimning ko'prigidan,
Bizga bir xotira qoldi yomg'irning yog'ish sasidan...



SEN YO'QSAN...

Sen yo'qsan...
Har narsa senga o'xshaydi.
Bulut kabi to'lib
Yig'lagan ko'zlar,
Qorong'u kechalar,
So'lg'in kunduzlar,
Cho'zilib ketgan so'qmoqlar, izlar,
Har narsa senga o'xshaydi...

Sen yo'qsan...
Noligan, mahzun boqishlar,
Derazamni chertgan sarin yomg'irlar,
O'qtin-o'qtin esgan dalli shamollar,
Ko'zi yo'lda qolgan tanho chechaklar
Senga o'xshaydi...

Sen yo'qsan...
Hazin nag'masi-la to'kilgan barglar,
Uvushgan og'ochlar, muzday tuproqlar,
Qorong'u har kecha, oydinlik sahar,
Tugagan umidlar, so'lgan tilaklar,
Kim bilar yana nimalar, nelar...
Senga o'xshaydi...

Sen yo'qsan...
Sochlarimga qorlar solgan qo'rquvlar,
Dengiz kabi qabargan g'amgin tuyg'ular,
Kichik bir qizil gulning
Xush atirli ifori,
Kipriklarimga kadar osilgan yolg'izlik uyqusi...
Senga o'xshaydi...



Sen yo'qsan...
Chiqqan quyosh, botgan oy
Jo'shqin dengiz, og'gan soy...
Qayga qarasam,
Sendan menga bir nishon,
Ko'zlarimning o'ngida,
Parda-parda bir ro'yo...
Hech bilmayman, bu dunyo
Nedan senga o'xshaydi?
Nedan senga o'xshaydi?



NABI VA HOJAR DOSTONI

Poema

Qorabog' tuprog'ining tog' Qubodli elida,
O'g'il dunyoga kelar, bir naqlning tilida.

Otini Nabi qo'yib, tezroq o'ssin deydilar,
Nabi ko'p jasur bo'lsin, - xayri-duo berarlar.

Quyosh chiqar bu zamon, Oy xiralanan bu choq,
Saharning zulmatida sochlaringga cho'kar oq.

Nabi oti jasurlik, eranlik nishonasi,
Yoyilgandi har yonga uning mag'rurlik sasi.

El og'asi sevinar Nabining kelishiga,
Bir qurbonlik so'yarlar uning har kulgusiga.

Bu vaqt uning-la birga kentda bir qiz tug'ilar,
Bu qorako'z qizning ham ismi Hojar qo'yilar.

Biri kentning u boshi, biri kentning bu boshi,
Ular bir yoshli kabi bo'lar sinf yo'ldoshi.

Maktabga bir ketarlar, bir yerda o'qiydilar,
Ilmning go'zalligini bir yerda to'qiydilar.

Har ikkisi a'lochi, namunaviy shogirddek,
Sevishganlar maktabda a'lochi, tug'ma do'stdek.

O'sadilar sevinch-la, har kas sevar ularni,
Sevar vatanga bundoq sharaf bergan jonlarni.



Nabi gohida kelar dars uchun Hojar tomon,
Hojar ham bu odatni yashaydir ayni zamon.

Nabiga qardoshlari tez-tez zarofat etar:
“Ko‘zing oydin, ey Nabi, yana Hojaring kelar”.

Hojarga ham qondoshlar aytadilar shu kabi:
“Tur, qarshila, ey Hojar, kelar sevimli Nabi”.

Hech birisi ranjimas qondoshlarning so‘zidan,
Sevinar yuraklari, sevinch oqar ko‘zidan.

Bunday zarofatlarga yarashar har ikkisi,
Ham maktabning, ham elning bo‘larlar sevimlisi.

Bir partada o‘tirib, birga yoshga to‘larlar,
O‘zlari ham bilmasdan, ko‘p yaqin do‘st bo‘larlar.

O‘rganar bir-biriga, qalbi bir, so‘zlari bir,
Urgan yuraklari-la, juft boqqan ko‘zlari bir.

Vaqt o‘tar, zamon kechar bu tug‘malik totida,
Parvoz etarlar birga orzular qanotida.

Har ikki qadrli yosh borurlar yosh chog‘iga,
Sajda etarlar har on vatanning tuprog‘iga.

Yoshlikning bulog‘idan birlikda suv icharlar,
Sevgi nomli dunyoning ko‘prigidan kecharlar.

Yaralar har birining qalbida ishq uyasi,
Bu ishqqa hamdam bo‘lar qondoshlarning duosi.

Vidolashib maktab-la, juftlik Bokuga kelar,
Yuraklarida orzu, istak ko‘kka yuksalar.

Nabi o‘z orzusi-la harbiy maktabga ketar,
Hojar esa hakimlik orzusiga tez yetar.

Dunyoning xushbaxtiday sevinar har ikkisi,
Tilga kelar ko‘ngilda qurganlari – sevgisi.

Nabi ila Hojarning qurilar to‘y tadbiri,
Bo‘lurlar bir-birining ko‘p istakli, tan yori.

Bu sevgidan dunyoga kelar bir o‘g‘il, bir qiz,
Ularga bu tug‘malik sharaf keltirar yolg‘iz.

O‘g‘ilga Nabi ismi, qizga Hojar otini
Qo‘yaroq yashadilar bu ishqning sof ontini.

*Xalqimizning ko‘p go‘zal odat-an‘anasi bor,
Qahramon o‘g‘illarga botirdek boqar ular.*

*O‘tganning yo‘llaringni dostonga do‘ndirarlar,
Ulardan seva-seva har on suhbat etarlar.*

*Bu sevgidan yaralgan “Go‘ro‘g‘li”, “Qochoq Nabi”,
Kelajak nasllarga yetkazurlar birma-bir.*

*Bu xalq unuta bilmas “Dada Qo‘rqut” aslini,
Bu shajar uzra tanir xalq qahramon o‘g‘lini.*

*Xalqning sevgisi buyuk botir o‘g‘illariga,
Ehtirom-la yod etar, ehtiyoj tuyar bunga.*

*Tarixning xotiridir bunday botirlarimiz,
Ularni biz faxr-la sevganmiz har birimiz.*

*Shoh Ismoil Xatoyi, Bobak kabi qahramon,
Bu xalqning yuragida yashagaydir har zamon!*



To'ldirdi har bir yonni bu zamon qora xabar,
Yana dushman hiylasi, yana ham urush badtar.

Armani vahshiylari Qorabog'ni istaydi,
Rus shovinst do'stidan yana ko'mak tilaydi.

"Buyuk bir Armaniston" yaratmoqdir niyati,
Ketar ikki asrdir g'ayriturk siyosati.

Ming to'qqiz yuz to'qsonning yigirma yanvar kuni,
Tarixning qon xotiri, millatning yig'lar kuni.

Millat oyoqqa qalqib, kech bo'lsa-da uyg'ongan,
Ozodlikning yo'lida o'limi-la tayangan.

Ko'ziga qo'ymoq uchun bu ozodlik orzusini
Xalqimning qonin to'kdi kechmish Sovet O'rdu.

Shaxsiy g'addorlik ila omonsizlik etaroq,
Xalqimning tepasiga tanklarini solaroq,

Qonga bo'yadi xalqni, tug'ma aziz Bokuni,
Hech kimga rahm etmasdan, ezib to'kdi qonini.

Qadoq qo'lli xalqimning ustidan tanklar o'tdi,
Xalqim qo'rqmadi, faqat ozodligini kutdi.

Har yonda yaralilar, bor inson jasadlari,
Milyon-milyon insonning darz ketgandi qalblari.

Yana ham imperiya turk qoniga chanqagan,
Bu xalqning g'ayratini oyoq ostiga olgan.

Lekin xalqning birligi kuch kelgandi jallodga,
Yo'q dedi asoratga, yo'q dedi istibdodga.

Yo'q dedi imperiyaning chirkin amaliga xalq -
Bu orzuning qoshida turdi Haqiqat va Haq.

Xalq, qoni hisobiga ozodligiga yetdi,
Manfur rus imperiyasin orzusiga tosh otdi.

Yetmish yillik asirlikning qirildi zanjirlari,
Aniq bo'ldi har kimga rus xalqi amallari.

Dono xalqim oxiri haqin tanib uyg'ondi,
Mustaqillik otini o'limi-la qozondi.

Chirkin amallaridan to'ymagan rus millati -
Turklarga o'lim ishq bo'ldi yolg'iz hislati.

Ishg'olchilik etaroq birlashib armani-la,
Qorabog'ni zabt etar ming turli hiylasi-la.

Yangidan Qoraboqqa tishlarini sanchdilar,
Necha yillik Qorabog' hasratini yanchdilar.

Bu manfur niyatidan chekinmagan armani,
Qorabog'ni o'ziga sanar tug'ma vatani.

Haydaladi har yerda bu yerning vatantoshi,
Boshlanar Qorabog'da hayot-mamot kurashi.

Vatanning o'g'illari qalqar oyoqqa bu on,
Tilida shior bo'lar "Qorabog' Ozarbayjon!"

Yurtidan-uyasidan olisga tushar ellar,
Qochqin-ko'chkin otida qonga do'nar ko'ngillar.





*Qurollanar armani ruslarning ko'magi-la,
Dadillashar yana ham shoviniist hiylasi-la.*

*Turk qonidan to'ymagan rus-armani xislati,
Chirkin amallaridan chekinmaydilar qattiq.*

*Toq qolar Ozarbayjon, yuragi qon-la to'lar.
Yana ham parchalanar, yana ham ishg'ol bo'lar.*

*Vaqtida imzolangan "Turkmansoy", "Guliston"i,
Necha yerga bo'lgandir yagona Ozarbayjoni.*

*Parchaladi bu imzo tarixiy tuproqlarni,
Qo'ridi vatanimga u dushman g'addorlarni.*

*Yurakni ikki yerga bo'ldilar bir kechada,
Qassobdek qon ichmoqdan to'ymadilar necha-da.*

*Bu qadar zulm etdilar Ozarbayjon turkiga,
Faqat Oraz yig'ladi vatanning bu kuniga.*

*So'ngra-da boshladilar ko'chirilmoq ishini,
Asta-sekin vatanga botirdilar tishini.*

*Tarixiy tuproqlarga ommaviy ko'chish keldi,
Bu ko'chishlar vatanning yuragiga tosh soldi.*

*Ko'chirildi armani Erondan Naxchivonga,
Qorabog'ga, so'ngra-da, u qadim Irevonga.*

*Manfur dushmanning ko'ki u zamondan qo'yildi,
Buning bilan vatanning ko'zi har on o'yildi.*

*Dushman yer aylagancha vatanimni o'ziga,
Turkka dushman qo'shildi, tog' bosdilar ko'ziga.*

*Qirdilar, mahv etdilar Ozarbayjon turkini,
Ota-bobo yurtidan chiqardilar ko'chini.*

*Bu ko'ch da'vam etildi 20-dan 65-ga,
Stalinizm davridan qo'l qo'yildi bu ishga.*

*Ilon o'rlagan yerlar, Kur-Oraz yassiligi,
Chizdi go'rtoshlarimga tog' ustidan bir tog'ni.*

*Bo'ldi sakson sakkizda so'ng "tozalamoq" ishi,
Yuraklarni tig'ladi zamonning bu gardishi.*

*Bir nafar turk qolmadi tug'ma Irevonimda,
Qochqin-ko'chkin tushdilar o'z tug'ma yurtlaridan.*

*Tishlarin g'ichirlatar shoviniist Imperiya,
Kelmadi biror kimsa vatanim chun oraga.*

*Jo'shqinlashmish vahshiydek armani hayvonlari,
Soldilar cho'lga-tuzga bechora insonlarni.*

*U qilvir armanilar bosh kesgan jallod kabi,
Bo'ldi Irevonimni, bo'ldi g'addor raqibi.*

*So'ngra ham Qorabog'ga tishlarini siqadi,
"Buyuk Armaniston"ni yaratmoqdir murodi.*

*Ammo bu murodini kam qildi botirlarim,
Qorabog' qarshisida oyoqqa turdi erlarim.*





Ko'char Mingechevirga Nabi oilasi-la,
Ular-da xayrlashib qaytar muhorabaga.

Harbiylardek otilar u ko'ngilli qo'shinga,
Dushman larzaga kelar, tushar yomon tashvishga.

Nabining jasorati kezar tillardan-tilga,
Jasur qo'mondon kabi taniladi tezlikda.

Qahramonlik ko'rsatib, jang qilar bir necha yil,
Ezar dushmanning boshin, ularni etar zalil.

Janggohlarning birida Nabi qahramon kabi,
Shahidlik zirvasining bo'lar botir sohibi.

Dafn etilar Bokuda, Shahidlar Xiyobonida.
Dafn etilar uni sevgan ko'ngillar sultonida.

Tez-tez Mingechevirdan bolalari keladilar.
Nabining mozorini ziyorat qiladilar.

*Nabining ko'zlarida chag'illardi bulutlar,
Qasos olmoqdan o'tru g'azablendi u kibor.*

*Boqqancha qabrlarga yuraklari dog'lanar,
Dushmanga nafrat hissi qalbida olovlanar.*

*Ko'r necha ona-singil, qardosh-o'g'ilsiz qolmish,
Necha oila boshsiz, o'choq so'nib kul bo'lmish.*

*Ko'zlari yo'lda qolgan necha go'dak otasiz,
Necha unashtirilgan kuyov qoldi to'ysiz-bazmsiz.*



*Kesardi bu og'riqlar qalbini pichoq kabi,
Nafratidan yonardi yuragi o'choq kabi.*

*Dushman qoshida o'zni bir onda his ayladi,
"Bu qon yerda qolmasin" - o'z-o'ziga so'yladi.*

*Nabining ko'zlarida qasos hissi yonardi,
Vatanga muhabbati ichdan olovlanardi.*

*Boqqancha otasining u mag'rur boqishiga,
Singlisining ko'zidan oqqan g'am yig'isiga.*

*Harbiy bo'lmoq ishq, jabhaga ketmoq ishq,
O'tdi darhol ko'nglidan tezroq ulg'aymoq ishq.*

*Boqdilar, sayr etdilar shahidlarning qabrini,
Har shahidning qabridan topdilar o'z sabrini.*

*Bu sabrning ichida intiqom, qasos hissi,
Tug'ilgan tuproqlarning qichqiriq, na'ra sasi.*

Oradan yillar kechar, ulg'ayar bolalari,
Ulg'ayar usiz qolgan ko'ngilning nolalari.

Har ikki opa-qardosh oliy maktabga kelar,
Qalbida orzu-tilak go'yo ko'kka yuksalar.

Nabi harbiy sohani, hakimlik tanlar Hojar,
Ko'p yuksak bal-la ular qabuldan oson o'tar.

Nabi harbiyga ketar, jon-u bosh-la kurashar,
Vatanga xizmatiga tug'malikdan olishar.





U harbiy xizmatni ortiq boshga urgandi,
Vatanning sarhadida layoqat-la turgandi.

Uning askar qalbida ota yurtning ishg'oli,
Ko'zida bolalikning ketmagan hasrat seli...

Parchalangan umidi, parchalangan orzusi,
Ham shahid otasining, ham tuprog'in qasosi.

Ne rohat, yuragida bu azob yashar edi,
Og'riqni o'g'il kabi yelkada tashir edi.

Vatan urushlarining botir o'g'illarini,
Hammasini barobar bilardi otlarini.

"Avval Vatandir" deya jang qilgan qahramonlar,
Shahidlik zirvasiga sharaf-la erishganlar.

Maqsadlari vatandir, tuproqdir, ham onadir!
Bu vatan bir yondadir, ular ham bir yondadir.

"Yuragimcha olmasam qasosimni dushmandan,
Kechirmas hech on meni na onam, na-da vatan.

Ishg'ol ostida bo'lgan vatan tuproqlarining,
Lolali dalalarning, bo'yni bukik tog'larning

Na'rasini eshitib, chiday olmayman ohdan,
Ketarman yov ustiga, umid yolg'iz Allohdan".

Bu so'zlarni so'ylagan afsonaviy qahramon,
Ismi tillar dostoni, jasur Muboriz o'g'lon.

U kechaning yarmisi tark etaroq hissini,
Bor kuchi-la o'chirar armani quvvatini.

Yoprilar shamol kabi dushman ustiga bir on,
Minali sarhadlarni kechar u tayanmasdan.

Ko'zlarida do'ndirar vaqtni ham, zamonn ham,
Vaqtini bekor bermas, o'tkazmas bir onni ham.

Yiqar turkning qoniga chanqagan armanini,
Tug'ilgan tuproqlarda anqigan armanini.

O'limning ko'zlariga tik boqqan Muborizim,
Qahramonlik timsolim, eran, botirlik ramzim.

Ko'rsatar dushmanlarga sohib kim bo'lganini,
Bu tuproqda sir kabi o'g'il tug'ilganini.

Qo'rquv ichida qolgan dushman bir onlik o'char,
Og'zida tili osiq, oyoqlari chalkashar.

Bir onlik o'ylarlarki, qo'shin kelar taqa-tuq,
Boqaroq har tarafga, ko'rarlarki, qo'shin yo'q?

Faqat bir turk askari ularni qirib to'kar,
Kun-fayakun etgani harbiy hisga tom cho'kar.

Bunday bir jasoratga dushman tamom mot qolar,
Qarshisida askarni toq ko'rganda seskanar.

Ular turk askarining kim bo'lganin ko'rarlar,
Bu zulmga o'ksinib, ichkin-ichkin yonarlar.

Tizzasiga cho'kdilar bu hayratning ichida
Aridilar vatanga sadoqatning ichida.

Muboriz Ibrohimov jasoratning o'rnagi,
Uning vatan sevgisi - g'ururu o'lmaslikning.





*Yoyildi vatanimda, butun turk dunyosinda
Muborizlik maktabi yashayapti har yonda.*

*Rembo ismi berildi bu mag'rur yigitimga,
Jasurlik obidasi yuksaldi shahidimga.*

*Kelajak nasllarga Muboriz unvon bo'ldi,
Tarixning xotirida buyuk qahramon bo'ldi.*

*Muboriz botirligi Nabini ruhlantirar,
Uning-la faxr etaroq, bu yo'lda jon yondirar.*

*Nabi yuksak rutbali bir harbiychi bo'lgandi,
Otasiday baland bo'y, qaynoq qonga to'lgandi.*

*Har kun der edi, koshki boshlansa urush, talosh,
Qarshimda tob berolmas na-da qoya, na-da tosh.*

*Otilaman maydonga, dushmanning nafasini,
Kesaman u og'zining Irevonda sasini.*

*Olaman Qorabog'ni, Qubodlining qasosin,
Borib Shushaga qadar, to'kaman dushman qonin.*

*Rohat tura bilmasdi armani, qon ichganlar,
To'ymasdan qonimizga, bizni har kun bichganlar.*

*Sahar-sahar yoyilar har yonga qora xabar,
Tovuzni tutibdilar otashga armanilar.*

*Askarlar orasida bor ko'plab yaralilar,
Dushmanga javob berib, shahid bo'lgan o'g'illar.*



*Bu onda bir xabar ham berildi xalqqa birdan,
Hamma oyoqqa qalqdi, hayqirdi hamma yerdan.*

*Xalqning general o'g'li Po'lat Najimov shahid,
"Qonin yerda qo'yasmiz, o'lmas bunday bir yigit".*

*Butun o'lka qorishdi, hamma Po'lat so'yladi,
Oliy Bosh qo'mondonga bizga amr eting, dedi.*

*Po'lat po'lat viqorli, ko'p temir irodali,
Harbiy kuch, savodi-la ketgan oldinga g'olib.*

*Vatanga bo'lgan sevgi, sevgiga bo'lgan ishonch,
Po'latni po'lat kabi yetishtirgan komil, shon.*

*Siynasin qalqon etdi Aprel janggohlarida,
Qahramonlik bor uning turk qonida, genida.*

*Askar kabi sevilib, qo'mondon ham yuksaldi,
Asl harbiychi kabi general otin oldi.*

*Yuksalguncha shunchalik bo'ldi bosh yuksak chog'i,
Yuksaklarga ko'tardi shonli vatan bayrog'in.*

*Armani vahshiylari Tovuzga to'p otganda,
Po'lat General kabi tinch turmadi bir on-da.*

*Munosib javob berdi qo'shini-la dushmanga,
Jonin qurbon ayladi tug'ma aziz vatanga.*

*General shahid kabi sas soldi bu oti-la,
Vatanga sevgi bergan ozodlik murodi-la.*

*Bu jasorat hunari xalqni uyg'otdi u kun,
Qo'shildi butun yoshlar, qo'shin bo'y otdi u kun.*





* * *

Erk kurashin istadi xalq oyoqqa turaroq,
O'g'illar qasos dedi izdihomni yoraroq.

Navbat ila otlari yozildi siyohiga,
Har kas qo'shildi birga bu muqaddas na'raga.

Hozir edi janglarga Nabi harbiychi kabi,
Yurakdan sevinardi jasur bir jangchi kabi.

Ozod bo'lajak edi ishg'oldagi tuproqlar,
Necha yillik hasratga so'ng qo'yar edi ular.

Rutbali zobit kabi, Xususiy Tayinlovda,
Nabi tamkinli edi har yerda, har bir holda.

*April kurashlarining jasur, qahramon o'g'li,
Obudalining sevilgan, jasur, elomon o'g'li,*

*Mais Barxumorovday, jasur General mayyor,
Vatan sevgisi azal kundan unga bo'ldi yor.*

*Lolatepa dashtida ketgan janggohlarda u,
Tank ustida ketgandi birinisi safda u.*

*Askarlar generalning bu qo'rqmas turishidan,
Ilhom olardi go'yo qilgani har ishidan.*

*April urushlarning rahbarlaridan biri,
Ona Vatan urushining mukammal komandiri.*

*Azamat, viqor hissi Hikmat Mirzayevning-da,
Ichdan ildiz otgandi uning sof ko'zlarida.*



*Ismi xalqning qalbida, Shusha fotihi kabi,
Vatan ishqiy yuksaldi, bo'ldi xalqning matlabi.*

*Bunday generallarning Nabi ila ko'rishi,
Nabiga qanot berdi, sevdirdi bu kurashni.*

*Nabining hunaridan har ikkisi xabardor,
Unga kurash yo'lida ayladilar e'tibor.*

*Bundaylik-la, Nabi ham Maxfiy tayinotlarda
Birlasharoq janglarga otildi og'ir onda.*

*Sevinaroq ketardi kurashlarning oldida,
Bu mardning hunarini har kas oydin ko'rdi-da.*

*Necha yil ishg'ol osti ingragan tuproqlarning,
Hasratdan ko'zlarida yosh to'lgan insonlarning.*

*Oh-nolasi qolgandi har tog'da, har darada,
Ularni ham tushundi Nabi bu vaqt, bu yerda.*

*Nabini har kas sevar, bu shavkat, shoni ila,
Hatto Hikmat Mirzayev ko'rishgandi uning-la.*

*Opasi Hojar hakim orqa jabhada edi,
Har kun og'ir xastalar, yaradorlar kelardi.*

*O'limdan qutqarardi ba'zan og'ir xastani,
Yotmasdi butun kuni, tinchitmasdi kechani.*

*Tez-tez so'zlashardi u qardoshi Nabi ila,
Unga tayanch bo'lardi xush so'zli tilagi-la.*

*Vatan tuproqlarida buyuk urush ketardi,
Har kun tumanlar, kentlar, yer ozod etilardi.*





Har kun shahid xabari, o'lim ila yuz-yuzga,
Zafarimiz yo'lida ketardi muboriza.

Ortiq ozod bo'lgandi Fuzuliy, Suqovushan,
Jabroil-la Qubodli, bir-da go'zal Zangilan.

Har kun o'lka boshchisi xabarlarini berganda,
Jasur o'g'illarimiz tuproq ozod etganda.

Farahlanar, sevinar, hamma oyoqqa turar,
Ozodlikning ishq-la dillar hamohang urar.

Aqdamning, Oqdaraning olingani xabari,
Tarqaladi bir onda, qoplaydi har bir yerni.

Hatto xorijda bo'lgan qabrtoshlar sevinar,
Hamma bu shod xabarni xush gapirar, xush ko'rar.

Noyabrning 20-si Aqdam olingan kuni,
Hamma bayram ayladi go'yo shodlik to'yini.

Qalbajar, Lochin haqda gap-u so'zlar ketardi,
Bu tumanlar kurashsiz ozod etilar edi.

Quolsiz, jang qilmasdan olinarkan bu yerlar,
Qahramon O'rdumizga sokin in'om berdilar.

Aqdam, Lochin, Qalbajar qutilgandi ishg'oldan,
Qutilgandi u zolim dushmanning changalidan.

Asir tushgan Xojalim, Xonkentim, Xo'jabandim,
Madaniyat beshigi Shushadir jon dilbandim.

Ularni olmoq uchun dastalandi o'g'illar,
Yana ham amr keldi, tayaning dedi ular.

Bu xabardan ma'yuslik tuysa ham ul jangchilar,
Faqat jangning amriga ular tayyor edilal.

Armanilar yana ham hiylaga qo'l beraroq,
Lochinga kelgan yo'lda qo'shini-la yotaroq,

Fikrlashdilar yolg'iz yo Qirmizi Bozordan,
Yoki Lochin tarafdan o'tadilar u yerdan.

Tushundilar – boshqa yo'l yo'qdir Shushaga kirmoq,
Bunga aql lozimdir, bir-da ichkin tushunmoq.

Bunday aql sohibi Hikmat Mirzayev edi,
Qoyalar-la Shushaga kirmoq amrini berdi.

Maxfiy Ijroatlarning raisiydi bu botir,
Vatanimning yuragi, nafasiydi bu botir.

Bizning jasur botirlar tez Tosholti tarafdan,
Tik-taqir qoyalarga tirmasharoq har yerdan,

Yoprildi dushman uzra, qo'llarida pichoq-la,
Qiyalsa-da, ketdilar sof piyoda oyoq-la,

Uzun bir yo'l o'taroq, qo'rquv bilmasdan ular
Kesib dushman ustini bir onlik tayandilar.

Bitta ham o'q otmasdan, sokin, jim ilgarilab,
Dushmanning hamlasini tor-u mor, yakun aylab,

Dushman ko'zi berkilmish, mot qolgandi bu ishga,
Bu g'aflatli hujumdan tushgandilar tashvishga.

Endi tanidi ular Ozarbayjon o'g'lini,
Ozarbayjon yigiti isbot etgandi buni.



*Parcha-parcha bo'lgandi dushmanlar pushaymonli,
Ularga bu bosqinlar qolgandi ko'p gumonli.*

*Yotar edi it kabi mayitlari har yonda,
Qolganlari qocharoq, berkingandi inida.*

*Qutilgandi Shushamning joni manfur dushmandan,
Rohat nafas olardi tug'ma bo'lgan bu vatan.*

*Oliy Bosh Qo'mondonning sasi keldi efirdan,
"Shushamiz ham olindi", deya saslandi birdan.*

*Sevinardi xalqimiz, sevinardi har bir kas,
Yoyilgandi har yonga bu vatan na'rali sas.*

*Komandir Mirzayevning kurash amri saslandi,
Hozir bo'ling, bu kecha olinajak Xonkendi,
So'ngra uning ortidan olinadi Xo'javand!*

*Kirgandi Xonkentiga, olingandi yarmisi,
Olinar edi so'ngra Xojalining qasosi.*

*Lekin imkon bermadi "rusning sulhmaromlari",
Yana o'yin o'ynadi imperiya haromlari.*

*Chidamas haqsizlikka botirlarimning qoni,
Yuksak tog'lar osharoq, tez oldilar Shushani.*

*Bu quolsiz dastalar, maxfiy bo'linmalar,
Yoqasidan tutishib, dushmanni jim qildilar.*

*Oldilar Shushamizni Nabimizning dastasi,
Yoyildi har bir yonga g'alabaning so'ng sasi.*

*Shusha hibssonasi...
Bor bunda necha mahbus.
Necha o'lim kursisi,
Necha umrdan afsus.*

*O'z tug'ma tuprog'ida,
Yovuz dushman qo'lida,
Necha yildir sevgani
Vatan so'zi tilida.*

*Nabi o'z dastasi-la
Ochar mahbusxonani.
Ochar yurak og'riqdan
O'lim isli zindonni.*

*Ichkarida yetti nafar
Keksayib eldan tushgan,
Keksa jangchilar edi,
Har birisi qahramon,
Har birisi er edi.*

*Birinchi urush payti
Asir tushgan botirlar.
Har kun jon bera-bera,
Har kun o'lgan botirlar.*

*Nechasi halok bo'lib,
Vidolashgan hayot-la.
Nechasin sog' obormish
Dushman ko'p ehtiyot-la.
Nabi ularni tutar
So'roq-savolga bir-bir,
Qaydan, kim bo'lganlari
Haqda xabar o'rganar.*

Bir kekxa, kuch qolgan
Mahbusning oti Nabi,
Yo'ldoshin oti Hojar,
O'g'lining oti Nabi.

So'rashganda so'ylaydi,
"Qubodlidanman, o'g'il,
Molli qishlog'idanman,
Asli u yerdanman, o'g'il".

Eshitarkan, Nabining yuragi titrar zir-zir,
Bo'la bilmas bu qadar inson sog' qolsa asir.

Bu otasidir uning, o'lmasdan sog' qolibdi,
Otasining yeriga kimsa shahid bo'libdi.

Hatto qabrin ustiga yozilgan sharifi, oti,
Asir bo'lgan bu ota tashirdi shahid otin.

Otilar otasining ustiga darhol yonib –
Quchib, o'pib sevadi qomatini, bo'yini.

Ota-bola sevinar bu g'alati ko'rishga,
Yonidagi do'stlar ham lol qolgandir bu ishga.

Topshirar mahbuslarni harbiychi yo'ldoshlarga,
Tez oboring ularni, topshiring qardoshlarga.

Otaning vaziyati bu on ko'p keskinlashar,
Eshitgani xabardan holi bir ozcha tushkunlashar.

Ishonmas – qarshisida uning o'g'lidir turgan,
Ishonmas siynasida yuragidir sog' urgan.

*Xabar topar bu ishdan Hikmat Mirzayev bu on,
Darhol chorasin ko'rar, zoye ketmasdan zamon.*

*Zang etaroq Nabiga, Bokuga ketmoq uchun,
Ijzat berar unga dardiga yetmoq uchun.*

*Otasin obormoqqa vertolyot yuborar,
Bu borada Nabiga darhol xabar ham berar.*

*Bundaylik-la, Nabini Bokuga keltirarlar,
Xastaxonaga uni darhol joylashtirarlar.*

Sog'aymog'iga uning ko'p oz bir umid qolgan,
Umrning ko'pi ketgan, asirlikda chol bo'lgan.

Opasiga xabarni yuborar ehtiyot-la,
Talashar bunda zamon, daqiqa-la, soat-la.

*Hakimlar ham barobar ko'rsatar qulluq anga,
Ko'pdandir hasrat qolgan sevimli otasiga.*

*Hozirdir o'g'il kabi jonidan jon bermoqqa,
Allohga duo etar unga ko'mak etmoqqa.*

*Otasiga sevarroq qullik qiladi Nabi,
Xush orzu, xush so'zlarni unga so'zlaydi Nabi.*

*O, ota sevinchini yashaydi ko'p g'urur-la,
Otasi bu sevinchni yori bo'lar uning-la.*

*Quchoqlaydi boshini siynasiga siqaroq,
Ota-o'g'il sevinch-la bir-biriga boqaroq.*

*Otaning sog'lig'i kun-kundan yaxshilanar,
Har kas bu xush kun uchun ko'plab duolar aylar...*

O'g'il Nabi uylanib, qiz Hojar erga teggan,
Nabi o'g'liga Nabi, qizga Hojar otin bergan.
Shu taxlit momolar ham ota-bobo otini
Saqlagandi har biri tug'ma ot, ajdodini.

Ayni sanad, ayni ot
Yozilar ularga ham
Umrlarida, hayhot...

Ota Nabi bu og'ir xastalikdan tuzalar,
Har kasning ko'magi-la ortiq oyoqqa qalqar.

O'g'il fikrlasharki, otasi sog' bo'libdi,
Onani keltirmasdan ortiq vaqti o'tibdi.

O'g'il tez onasining boshin-ustin kiydirar,
Uni bu mujda uchun obormoqqa urinar.

"Ona, ey, ona, senga go'zal bir xabarim bor,
Ammo hech ne so'rama, har ne borganda bo'lar.

Kiyimni go'zal kiying, birga ketsak mening-la,
Unutib g'am-kadarni, o'ynab kulsak mening-la".

Keltirar onasini otasi-la ko'rishga,
Butun qo'shni-aqrabo sevinarlar bu ishga.

Xastaxonaga kirgan, ona bir onlik shoshar,
Xayollari ko'p bo'lgan kechmishida to'lishar.

Nabi sevingan holda onasiga yuz tutar,
Qalbida yashatgani ota dardin unutar...

Boshiga kelganlarni gapirar onasiga,
Go'yo bir hayot berar gul yuzli chehrasiga.

Ona ishona bilmas kelib yor mujdasiga,
Necha yillik hasratning, sevgining sajdasiga.

Ko'zlariga ishonmas, u yigit Nabisidan
Bir asorat qolmagan uning go'zal tanidan.

Yana ham ishonmasdan ko'p taraddud aylaydi,
Nabi ko'p jasorat-la unga shunday so'ylaydi:

"Der edingki, ne zamon o'tsa, seni topaman,
Bo'yningdagi xolingdan seni tanib olaman".

Hojarning ko'zlaridan yosh sel kabi oqardi,
Necha yillik hasratning ko'zlariga boqardi.

Allohiga shukr etib, tushar oyoqlariga,
Ko'z yoshlari-la boqar bo'ynidagi xoliga.

Sevinchdan qichqiraroq, bizning Nabidir, deydi,
Qoshida tiz cho'karoq, unga sajda aylaydi.

"Tushimga ko'p kirarding, tirikliging bilardim,
Go'yo har kun, har kecha yo'llaringga qarardim.

Ishonmasdim, u shahid mozori sening edi,
Go'yo yot bir insonning bo'lgani ayon edi.

Faxr etib, ishongandim shahid bo'libsan, deya,
Termulardi yo'llarga faqat ko'zlarim, nega...

O'ttiz yildir men seni shahid kabi bilsam-da,
Gizli-gizli yig'lashib, gizli-gizli o'lsam-da...

Bilardimki, hislarim, tushim yolg'on emasdir,
Mening Nabim sog'emish, mening Nabim o'lmasdir.

Yana bermasman seni, bil, o'limning qo'liga,
Botmagaymiz hech zamon g'am-kadarning seliga.

Yana qo'rqma o'limdan, men o'lguncha qulingman,
Yana o'sha Hojaring, yana o'sha gulingman.

Momo Nabi-la Hojar to'lg'onarlar boshiga,
Otaning ko'z yoshlari qorishar ko'z yoshiga.

Allohiga yuz tutib bu xushbaxt kuni uchun,
Ota duo aylaydi ularga boqib har kun.

Ne yaxshiki, o'lmadim, bu kunlarni ham ko'rdim,
Avlodlarimning bu kun shirin totini totdim.

O'g'lim Nabi-la qizim Hojarning avlodlari,
Nabi, Hojar otining bo'ldilar men-la yori.

Moshalloh, ulg'aydilar ular ham bizning kabi,
Bo'larlar bu naslning bosh toji, bosh sohibi.

Ota Nabi haqliydi aytgani har so'zida,
O'g'il, qiz, nabiralar bir dunyodir ko'zida.

Har biri Hojar edi, har biri Nabi edi,
Sanadlari ham ayni, oti ham ayni edi.

Bu hayronlik ichida bobo Nabi-la Hojar
Yashadilar bir muddat, yashadilar bexatar.

Ortiq nabiralar ham oliy tahsil olardi,
Ularning har birisi shul Bokuda qolardi.

Qarigandi bobo ham, qarigandi momo ham,
Bu keksalikdan boqib, faxr etarlar yana ham.

Ortiq bobo-la momo nabira to'yin istar,
Chaqirib o'g'lin, qizin bir maslahat qilishar.

Ota-o'g'il Nabilar, ona Hojar, qiz Hojar,
O'tirurlar yuzma-yuz, ochilar sof yuraklar.

Ota Nabi boshlaydi so'zini ko'p ohang-la,
Momo Hojar bu so'zga naqsh berar ming rang-la.

Ey bola, nabira to'yin istaydi yuragimiz,
Yana Allohdan bizning yo'q boshqa tilagimiz.

Ko'p shukur, nabiralar bo'yga-boshga yetdilar,
Uylanmoq vaqtlaridir, ortiq yoshga yetdilar.

Ko'nglimizdan kecharki, ularni uylantirsak,
Bibiqiz, tog'a o'g'lin bir yerda xushbaxt etsak.

Roziligin olsaydik - to'ylarini qilardik,
Bizlar ham bu dunyodan rohat bo'lib ketardik.

Har ikki opa qardosh bu so'zdan xushhol bo'lar,
Yuraklari ochilar, ko'zlar sevinchga to'lar.

Dema Nabi-la Hojar bir-birini sevarlar,
Faqat ota-onadan bularni gizlardilar.

Xayr-u duosin etib tog'ao'g'li, bibiqizning,
Shamini yondirilar bir juft yorqin yulduzning.

Shukr etar Yaratganga, shukr etar volidaynlar,
Tolening xush kuniga yurakdan sevinarlar.

Hayot berar ularga avlodlarning sevgisi,
Yoyilar har bir yonga bu tolening xush sasi.

Nabira Nabi, Hojar xushbaxt hayot qurarlar,
Ota Nabi-la Hojar umrni boshga qo'yarlar.

Bu yerda so'ngga yetar bizning ham dostonimiz,
Qo'y, baxtiyor yashasin butun yosh jonlarimiz!



V BO'LIM

E'tiroflar

Yasha, Vatan qizi, Xuramanim!
O'sha qizlarning saralangan qizi!
Ona degin, o'g'li shahid onalarga.
Endi sen ularga o'g'il o'rnidasan.
Sen ona de, onalarga!



YASHA SEN, XURAMANIM!

*Shahid oilalarini va jangchilarni bepul davolayotgan
"Milan" kasalxonasiga, uning rahbari
Xuraman xonim Muradovaga*

Janglarda halok bo'lgan, pok bo'lgan shahidlarim!
Tuproq deb, tuproq bo'lgan shahidlarim!
Sizdan bizga omonatdir, sizga degan g'ozilarim!
Har biringiz mening she'rim, so'zlarim,
Ham asarlarim, tariximga yangi tarix yozganlarim!
Qarobog' partizanlarim!
Qayda qalqdi, shu yerda biz haq, adolatni ko'rdik.
Bu Oliy Bosh qo'mondonning o'z nomi, o'z imzosidir.
O'sha xandaqdan boshlangan edi Ozarbayjon davri!
Siz, ey shahid onalari, opalarim!
Ketganlarning omonati – og'riqlarim, azoblarim.
Yasha, Vatan qizi, Xuramanim!
O'sha qizlarning saralangan qizi!
Ona degin, o'g'li shahid onalarga.
Endi sen ularga o'g'il o'rnidasan.
Sen ona de, onalarga!

Narimon HASANZODA,
Ozarbayjon Xalq shoiri

XURAMAN XONIMNING BUYUK QALBI...

Xuraman Muradovaning faoliyati ko'p qirrali. U xayriya ishlarida keng ishtirok etadi, ajoyib tashkilotchi va o'z qo'llari, iste'dodi bilan yaratgan taniqli "MILAN HOSPITAL" klinikasining rahbaridir. Xuraman xonim klinikasida Vatanimizni, aziz Ozarbayjonimizni himoya qilgan, janglarda jarahatlangan askarlarimiz, faxriylarimizning sog'lig'iga bepul g'amxo'rlik qiladi. Xuraman Muradova o'z xalqiga, ona yurti – Ozarbayjonga xizmat qiladi. Xuraman xonimning nozik shoirona ruhi borligini bilardim, uning she'rlarini o'qiganimdan so'ng esa, haqiqiy professional shoir ekanini angladim. Bu men uchun quvonarli kashfiyot bo'ldi va undan asarlarini menga yuborishini so'radim. Xuraman xonimning qanchalik katta va nozik qalb egasi ekaniga yana bir bor amin bo'ldim. Uning she'rlarining asosiy mavzusi vatanparvarlik, Vatanga xizmat, yosh avlodni Vatanni sevish ruhida tarbiyalashdir. Xuraman xonimning "Mening Shusham" dostoni uning ijodiy cho'qqisi, desam xato bo'lmaydi. Dushmandan ozod qilingan Shushamiz uning ijodida katta o'rin tutadi. Madaniyatimizning yuragi, Ozarbayjon madaniyatining markazi bo'lgan Shushaga bo'lgan sevgisi bilan yozadi. Xuraman xonimning misralarida ko'p nafisliklar bor.

Bu misralar uzoq vaqt xotiralarda qoladi, odam ularni qayta-qayta o'qishni xohlaydi. Chunki bu misralarda har bir so'z yurakdan, tomirlarda oqayotgan qon bilan yozilgan. Muallifning she'rlarida asosan inson, Yaratuvchi, tabiat, hayotga bo'lgan sevgi va muhabbat mavzusi ustunlik qiladi. Ishonchim komilki, Xuraman xonim hayotni juda yaxshi ko'radi, bu uning har bir asarida sezilib turadi va u har bir so'zi, har bir amali bilan atrofidagilarga, yordamga muhtoj har kimga yaxshilik qilishga intiladi. Chunki uning katta yuragi bor va hammaga yaxshilik qilishga harakat qiladi. Shoir va ajoyib inson Xuraman Muradovaga Vatanimiz yo'lida, Ozarbayjon yo'lida sharaflari faoliyatida muvaffaqiyatlar tilayman, unga poeziya olamida uzoq va barakali yo'l tilayman.

Notiq RASULZODA,
Ozarbayjon Xalq yozuvchisi

XURAMAN XONIM BILAN TANISHUV

Ozarbayjonimizda Xuraman xonim Muradova kabi vatanparvar ayollar borligidan faxrlanamiz. Xuraman xonimning adabiy ijodi bilan birga uning faoliyatini ham yuqori baholayman. Ko'plab g'ozilarga, shahid oilalariga Xuraman xonim tomonidan ko'rsatilgan bebaho yordamlari Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasida hamda bizning ijodkorlarni birlashtirgan PEN Klubda muhokama qilganda, har birimiz tomonidan iliq qarshi olindi va olqishlandi.

Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasidan yilda bir marta bir yozuvchiga Humay mukofoti beriladi. Bu yil Humay milliy mukofotiga Xuraman xonim sazovor bo'ldi. "Humay milliy mukofoti"ni Xuraman xonimiga shaxsan o'zim topshirganidan faxrlanamiz.

Adabiy muhitimizda ko'plab iste'dodli insonlar bor. Lekin iste'dodli bo'lish bilan birga, haqiqiy insoniy fazilatlarga ega bo'lish hammaga nasib qilavermaydi. Xuraman xonim eng yuqori fazilatlarni o'zida mujassam etgan. Mening uchun Xuraman xonimni tanish chin ma'noda go'zal voqea bo'ldi. Ko'p imkoniyatlarga ega bo'lib, lekin hech kimga yordam bermaydigan insonlarni bilamiz. Lekin Xuraman xonimiga barcha narsa halol bo'lsin, u imkoniyati yetganicha odamlarga yordam

beradi. Bu qadar xayrli ishlar qilish uning iste'do-
diga kuch va ulug'vorlik bag'ishlaydi.

Samimiyat bilan aytishim kerakki, bunday
go'zal va yosh ayolning 7 nafar nabirasi bor. U ij-
timoiy-madaniy muhitda samarali ishlar qilish bi-
lan birga katta oilasini ham boshqaradi va 7 nafar
nabirasi uchun g'amxo'rlik qiladi.

U shoira, yozuvchi, publitsist va xayrixoh in-
son sifatida juda katta va yorqin faoliyatga ega.
Xuraman xonimga sog'lik va ijodiy muvaffaqi-
yatlar tilayman! Inshaalloh, 7 nafar nabirasining
baxtli kunlarini ko'rsin va biz ham nabiralarining
to'yida ishtirok etaylik.

Chingiz ABDULLAYEV,
Ozarbajjon Xalq yozuvchisi

SENGA MAKTUB YOZAMAN

*Ezgu, xayrli amallar sohibi, go'zal qalb egasi,
shoira opam Xuraman xonimning
"Senga maktub yozaman" she'ri va qo'shig'ining
ta'sirida qalamga olingan*

Senga maktub yozaman –
Yuragimda
to'lib-toshgan,
Insonlarga yarashgan,
Mustahkam tamaldan,
Xayrixoh amaldan –Yozaman.

Eldan-yurtdan,
Dengizdan, havodan,
Yerdan, ko'kdan,
Ko'p-ko'pdan –
Yozaman.

Barcha yozganlarim,
Yurak orzularim,
So'zimning rosti,
Baland-u pasti,
Senga qarshi tuyg'ularim,
Hurmatim, ehtiromlarimni –
Talabdan, zaruratdan,
Sevib-sevib, yurakdan –
Yozaman.

Yozamanki, hayot tasodiflar bilan to'la,
Ba'zida bu tasodif yaxshi niyatning bir qo'li,
Bunday tasodiflar ko'plarining taqdir yo'li.
Bu yo'l kimining taqdiriga baxt,
Kimiga azob-uqubat,
Kimiga taxt-to'ntarish olib keladi.
Mening taqdirimga esa
Sening kabi Allohning odami,
Imonli bir opa yetadi.

Senga maktub yozaman –
Osmondan tushgan malaksan,
Minglab insonga tayanchsan,
Umidsan, keraklisan,
Jisming bo'yida yuraksan,
Yozaman, buni ham yozaman...

Senga maktub yozaman –
Biroz og'riq va azobim bor,
E'tiborga, g'am-g'ussaga ehtiyoj bor.
Yaxshi bilaman, qayerda yordamim bor,
Chunki meni bir qarashdan tanigan,
Holimga yurakdan yongan,
Shifokorim, tabibim – aziz opam bor.

Senga maktub yozaman –
Qomating "Qiz qal'asi"
Yurishing, turishing bek bolasi,
Har bir so'zing asal kabi – ona allasi...

Bu dunyoda mendan, sendan nima qoladi –
Bir qozonilgan amal, nom,
Hamda aziz opam, Xudodan yordam...

Yozgan ushbu maktubim
"Boz Ot"ning belida,

"Oynali" qo'limda,
Turna telida,
"Lochin" mahalida,
"Lochin" elida
Rahmatli Muhabbatimning
"Lochinim" qo'shig'i tilimda
Mamnun, xotirjam
O'zim senga olib kelaman...

Bu xatning oxirini
Qoralashgan tog'larning tepasida,
Qoya va toshlarda,
Hayotimning bu qari yoshida,
Qaynar, sovuq buloqlarning boshida,
"Hakari"ning shivir-shivir tovushi,
"Senga maktub yozaman" qo'shig'ining
Navosi, ruhi, azobi
Ostida tugataman –
Katta jo'shqinlik va sevgi ila
Aziz opamga yetkazaman...

Ollohberdi ISMOILOV

MAKTUB

*Xuraman xonim Muradovaning
"Senga maktub yozaman" she'riga nazira*

Deganding: "Bir maktub yozaman senga,
Pochtadan xabar yo'q, chopar ko'rinmas.
(Arzim senga og'ir botmasin yana)
Hamon ki eshikdan ovozing kelmas.

Va yoki, yozishga qo'llaring tugun,
Yoki ustun keldi sevgidan g'urur?
Tanish pochtaoning o'rniga bugun
Eshigim oldida kuz eshik qoqur...

Hayotda ne bo'lsa, sarg'ayib so'ldi,
Yozmasang, o'zingni qiynama, qo'ygin,
Kuz shamoli esib, xato yo'l qo'ydi,
Mayli, yozguningcha salomat bo'lgin...

Vohid Aziz,
Xalq shoiri

OZARBAYJON G'URURI - XURAMAN MURADOVA

Ozarbayjonga safarim davomida asl uchra-
shuvimiz II Turk Dunyo adabiyoti va Kitob festiva-
lida ishtirok etish edi. Yetti kun davomida shoirlar,
yozuvchilar, san'atkorlar, noshirlar, ishbilarmon-
lar, adabiyot va kitob shaydolari bilan tanishdik.
Shoir va ishbilarmon Xuraman Muradova bilan
ham festivalda tanishdim. U ijodni she'r yozish-
dan boshlagan, she'rlari san'atkorlar tomonidan
kuylangan. Ozarbayjon xalqi uni me'mor, ishbilar-
mon, shoira, saxiy va gumanitar Ozarbayjon ayoli
sifatida taniydi va yaxshi ko'radi.

Ozarbayjonning faxri bo'lgan Xuraman Mura-
dova yozgan "Senga maktub yozaman" nomli asa-
ri shoirning ilk asaridir. 2022-yilda Bokuda nashr
etilgan "Senga maktub yozaman" asari haqida
ko'plab shoir, yozuvchilar taqrizlar yozgan, fikr
va mulohazalarini bildirganlar. Ba'zilari she'rlar,
ba'zilari maqtovlarga to'la satrlar bilan shoirning
vatanparvarligi, ishbilarmonligi, saxovatli Ozar-
bayjon fuqarosi sifatida xalqini sevishini, katta
yurakka ega ekanligini ta'kidlaganlar.

2023-yilda Kerkuk Madaniyat jamiyati va
Dunyo Aloqachilar jamiyatining Turk she'riyati
"Xizmat mukofot"iga sazovor bo'lgan. Nihoyat,



31-oktyabr 2023-yilda Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasida o'tkazilgan marosimda unga Iroq Madaniyat vazirining "Xizmat mukofoti" topshirilgan.

Xuraman Muradova xonim bilan 24-Xazar she'riyat kechalarida to'rt kun davomida she'r o'qib, sayohat qildik va adabiy suhbatlar bilan birga, Ozarbayjon, Turkiya va Kerkuk mavzularidagi loyihalarni ko'rib chiqdik.

Shoiraga muvaffaqiyat tilayman va "Senga maktub yozaman" nomli she'riga javoban quyidagi she'rimni bag'ishlayman.

(Nazira)

Senga bu maktubni
Na Bokudan, na-da Anqaradan
Senga bu maktubni
Vayron bo'lgan Fuzuliy masjididan,
Otamning uyidan,
Kerkul qal'asidan yozaman.
Senga maktub yozaman,
So'zlab beraman;
Kerkulning o'z tilimda yozilgan
Horyatlarini, Bayatlilarini, Manilarini.

"Olti yil Dajla-Furot sohillarida"
Yozilgan an'analarini
Senga yana bir bor eslatib o'taman,



O'rta Osiyodan, Ozarbayjondan
Iroqqa kelganimizni...

Senga maktub yozaman,
Bag'dodning o'sha issiq shamolidan,
Nasimiyning "Nasim" qishlog'idan,
Karbaling muqaddasligidan,
Najafning ulug'vorligidan
Aytib beraman;
Hazrat Ali bilan
Fuzuliyning qo'shni ekanligini
Sevgi ruhi, ilohiy muhabbat bilan
She'r qanday yozilganini
Senga aytib beraman.
Ahli-Baytning mavjudligini,
Dunyoning torligini...

Senga maktub yozaman,
Sizlardan uzoqda
Turkmanlar qanday qiynalayotgani,
Qorabog'ga, Nizomiyga, Xatayga
She'r va hayot yozganliklarini,
O'sha pokiza sevgilarini,
Mehr-u muhabbatlarini...
Senga maktub yozaman
Lekin yetarli bo'lmaydi na qog'ozlar,
Na qalamlar,
Senga bo'lgan sevgimni,
Muhabbatimni aytishga...

Dr. Shamsiddin KO'ZACHI



GO'ZAL SHE'RLAR MUALLIFI

She'r hissiyotlar, keng qalblar, katta tasavvur, chuqur muhabbat mahsulidir. She'rni faqatgina Ulug' Tangri tomonidan tanlangan odamlar yozadi. Ular Ulug' Tangrining yer yuzidagi elchilari hisoblanadi. Ularning qalbi keng, saxiy bo'ladi. Xuraman xonimning yozgan she'rlari juda mukammal. Ishonamanki, u kelajakda ham Ozarbayjon adabiyoti tarixida betakror, chuqur she'rlari bilan yashaydi. Xuraman Muradovanning she'rlari 2021-yilda respublika matbuotida chop etilganida, ko'pchilik o'quvchilarda qiziqish uyg'otdi. Chunki bu she'rlardagi originallik, qiziqarli, tasvirli ifodalar, so'zosti ma'nolar chuqurligi, she'rlarning puxtaligi qisqa vaqt ichida o'quvchilarni rom etdi. Uning saytlarda chop etilgan she'rlarining yuz mingdan ortiq o'qilgani va ko'plab foydalanuvchilar o'z fikrlarini yozib qoldirganini ko'rish mumkin. Xuraman xonimning "Yashamoq istarsan" she'ridagi yoqimli, aniq jumlar hayotning qanchalik go'zal ekanligiga bir dalildir.

*Ba'zan lol qolasan, ba'zida jimib,
Ba'zan dengiz kabi to'lib-toshasan.
Yuraging sog'inar, ruhing siqilar,
Ba'zan dengiz kabi to'lib-toshasan.
Yashashni xohlaysan aqldan ozib...*

Ozodlik nomli ovozi, shirin ona nafasi Vatan bo'lgan Xuraman Ismoil qizi Muradovaga yanada katta ijodiy muvaffaqiyatlar tilayman.

Og'alar IDRISO'G'LI,
*yozuvchi-rejissyor,
Xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi*

XAYRIXOH SO'Z SOHIBI

Xuraman xonim Muradovaning ijodi amalga oshirgan xayrli ishlari bilan birga rivojlanib bormoqda. Uning poetik nafasi, poetik ruhi ushbu so'zlarni aytmoqqa asos beradi. A. Bennet yozadi: "She'r va shoirdan asosiy kutganimiz – his-tuyg'ularimizning poetik ifodasidir".

Ha, aslida poeziya simvolik geometriyaning bir turi hisoblanadi, lekin agar ramzlar zamirida ehtiros turmasa, poeziya emas, faqat so'z o'yini bo'ladi. Xuraman Muradovaning poetik dunyosi mutlaqo boshqacha. U bilan har uchrashganimda, she'r tilida gaplashadi. Uning qalbi, yuragi so'zlar bilan, she'r bilan to'lib-toshgan. Go'yo bir buloq to'lib-toshib ketayotgan kabi.

Xuraman xonimning yuragi vatan deb uradi, vatan deya nafas oladi. Uning misralarida vatan sevgisi shohsupaga ko'tarilgan. Har bir so'zning ortida katta tarix turadi. Shoir bu tarixni so'zlar bilan yaratadi.

Xuraman xonim qonli tariximiz, adolatsizlikka qarshi qo'zg'olonni she'rda jonli tasvirlaydi. O'zligimizga qaytishni "Ozarbayjon – Turkiya" she'rida chiroyli tasvirlaydi:

*Bosh egmas turk o'g'loni
 Dushmaniga, yotiga.
 Sodiq bo'lar har zamon
 O'zining turk otiga.
 Loyiqdir teranlikka,
 Loyiqdir har sevgiga,
 Ozarbayjon – Turkiya!*

Ha, turkning yengilmasligi, haq uchun kurashi qasidada o'z o'rnini topadi. Turkning haqiqiy muhabbatga loyiq ekanini aytish bilan, "yetar" degan fikrga olib boradi. Turk har doim tinchlik, farovonlik, haq-haqiqat yo'lida bo'lib kelgan. Ular mardlik va jasurlik bilan namuna bo'lishgan. Aynan so'nggi 44 kunlik urushda turk birodarlarimizning yonimizda bo'lishi, g'alaba qozonishimizning asosiy sababi emasmi? Bu esa o'zimizga, naslimizga, ildizlarimizga qaytishimizning aniq isbotidir. Tarixiy yerlarimizni qaytarish, Qorabog' uchun haq kurashiga chiqqan millionlab jasur o'g'illarimizning qahramonligi katta g'alabaga yo'l ochdi. Bu g'alaba kelajagimizga, turkiyligimizga boradigan umumiy yo'ldir.

*Keling, osmonida qanot yoyaylik biz,
 Asrasin qo'llarimiz Turon elini.
 Birlashaylik biz bir xil bayroq ostida,
 Bayrog'imiz bo'lsin TURON kelini!*

Ha, turk elatlarimizning birligi Turonimiz birligiga yetaklaydi. Necha yillar mobaynida davom etgan Turon sog'inchiga yakun yasashga yaqinmiz. Bizning haqqoniy ovoqimiz juda uzoq emas. Barcha turk xalqlarining bir musht bo'lib birlashishi va TURON nomli davlatning barpo bo'lishi har birimizning orzu-istagimizga to'g'ri keladi. Xuraman xonim she'rlarining mazmuni aynan shu Turk birligi g'oyasidan kelib chiqadi.

Najiba ILKIN,
Shoir-publitsist, yozuvchi

FARISHTA CHEHRALI, SHARAFLI OZARBAYJON AYOLI

Odamlar hayotiga, umr yo'liga nazar solganda, ba'zan go'yo hamma bir xil umrni yashayotgandek tuyuladi. Go'yo odamlar bir-birining hayotini takrorlayapti. Ammo shunday odamlar borki, ularning umri tengsiz tajriba, almashtirib bo'lmas namunaga aylanadi. Ular insonlik, fido-yilik, mehnatsevarlik, poklik, samimiyat, sha'n va o'rnak timsoliga aylanadi. Xuraman xonim Ismoil qizi Muradova aynan shunday odamlardandir... U faqatgina Ozarbayjonimizning gullab-yashnash yo'lida emas, balki butun turk dunyosi miqyosida go'zal ishlarni amalga oshirmoqda. Umumxalq liderimiz, ulug' ota Haydar Aliyev boshlagan yo'lga sodiqligini namoyish etdi. U ilk yoshlik yillaridan boshlab, jamiyatimizning ijtimoiy hayotida qo'lidan kelganini katta yurak bilan, milliy g'amxo'rlik hissi va yuqori mehnatsevarlik bilan amalga oshirdi. 44 kunlik Vatan urushi arafasida orqa frontda moddiy-ma'naviy yordamlar bilan sharaflı missiyasini muvaffaqiyatli bajardi. Xuraman xonimning fidoyiligi, jasorati, mehnatsevarligi, sodiq fuqaroligi uning yuqori insoniy xarakteridan xabar beradi.

Bugun Xuraman xonimning sharaflı umrini kitob kabi varaqlasak, umr yo'lining biz yoshlar va butun jamiyatimiz uchun qadrli namunasi ekanli-

giga guvoh bo'lamiz. U vijdon, fazilat, halollik, samimiylik, kamtarlik, oila muhabbati, go'zal axloq, kattalarga hurmat, bolalarga muhabbat, do'stga sadoqat, ziyolilik va eng muhimi INSONLIK timsoli...

Mustafo Kamol Otaturkning doimo eslab yuradigan go'zal so'zi bor: "Men yer yuzida ko'rgan barcha go'zalliklar ayollarning asaridir". Ba'zan ayollar aqli, mehnatsevarligi, bilimi, qobiliyati bilan shu darajada go'zal naqshlar yaratadiki...

Bu dunyoda vijdonga sodiqlikdan katta ulug'lik yo'q... Xudo bu ulug'likni Xuraman xonim Muradovaning peshonasiga go'zal xat bilan yozgan. Xuraman xonim katta ma'naviy mas'uliyatni yuqori darajada eng go'zal tarzda ado etdi!

Xuraman xonim Muradovaning sharaflı umr yo'li barchamiz uchun, butun turk yoshlari uchun qimmatli namuna bo'la oladi.

Vijdonli fuqaro va ziyoli xonim bo'lish, butun vujudi va ruhi bilan xalq farovonligi yo'lida o'zni fido qilish hammaning ham qo'lidan kelmaydi. Yuraklarda ishonch qozongan inson bo'lish maqomini Xudo hamma insonga ham bermaydi. Qalbimiz to'rida hurmatdasiz, Xuraman xonim!

Qadriyatlar o'zgargan bu zamonda siz kabi vijdonli, halol, mehnatsevar, kasbi va oilasiga mu-



habbatli insonlarning borligi qanday yaxshi! Sharafi, nomusi, vijdonini arzon sotganlar ko'paygan dunyo markazida siz kabi o'zining samimiyati, so'zi, ishi, oilasi va ismi pokligini – Xudo omonati kabi himoya qilgan, fikr-u amallari bilan jamiyatimizga yorug'lik taratgan ayollar mavjudligi odamga tasalli beradi. Agar bu ona zamin Xuraman xonim Ismoil qizi Muradova kabi muqaddas insonni yetishtira olgan bo'lsa, demak, hali ertangi kunga va yashashga umid bor...

Xayola ZARROB qizi,
filologiya fanlari nomzodi

MUNDARIJA

I BO'LIM. Adabiy va abadiy aloqalar

Muallif so'zi.....	4
Tarjimai hol.....	6
Adabiy va abadiy aloqalar.....	9

II BO'LIM. Vatan ishqı

Ozarbayjon.....	20
Ko'zing oydin, ey, vatan!.....	22
Vatan.....	23
Ey, Lochin, jon Lochin!.....	25
Sajdangga kelganman, Shusham!.....	26
Ozarbayjon-Turkiya.....	27
Turon ellari.....	28
Zafar qo'shig'i.....	30
Shahidlar xiyoboni.....	32
Armonim Xojali.....	34
Vatan nomli shahidlar.....	36
Ayasofiyam.....	37
Turkiyam.....	38
Qandoq chiday bu dardga.....	39
To'xta, zilzila!.....	40
Salom senga, aziz vatan.....	41
O'zbekiston!.....	41
O'zbekistonim mening, Sen ham ona vatanim!.....	43
Ozarbayjon, O'zbekiston.....	45
Turon dildoshlari.....	47
Qozog'iston.....	49
Vatanning o'g'illari.....	50
Samarqandning yulduzlari.....	51
Qorabog'ning bag'ridan.....	55

Yo'limiz Tangritog'ga... ..	55
Turkman onam.....	56
Naxchivonim.....	58

III BO'LIM. Halollik beshigim...

Ey, ona... ..	62
Ota.....	64
O'g'limga.....	65
Qizim Lochinga.....	67
Sevganlarimizni qadrlaylik... ..	69
Momomning samovari.....	74
Qishlog'im yodga tushar.....	75
Goranbo'yim.....	77
Men ko'k odamiman... ..	78
Chidagin, yuragim.....	80
Haq oshig'i.....	81
Og'ochlar... ..	82
Insonning yoridir so'zi!.....	83
Yana kelsin Ramazon.....	84
Uringin.....	85
Har kasda bo'lsaydi.....	86
Yuragim.....	87
Xotinlar.....	88

IV BO'LIM. Yarim qolgan maktublar...

Senga maktub yozaman... ..	90
Juda xafaman sendan... ..	92
Siqilsang, o'qi, yig'la!.....	93
Unutmoqqa haqqim bor.....	94
Seni uyquda ko'rdim.....	95

So'yla, qayda qolmishsan	96
Yashirin muhabbat	97
O'tdi sevgi qatori	98
U ketgan kelmagaydir	99
Izlarimiz	101
Sevgi yog'dusi	102
Bir kun bo'lmagayman	103
Boshqa u yerlarga qaytmasman	104
Seni yashataman	105
Chiq, ket mendan uzoqlarga	107
Unutma meni	108
Uzoqlarga ketma...	109
Xafaman men	110
Senga nima deyman...	111
Unuta bilsam agar...	112
Men ketar bo'ldim	114
Men ko'klarni sevaman	115
Kel	116
Ayriliq shamollari...	117
Kimim borki, tog'larda?!	118
Ko'rgan zerikarmi hech?!	119
Xayolimda yana sen...	120
Yana tushlaringa ishonmayman men...	121
Kelarman yana men...	122
Yangidan dunyoga kelmoq istayman	124
Yarim qolgan maktublar...	125
Kelajak bahorda yana kelaman...	126
Bir kun chiqib ketasan	127
Seni unutishim kerak	128
Yashamoq istarsan devonalarcha...	129
Senga bormagan yo'llar...	130
Behuda umidlar bermangiz...	132

Birovga aytolmayman	133
Sen yo'q kabisan...	134
Siqilmoq...	135
Kipriklarimning xotirida qoldi	136
Savdoli boqishing...	136
Sevimli isming ketadi	140
Ortga qaytmadi...	142
Allohim, kechirgin meni...	143
O'g'lim.....	144
Men sevgi shoiriman!!!	145
Ona tilim	146
Insonning yoridir so'zi.....	147
O'limdan qo'rqmangiz.....	148
Bu bahor sevgimiz xazonga do'ndi.....	149
Sevgandim seni	150
Yana sen bor eding	151
Nimamga lozimsan sen bundan keyin	152
Unga yolg'on so'yladim.....	153
Xotira sen.....	154
Sen yo'qsan.....	155
Nabi va Hojar dostoni.....	157

IV BO'LIM. E'tiroflar

Yasha sen, Xuranim!.....	184
Xuraman xonimning buyuk qalbi...	185
Xuraman xonim bilan tanishuv	187
Senga maktub yozaman	189
Maktub.....	192
Ozarbayjon g'ururi - Xuraman Muradova.....	193
Go'zal she'rlar muallifi.....	196
Xayrixoh so'z sohibi	198
Farishta chehrali, sharaflari Ozarbayjon ayoli.....	200

Adabiy-badiiy nashr

Xuraman MURADOVA
VATAN ISHQI – TURON SEVGISI

She'rlar

Muharrir:

Dilrabo Mingboyeva

Badiiy muharrir:

Farrux Ermatov

Texnik muharrir:

Rustam Isoqulov

Sahifalovchi:

Sarvar Eshpo'latov



SAHHOF nashriyoti

100129. Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30

☎: +99899 111-94-62

✉: +99894 659-94-62



8527

Bosishga 2025-yil 12-yanvarda ruxsat etildi. Bichimi 84x108^{1/32}.

Ofset bosma. "Cambria" garniturasini. Nashr bosma tabog'i 13.

Adadi 1000 dona. Buyurtma № 06/1

«SAHHOF» MCHJ matbaa bo'limida chop etildi.

100129. Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30.

















